

Toshkent shahridagi Singapur Menejmentni Rivojlantirish Instituti

Jumayeva Sh.B., Mammetova B.I., Mamatkulov I.A.

BO‘STONLIQ – TOSHKENT VOHASI JAVOHIRI

(ilmiy-ommabop kitob)



KBK 65.433

75.81

B 99

Bo'stonliq - Toshkent vohasi javohiri [Matn] .- Toshkent: Toshkentdagi Singapur menejmentni rivojlantirish instituti, 2023.- 128 b.

Mualliflar: Jumayeva Sh.B., Mammetova B.I., Mamatkulov I.A.

Muharrir*: Jumayeva Sh.B.


*Matn plagiат va grammatika uchun tekshirildi. Mualliflar kitob mazmuni uchun to'liq javobgarlikni o'z zimmasiga oladi.

Ushbu nashrning hech bir qismini Toshkent shahridagi Singapur Menejmentni Rivojlantirish Instituti ruxsatsiz har qanday shaklda, elektron yoki mexanik, shu jumladan fotokopi, yoki axborotni saqlash va qidirish tizimi yordamida qayta ishlab chiqarish yoki uzatish mumkin emas.

MUNDARIJA

I. So‘z boshi	3
II. Bo‘stonliq tumani geografik joylashuvi, iqlimi va tabiatı.....	6
III. Toshkent vohasi tamaddun tarixi.....	12
3.1. Tarixiy makonga boy Bo‘stonliq.....	21
3.2. Toshga bitilgan dostonlar.....	27
IV. Bo‘stonliq xalqining boy ma’naviy me’rosi.....	33
4.1. Xalq og‘zaki ijodi. Folklor.....	33
4.2. Milliy qadriyatlar, urf-odat va marosimlar.....	38
4.3. Milliy taomlar.....	44
V. Bo‘stonliq tumanining iqtisodiy salohiyati va taraqqiyot istiqbollari.....	47
5.1. Turizm – barqaror iqtisodiy taraqqiyot omili.....	47
5.2. Ziyorat turizmi.....	58
5.3. Bo‘stonliq tumanining muqaddas qadamjolari va ziyoratgohlari.....	65
5.4. Ekologik turizm.....	81
5.5. Turizmning faol turlari (trekking, rafting, alpinizm).....	90
5.6. Qishloq turizmi (etnografik, agroturizm).....	96
5.7. Tibbiyot turizmi.....	116
6. Foydalanilgan manba va adabiyotlar ro‘yxati.....	124

SO‘Z BOSHI



So‘lim va betakror Chirchiq vohasi, Olmaliq va Ohangaron kengliklarida joylashgan Toshkent viloyati, bu ko‘hna diyor har qanday yuksak ta’rifga munosibdir. Bu zamining unumdon tuprog‘i, qut-baraka yog‘iladigan dala va bog‘lari,

oltin, kumumsh, mis, marmar, ko‘mir kabi zahiralarga boy konlari, eng muhimi, mehnatkash, bag‘rikeng, ko‘p millatli xalqi vatanimiz ravnaqiga munosib hissa qo‘sib kelmoqda.

**Shavkat Mirziyoyev,
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti**

Ko‘hna va hamisha navqiron Toshkent vohasi nafaqat O‘zbekiston, balki butun Markaziy Osiyodagi eng yirik mintaqalardan biri hisoblanadi. Qulay geografik joylashuvi, o‘ziga xos fauna va florasi, iqlimi hamda yer osti boyliklari vohaning iqtisodiy taraqqiyotida muhim rol o‘ynaydi. Ko‘chmanchi chorvachilik hamda o‘troq dehqonchilik xo‘jaliklari o‘rtasida o‘zaro iqtisodiy, siyosiy, savdo-sotiq va madaniy aloqlari markazi hamda Buyuk Ipak yo‘li chorrahasida joylashgan voha o‘ziga xos tamaddun tarixiga ega. Toshkent vohasining qadim va shonli tarixi to‘g‘risida antik hamda o‘rta asrlarga oid yuzlab qo‘rg‘onlar, shaharchalar va me’morchilik yodgorliklari ma’lumot beradi.

O‘ziga xos iqlimi, tabiat, boyliklari va tarixga ega Toshkent vohasi mamlakatda turizm industriyasini salohiyatiga ko‘ra, yetakchi o‘rinlardan birini egallaydi. Ichki turizm bilan bir qatorda xorijiy sayyoohlarni oshirish, mazkur sohadagi mavjud imkoniyatlardan keng foydalanish bugungi kunda mamlakat iqtisodiy salohiyatini oshirishga xizmat qilmoqda. Ayniqsa, so‘nggi yillarda jahon siyosiy maydonlaridagi

voqealar, insonlar turmush tarzi va iqtisodiy ahvolining yaxshilanishi turizm sohasining rivojlanishiga xizmat qilmoqda.

	Saudiya Arabiston		Birlashgan Arab Amirliklari
	Turkiya		Qozog‘iston
	Marokash		Eron
	Malayziya		O‘zbekiston
	Bahrayn		Indoneziya

1-rasm. Eng jozibali deb tan olingan 10 ta mamlakat.

Bugungi kunda barcha sohalarda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlardan ko‘zlangan pirovard maqsad mamlakatimiz iqtisodiyotini yanada rivojlantirish, xalqimiz turmush farovonligini yuksaltirishga xizmat qilishdan iboratdir.

E’tirof etish lozimki, sayr-sayohatlar (ekskursiya) xalqaro miqyosdagi eng ommaviy-madaniy tadbirdan biridir. Tarixiy madaniy obidalarni tomosha qilish, ularning tarixi bilan tanishish, zamonaviy qurilishlar, hashamatli uylar, chiroyli bog‘-rog‘lar, millatlarning urf-odatlarini o‘rganish kabi sohalar har doim sayohatchilarining diqqat-e’tiboridan keng joy oladi. Bunda ulovlardan (transport) foydalanish, moliyaviy xarajatlar, yashash joylari hamda oziq-ovqatlar bilan ta’minlash, madaniy xizmatlar ancha ustuvor tashkiliy faoliyat hisoblanadi. Bu kabi imkoniyatlarning mavjudligi mamlakatimizning turizm salohiyatini belgilab beradi. Ayniqsa Toshkent viloyati O‘zbekiston Respublikasining poytaxtiga yaqin hudud bo‘lganligidan ko‘pchilik mehmnlarnining qiziqishiga sabab bo‘lib kelmoqda

Ommaviy piyoda yurish sayohatlari asosan tog‘li manzaralar, daryo, ko‘l, suv omborlari sohillari kabi xushmanzarali joylarga tashkil qilinadi, bunday joylar Toshkent viloyatida xususan, Bo‘stonliq tumanida juda ko‘p. Bunda tabiat bilan

tanishish, so‘lim, go‘zal manzarali joylarda tunash, ovqatlanish, jismoniy mashqlar, turli amaliy harakatlarni bajarish bilan jismonan chiniqish kabi sinovlarni olib borsa bo‘ladi.

Yuqorida aytganimizdek O‘zbekiston geografik joylashuvi va tabiiy muhiti hamda tarixiy obidalarga boy bo‘lgan shaharlari sayr-sayohatlar (piyoda yurish) uchun juda qulay hisoblanadi. Tarixiy obidalar, betekror tabiat manzaralari, Toshkent viloyati tumanlarining yangi jamoli faqat mamlakatimiz aholisinigina emas, balki xorijiy mamlakatlarning ham diqqatini o‘ziga jalb etadi.

Ayniqsa Toshkent vohasidagi go‘zal manzaralarda sog‘lomlashtirish oromgohlari, sport maskanlari (lagerlar) o‘quvchiyoshlar va talabalar hamda havaskor sayohatchilar uchun eng qulay manzillar bo‘lib xizmat qilmoqda.

Shuning uchun ham Toshkent viloyati tumanalari xususan, Bo‘stonliq tumanida ichki va tashqi turizmni rivojlantirishda uning tarixi, tabiat, urf-odatlari, iqlimi va boshqa bir qanch jihatlarini o‘rganish, undagi xizmatlar va servisning samaradorligini oshirish eng dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Mazkur risola Toshkent viloyati Bo‘stonliq tumani tamaddun tarixini o‘rganish, targ‘ib etish, shuningdek, ko‘p millatli xalqining milliy-madaniy merosini mamlakatimiz, shu bilan bir qatorda xorijda keng targ‘ib etish, hududning turistik salohiyatini keng ommaga tanishtirish maqsadida tayyorlandi.

II. BO‘STONLIQ TUMANI GEOGRAFIK JOYLASHUVI, IQLIMI VA TABIATI


Bo‘stonliq tumani – Toshkent viloyatidagi eng yirik ma’muriy-hududiy birlik bo‘lib, mintaqaning shimoliy-sharqida joylashgan. Tuman shimolda Qozog‘iston, janubda Qirg‘iziston bilan chegaradosh.

Bo‘stonliq tumani hududi tog‘li relyefga ega bo‘lib, bu yerni shimoli-g‘arbiy Tyan-Shan tog‘ining Pskom va Ugom tizmalari o‘rab turadi. Hudud Tyan-Shan tog‘ tizimidagi Ugom, Pskom, qisman Qorjontov (shimoli-sharqda), Chotqol (janubiy g‘arbda) tizmalari oralig‘ida joylashgan. Tog‘ oldi va tog‘ etaklarining balandligi 600–800, uning eng baland nuqtasi (Beshtor tog‘i) 4291 metrni tashkil etadi.



2-rasm. Bo‘stonliq tumani tabiat.

Mintaqaning asosiy tizmalari orasidan Pskom daryosi oqib o‘tgan bo‘lib, u Chotqol bilan qo‘shilib, Chirchiq daryosini hosil qiladi. Pskom va Chotqol daryolari qo‘shilgan joyda elektr stansiyalari hamda Chorvoq suv ombori va gidrouzeli (to‘g’oni), G‘azalkent hamda Xo‘jakent GESlari barpo etilgan. Tizmalar kesib o‘tgan vodiylarida ko‘plab aholi punktlari joylashgan.



3-rasm. Bo'stonliq tumani xaritasi.

Bo'stonliq tumani – Toshkent viloyatining iqtisodiy va ijtimoiy-ma'naviy salohiyati yuqori tumanlaridan biridir. U 1955-yil 19-aprelda tashkil etilgan bo'lib, 1962-yil 24-dekabrdan 1968-yil 25-dekabrga qadar Yuqori Chirchiq tumaniga bo'ysungan.

Tuman shimolida Qozog'iston Respublikasining Janubiy Qozog'iston, sharqda Qirg'iziston Respublikasining Talas viloyatlari, janubi-sharqda Namangan viloyatining Pop, shimoli-g'arbda Toshkent viloyatining Qibray, janubda Yuqori Chirchiq, Parkent va Ohangaron tumanlari bilan chegaradosh.

Tumanning umumiylar maydoni 4,93 ming km²ni tashkil etadi. Uning aholisi 142,9 ming (2000 yil holatiga ko'ra) kishidan iborat. Ma'muriy jihatdan Bo'stonliq tumani unga bo'ysunuvchi G'azalkent shahri va 18 mahalla fuqarolar yig'ini (Bog'iston, Bo'stonliq, Dumaloq, Jahonobod, Ozodbosh, Pargos, Sijjak, Soyliq, Toshpo'lat Dadaboyev, Ugom, Xumson, Chimboyliq, Chimyov, Yangiovul, Qoramanas, Qo'shqo'rg'on, G'alaba, Hundayliq)dan iborat. Tuman markazi – G'azalkent shahridir (Toshkent shahri bialn oraliq masofa 58 kmni tashkil etadi).

Bo'stonliq tumanining iqlimi tog'li hududlarga xos bolib, uning shimoli-sharqiy qismida, ayniqsa, yog'ingarchilik, ko'proq (1500–2000 mm) yog'adi. Qishi

sovuj, yozi esa salqin, sernam, yillik yog‘in miqdori tog‘ning pastki qismida 600 mm dan, yuqori qismida esa 1200–2000 mmga ortadi. Yanvar oyining o‘rtacha harorati 9°–15°sovuj, iyul oyiniki 17°–21°issiqni tashkil etadi.

O‘simlik dunyosi. Bo‘stonliq tumani adir (tog‘ oldi) va tog‘ tizmalaridan iborat bo‘lib, tog‘ oldi hududlarining rel’efi notejis joylashgan. Tuprog‘i bo‘z tuproq, cho‘lga nisbatan yog‘in birmuncha ko‘p yog‘adi, shuning uchun yer osti suvlari ko‘proq. Adir va tog‘da o‘sadigan o‘simliklar qoplaming asosiy qismini rang va qo‘ng‘irbosh tashkil etadi.



4-rasm. Bo‘stonliq tumani o‘simlik olami.

Tog‘yon bag‘irlarida to‘q bo‘z, qo‘ng‘ir, jigarrang o‘rmon tuproqlarida halacho‘l, dasht o‘simliklari, daryo vodiyalarida butalar o‘sadi. Yuqori adir, soylar va

sersuv toshloq yerlarda butalardan qo'shyaproq, zirk, na'matak; daraxtlardan bodom, ayrim joylarda pista hamda do'lana o'sadi. Do'lananing mevasi qand va yog'ga boy, unda olma kislotasi ham mavjudligi uchun u konditer sanoatida keng foydalaniladi. Uning po'stlog'i va bargidan bo'yoq olinib, undan to'qimachilik sanoatida ishlataladi. Do'lana shifobaxsh o'simlik bo'lib, uning guli, mevasidan tayyorlangan dorilar yurak faoliyatini yaxshilash, qon bosimining ortishiga qarshi va boshqa kasalliklarni davolashda keng qo'llaniladi.

Ugom va Pskom tog'larida bargli o'rmonlar tog' tizmalarida asosan olma, tog'olcha, yong'oq, bodom, do'lana kabi mevali daraxtlar va, shuningdek, bir necha tur zarang, terak, tol, qayin, chetan kabilar o'sadi. Bargli o'rmonlarda yong'oqzorlar keng tarqalgan. Qorjantog', Ugom, Pskom, Chotqol tog' tizmalarida 900–1500 metr balandlikdagi sernam yonbag'irlarda ancha qalin tabiiy yong'oqzorlar mavjud. Yong'oq mag'zida yog', oqsil, qand, A, B, C vitaminlari va mikroelementlar mavjud. Yong'oq bargidan ta'sirchan fitotsid va efedra ajralib turadi, *shu sababli yoz oylarida uning tagida yotib qolish tavsiya etilmaydi*.

Yong'oq daraxti – koni foydadir. Yog'ochi mebelsozlik sanoati uchun qimmatbaho xomashyo bo'lsa, bargidan tortib mevasigacha shifobaxsh xususiyatga ega. Xalq tabobatida yong'oqning barglari, gullari, meva g'o'rasi, po'stlog'i, po'chog'i, mag'zining po'stlog'i va moyidan keng foydalaniladi. Masalan, yong'oq g'o'rasi kamqonlikda naf bersa, undan tayyorlangan murabbo gipertoniya, qandli diabetni davolashda yaxshi samara beradi. Barglaridan tayyorlangan damlama me'da yarasi, ateroskleroz, shuningdek, yiringli yaralarga tavsiya qilinadi. Bargining qaynatmasi soch to'kilishining oldini olib, o'sishini tezlashtiradi.

Adir mintaqasi asosan uzumchilik, bog'dorchilik mintaqasi hisoblanib, u o'simlikka boyligi hamda dehqonchilik va chorvachilik uchun qulayligi bilan ajralib turadi.

Mutaxassislarning ma'lum qilishicha, mamlakatimizda bog'dorchilik va uzumchilikni rivojlantirish uchun Toshkent viloyatining Bo'stonliq, Parkent hamda Ohangaron tumanlari, Farg'ona vodiysi va Jizzax viloyatining tog'oldi mintaqalari, Andijon, Samarqand, Surxondaryo, Navoiy va Qashqadaryo viloyatlarining tog'li mintaqalari istiqbolli hisoblanadi.

Bo'stonliq tumanining tog' mintaqasining yuqori qismida (2000–2700m) ignabargli o'rmonlar uchraydi. Bunday o'rmonlarda qarag'ay, pixta, qizil archa, savr archa va o'rik archa ko'p o'sadi. Chotqol tog'larida qoraqarag'ay, pixta o'rmonlari uchraydi.

Archa sekin o'sadi, 40 yoshida bo'yining balandligi 2–2,5 metrgacha boradi. 100 yoshga kirganda archalar bo'yi Boysun tog'larida 20–25 metrga, tanasining diametri 1–1,5 metrga boradi. Archa yog'ochi qurilishda, qalam, har xil buyumlar ishslash, o'tin va pista ko'mir tayyorlashda ishlataladi. Archaning kichik shoxlarida efir moyi bo'ladi. Shuning uchun archa bargi va yog'ochi xushbo'y hid taratib turadi. Tog' archazorlarining melioratsiya ahamiyati ham katta. Archa ostida yig'ilgan barglari yaxshi nam saqlab, yer osti suvini to'yintiradi, tuproqning yuvilishiga yo'll qo'ymaydi, seldan saqlaydi.

Hozirgi vaqtida barcha tog' o'rmonlari o'rmon xo'jaliklari tomonidan nazorat qilinadi va qo'riqlanadi hamda kengaytirib boriladi.


Hayvonot dunyosi. Bo'stonliq tumaninig hayvonot dunyosi juda o'ziga xos va



boydir. O'rmonlarda yovvoyi mevali daraxtlar va butalar orasida yovvoyi cho'chqa, tulkilar, ayiqlar yashaydi. O'rmon zonasida kirpi, bo'rsiq, o'rmon sichqonchasi uchraydi. Tog' tizmalarining baland qismlarida kiyik, qor qoploni, bo'ri, oq panjali ayiq, Turkiston silovsini va boshqalar uchraydi. Bu yerda qushlardan kaklik, kaptar, bulbul, chumchuq, lochin, kalxat, burgut va ko'plab yirtqich qushlar qoyalar va qiyaliklarda uya quradilar.

5-rasm. Menzbir sichqoni (bo'rsiq).

Chotqol qo‘riqxonasining alohida muhofazasi ostida G‘arbiy Tyan-Shanning endemik hayvonni, baland tog‘lar yashovchisi, Menzbir sichqoni (*bo‘rsiq*) mavjud. Ushbu hayvonlar oila bo‘lib yashaydi va bir nechta oilalar koloniyasini tashkil qiladi. Yildaga taxminan 8–9 oy ular o‘zlarining ko‘plab avlodlari tomonidan qurilgan murakkab chuqurliklarida qishni uyqusida o‘tkazadilar. Menzbir birinchi qorlar erishi bilan er yuzifa sirtda paydo chiqishadi va avgust oyining oxiriga kelib ular uzoq qish uchun zarur bo‘lgan yog‘ zaxirasini to‘plashadi. Aynan shifobaxsh xususiyatlarga ega bo‘lgan yog‘i tufayli Menzbir sichqoni shafqatsizlarcha yo‘q qilindi va ular kamdan-kam uchraydi.



6-rasm. Bo‘stonliq tumani hayvonot olami.

Tulkilar kemiruvchilar va qushlar, bo‘rilar yovvoyi tuyoqli hayvonlarni ovlaydi. Ikkala hayvon ham ko‘pincha bo‘rsiqlar tomonidan qazilgan chuqurlarda ko‘payishadi.

Oq tirnoqli ayiq – tinch hayvon bo‘lib, chorva mollari va asosiysi, odamlarga hujum qilmaydi. Unga o‘simlik ozuqasi yetarli bo‘lib, u asalari asalini yaxshi ko‘radi, o‘lik hayvonlar go‘shtnlarini ham iste’mol qiladi. Qish yaqinlashganda o‘rmon ozuqalarini iste’mol qilgan ayiqlar baland tog‘lardan qoyalarda tanho boshpana topadi va uyquga kiradi. Ularning uyasi yuqoridan qor bilan qoplangangach, hayvonlar bahorgacha tinch uxlashi mumkin.



7-rasm. Bo‘stonliq tumani tog‘lari.

III. TOSHKENT VOHASI TAMADDUN TARIXI

Toshkent vohasi insonlar tomonidan paleolit davridayoq o‘zlashtira boshlangan. Ibtidoiy odamlar yashagan manzilgohlar, chaqmoqtosh qazib olish va qayta ishslash konlari, tosh qurollari vohaning poleolit, mezolit va neolit davrlariga oid tarixidan dalolat beradi. Ana shunday yodgorliklardan biri nafaqat O‘zbekiston, balki Markaziy Osiyoda mashhur, o‘rta poleolit davriga mansub Obirahmat yodgorligidan 2003-yilda bundan 70 ming yil oldin yashagan odam suyaklarining topilishi Toshkent viloyati qadimiy sivilizatsiya makonlaridan biri ekanligini yana bir bor tasdiqladi. Mutaxassislar Obirahmat g‘oridan topilgan odam qoldiqlari ham neandertal, ham zamonaviy odam belgilarini o‘zida mujassam etgan, degan xulosaga kelgan. Demak, Markaziy Osiyoda 70 ming yil oldin zamonaviy Homo sapiens aylangan neandertal odam evolyutsion tarzda rivojlanib borgan hududlar sirasiga kiradi.

Ajdodlarimiz Chirchiq (Turk, Barak yoki Parak, Chir) daryosi havzasi vodiysida joylashgan, daryo irmoqlari va anhorlar orqali mo‘l-ko‘l sug‘oriladigan, chorvachilik yaylovlari, dehqonchilik va bog‘dorchilik uchun yaroqli serhosil tuprog‘i bo‘lgan vohada har tomonlama buyuk tamaddunga tamal toshini qo‘ydi. Qadim-qadim zamonlarda Toshkent (turkiyda-Choch; xitoychada-Yuyni, Chjeshi, Shi, Tashigan; arab tilida-Shosh, Shoshkand) Chirchiq va Ohangaron daryolari vodiylarini, ularga tutashib ketgan bepoyon Dashti Qipchoq kengliklari va Movarounnahr dehqonchilik vohasi o‘rtasida yastanib yotgan Sirdaryo chap qirg‘og‘i tog‘ va dasht tumanlarini egallagan edi. Qulay iqlim, boy foydali qazilmalar (oltin, kumush, temir, qo‘rg‘oshin, feruza va boshqalar) va serunum tuproq vohaning iqtisodiy taraqqiy etishiga, ayni chog‘da, ko‘chmanchi chorvadorlar va o‘troq dehqonlarning o‘zaro iqtisodiy, siyosiy, savdo-sotiq va madaniy aloqlari markaziga aylantirdi. Antik davrlardayoq Ko‘lbuloqda oltin, Lashkarakda kumush, Ungurlikonda feruza qazib olingan.

Birinchi ming yillik boshidayoq Toshkent vohasi Buyuk Ipak yo‘lidagi eng muhim markazlardan biriga aylanib bo‘lgan edi. Toshkentning qadim va buyuk tarixi to‘g‘risida qadimgi va o‘rta asrlarga oid yuzlab qo‘rg‘onlar, shaharchalar

hamda me'morchilik tarixiy obidalari ma'lumot beradi. O'lka tarixi boy va xilmalixil bo'lib, juda ko'plab tarixiy manbalarda qayd etib o'tilgan. Jumladan, musulmon malakatlarini kezib chiqqan arab, fors olim va geograflari Al-Istahriy, Ibn Havqal va Al-Muqaddasiy tomonidan Shosh tarixiy viloyati quyidagicha ta'riflangan: "Xuroson va Movarounnahrda jome masjidlari, obod qishloqlari ko'pligiyu, zaminlari kengligi va imoratlari ko'pligi-aholisining kuch-quvvati va jasurligi borasida bu kabi boshqa bir mamlakat uchramaydi...."¹.

Tadqiqotchilar, arab sayyoohlari va geograflari yozib qoldirgan manbalarga asoslanib, yirik shaharlar bunyodga kelishi jarayonidagi o'ziga xos taraqqiyot tadriji yuzasidan tasavvur hosil qilish mumkin. Zero, X asrda Chochda 50 ta, butun Movarounnahr hududida esa 200ta shahar mavjud bo'lganligi tarixiy manbalarda qayd etilgan².

Jumladan, tarixiy manbalarda keltirilgan ma'lumotlar asosida va olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida Toshkent vohasida o'rta asrlarda mavjud bo'lgan shaharlar aniqlanib, mazkur shaharlar o'lkaning siyosiy, iqtisodiy hayotida, savdo-sotiq aloqalarida muhim o'rin egallagan. Jumladan, Banokat (keyinchalik Shohruhiya), Xarashkent, Unjakent, Chinochkent (Chinoz), Shuturkent, Danfag'akent, Zaltikent, Banunket, Binket (Toshkent), Nujket, Jabg'uket, Farnket (Parkent), Zarankent (Zarkent), Nomalvonak, Nuket, Tunket, Mozortepa, Beshtepa, Munchoqtepa, Kuhisim, Abrlig' (Ovlig'), Namudlig', Dahket, Tunket, Bisket (Piskent), Samsirak kabi mustahkam, obod shaharlari bo'lgan³.

Rus yozma manbalarida Toshkent vohasi to'g'risida savdogarlar, elchilar va sayyoohlari keltirgan anchagina ma'lumotlar uchraydi. Chunonchi, Rus podshosi Ivan IV no'g'aylarga yuborgan elchisi Daniil Gubinning axboroti (1534); Kniga Bolshomu Cherteju (1627) kitobi; 1738–1739-yillarda Toshkentga yuborilgan birinchi rus savdo karvonining boshlig'i Millerning yozganlari (1762-yilda P. I. Richkov tomonidan chop etilgan); Toshkent hokiminining taklifi bilan shahar

¹ Ўзбекистон обидаларидаги битиклар.(2016) Тошкент шахри.-Т: UZBEKISTON TODAY, 9-6.

² Эшмираева З. А. Шош ва Илоқ йўлларида. Тошкент вилояти зиёратгоҳлари ва қадамжолари. – Т.: Press Oltin Meros, 2020. – Б. 8.

³ Буряков Ю.Ф. Историческая топография древних городов Ташкентского оазиса.Т.: 1975.-С.13.

yaqinidagi tog'larda qazilma boyliklarni o'rganish maqsadida kelgan injener-geologlar – M. Pospelov va T. Burnashevlarining xotirotlari (1800); Filipp Nazarovning sayohatnomasi (1813–1814-yillar) shular jumlasidandir.

Toshkentning ma'lum bir davri tarixiga oid voqealarni hikoya qiluvchi mahalliy tarixchilar qalamiga mansub manbalar jumlasiga quyidagi asarlarni kiritish mumkin: Hofizi Abruning “Zubdat ut-tavorix” (XIV asr oxiri- XIV asr boshlari), Muhammad Haydarning “Tarixi Rashidiy” (XVI asr), Zayniddin Vasifiyning “Badoye’ al-vaqoye” (XVI asr), Muhammad Yusuf Munshiyning “Tarixi Muqimxoniy” (XVII asr), Muhammad Amin Buxoriyning “Ubaydullanova” (XVIII asr), Muhammad Hakimxon To‘raning “Muntaxab at-tavorix” (XIX asr), Muhammad Fozilbekning “Mukammal tarixi Farg‘ona” (XIX asr), Mulla Avaz Muhammadning “Tarixi jahon namoy” (XIX asr), Niyoz Muhammadning “Tarixi Shohruxiy” (XIX asr), Mirzo Olimning “Ansob as-salotin” (XIX asr) kabi asarlar shular jumlasidandir.

Shuningdek, Toshkent shahri va uning atrofidagi mozorlar to‘g‘risidagi ma'lumotlar Mavlono Muhammad qozining “Silsilat ul-orifiyn”, Faxriddin Ali as-Safiyning “Rashahot-u ayn-ul hayot” (1503), Muhammad Olim Siddiqiyning “Lamahot min nafahot ul-quds” (1624), Tohir Eshonning “Tazkirai Tohir eshon” (XVIII asrning 30-yillari), Xoja Abdurahim Hisoriyning “Tuhfat ul-ansob Alaviya”(1737), Muhammad Sharif ibn Muhammad Husayn Buxoriyning «Hujjat ul-zokirin» (1697), Avaz Muhammad Attor Ho‘qandiyning “Tarixi jahonnamoyi” (1874) asarlarida ham uchraydi.

Maxsus Toshkent tarixiga bag‘ishlab yozilgan kitob esa Muhammad Solihning “Tarixi jadidayi Toshkent” nomli asari hisoblanadi. Mazkur asarning qo‘lyozma nusxalari O‘z SSR Fanlar akademiyasi qo‘lyozmalar majmuasida ilmiy tavsirlangan, asar to‘g‘risida Y. G‘ulomovning axboroti ham chop etilgan. Asarda Toshkentning ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma’naviy hayotiga doir ma'lumotlar berilgan.

“Tarixi jadidayi Toshkand”, “Tarixi viloyati Toshkand” kabi nomlar bilan ham nomlangan. Sharq qo‘lyozmalari tavsiflarida, Ch. Storining “Fors adabiyoti”,


A. O‘rinboyev va B. Ahmedov tadqiqotlarida “Tarixi jadidayi Toshkand” asariga XIX asrda yaratilgan Toshkent hamda Qo‘qon xonligi tarixi, shuningdek, Rossiya imperiyasining O‘rta Osiyo hududlariga harbiy yurishlarini o‘rganishga doir asosiy manbalardan biri sifatida baho berilgan⁴.

Asarda nafaqat Toshkent shahri, balki viloyatning geografik tavsifi, aholisi, xo‘jaligi, muqaddas qadamjo va ziyoratgohlari hamda ularning XIX asrdagi ahvoli to‘g‘risida ma’lumotlar keltirilgan. Jumladan, Puli Barbar ko‘prigi yaqinidagi Bobo Sardorota yoki turkiy aholi tilidagi Bobo Chirtarota qadamjoyi (Hazrati Ikrama), Bog‘iston qishlog‘ida shayx Umar Bog‘istoni, Farkent qishlog‘ida Bobo Mochin, Jeta va Mo‘g‘ul tog‘ida Idris payg‘ambar, Zartalosh tag‘ida Muhammad parranda qadamjolari, Zangiota, Arslonbob ziyoratgohlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar qayd etilgan⁵. “Tarixi jadidayi Toshkand” asarida keltirilgan mozorlar, ziyoratgohlar VIII–XIX asrlarga mansub.

O‘lka arxeologik jihatdan XIX asrda N. I. Veselovskiy, A. A. Divayev, N. P. Ostroumov, Ye. T. Smirnovlar tomonidan o‘rganildi. 1920–1930- yillarda M. V. Voyevodskiy, G. V. Grigorev, V. D. Jukov va A. I. Terenojkinlar, 1941-yildan M. Ye. Masson rahbarligida O‘rta Osiyo universiteti “Arxeologiya” kafedrasи a’zolari, 1950-yildan O‘zbekiston FAning arxeolog olimlari Ya. F. G‘ulomov, O‘. Islomov va R. H. Sulaymonovlar viloyat hududida tekshiruv ishlarini olib bordilar. 1958-yildan Toshkent viloyatining o‘rta asr shaharlari va qadimgi konlarini Yu. F. Buryakov, 1966-yildan Toshkent shahrini V. A. Bulatova rahbarligidagi guruh ilmiy ravishda o‘rgangan.

⁴ Собрание восточных рукописей Академии наук Узбекской ССР / Под. ред. А. А. Семенова., Д. Г. Вороновского. – Т.: Изд. Ан УзССР. – 1963. Т.VI. – С. 34–36 (Бундан кейин «СВР»); Собрание восточных рукописей Академии наук Республики Узбекистан. История / Сост. Д. Ю. Юсупова., Р. П. Джалилова. – Т.: Фан, 1998 (Бундан кейин «СВР. История»). – Т.: Фан, 1998. – С. 212–214; Стори Ч. А. Персидская литература / Пер. с. англ. перераб. и дополн. Ю. Э. Брегель (Бундан кейин «Стори Ч.А.»). – М.: Наука, 1972, Ч.2. – С. 1199–2000; Ўринбоев А. Тошкандий Тошкент зилзиласи ҳақида // Фан ва турмуш. – 1966. – №6. – Б. 5; Ўша муаллиф. Тошкент солномаси // Гулистон. – 1982. – №3. – Б. 26; Ахмедов Б. Ўзбекистон тарихи манбашунослиги. – Т.: Ўқитувчи, 2000. – Б. 244.

⁵ Тарихи жадида. – 972а, 973а, 976аб ва кейинги вараклар.



8-rasm. Toshkent viloyati arxeologik xaritasi.

qurollar yasalgan ustaxona topilgan. Must'e davriga oid manzilgohlar Obirahmat g'ori, Xo'jakent qishlog'i yaqini, Chirchiq vohasi, Qoraqamish va Sho'ralisoydan topilgan. Yangi tosh davri (neolit)ga oid ashyo Toshkent shahrining garbida Qo'shilish degan joydan topilgan.

Mazkur davrda kurollar maydalashgan va soni ko'paygan. Toshkent viloyatiningjez davri (mil. av. II ming yillik) topilmalari Andronovo, Tozabog'yop madaniyatiga oiddir. Tosh va to'kma tuproqdan qilingan qabriston qo'rg'onlar Chirchiq va uning irmoqlari bo'yida, Obirahmat, Burchmulla qishloqlari, Iskandar shaharchalarida ochilgan. Qabrlardan Andronovo madaniyatiga xos qo'lida yasalgan sopol idishlar, bilaguzuk, marvarid va marjonlar topilgan. Jez davridan

Ko'p yillik tadqiqotlar natijasida Toshkent viloyati arxeologik xaritasiga 760 ta qadimiy manzilgoh, shahar va qishloq xarobasi, qadimiy konlar, qabristonlar, mudofaa va irrigatsiya inshootlari tushirildi Toshkent viloyatida ibtidoiy odamlar qoldirgan dastlabki izlar paleolit davriga to'g'ri keladi.

Ushbu davrga oid odamlar yashagan gorlar va och iq manzilgohlardan biri – Ko'lbuloq makonidir. Ko'lbuloq yaqinidagi Qizilolmasoy va Qo'shsoydan qadimgi tosh

boshlab rangdor va qimmatbaho metallar tog‘ yon bag‘ridagi konlardan qazib olina boshlagan. Temir davrida viloyat hududida skif qabilalarning sakmassaget ittifoqiga kirgan elatlar yashagan. Ularga tegishli yodgorliklar mil. avv. VI –IV asrlarga oiddir. Ushbu davr qabristonlari (Burchmulla yaqinida)dan tirlab bezalgan sopol idishlar, tosh va kumushdan yasalgan zebziynat buyumlari topilgan. Chirchiq vodiysida Burganlisoydan temir davriga oid sopol, metall, toshdan yasalgan uyro‘zg‘or buyumlari, jumladan, choynaksimon tumshukli va qulqolli qozonlar va mehnat qurollari topilib o‘rganilgan. Idishlar dumaloqshaklda bo‘lib, sirtiga angob bo‘yog‘i berilgan.



9-rasm. Toshkent viloyati tarixiy shaharlari xaritasi.

Mil.avv. I ming yillikning boshlarida Toshkent viloyati hozirgi hududi Qang‘ davlati tarkibiga kirgan. Toshkent viloyati o‘troq xalqlarining madaniyatini

ko‘shni ko‘chmanchi chorvador xalqlar madaniyati bilan chambarchas aloqada bo‘lgan. Ko‘chmanchi chorvador xalqlar yodgorliklaridan Qovunchitepa yaxshi o‘rganilgan. Ohangaron daryosining quyi oqimida joylashgan Qanqa xarobasi eng qadimiy shaharlardan biri bo‘lgan. Shahar mil. avv. III-II asrlarda vujudga kelgan. I asrga oid shaharlar Sirdaryo vodiysida Banokat, Ohangaron, Oqqa‘rg‘on oralig‘ida Kindiktepa va Qovunchitepalar bo‘lgan. Bu yerlardan Toshkent hokimligining birinchi tanga pullari topilgan. Bu davrda hamma mayda shahar va qo‘rg‘onlar Shosh (Choch) va Iloq (Eloq)qa birlashgan.

VII asrda qal’alari va mayda shaharchalari ko‘pligi uchun Shoshni ming qal’ali davlat deb ta’riflaganlar. Shulardan biri Toshkentning shimolida (hozirgi shahar hududida) joylashgan Oqtepa qo‘rg‘oni bo‘lib, u mustahkam mudofaa devorlari bilan o‘ralgan. Ilk o‘rta asr shaharlarining arki va shahristoni bo‘lgan.

Shaharlarda hukumat uylari, savdo va hunarmandchilik rastalari tartib bilan joylashgan. Ularning maydoni 20 ga dan 65 ga gacha yetadi. Atrofdagi tog‘lardan oltin, kumush, mis qazib olish natijasida hunarmandchilik yuksalgan. Kulolchilik va chorvachilik rivojlangan. Shosh va Iloq davlatlari o‘z nomlaridan tanga pullar zarb qilgan. Tangalarning yuz tomoniga vahshiy hayvonning rasmi (silovsin yoki bars), orqa tomoniga panshaxaga o‘xshash tamg‘a tushirilgan.

Shuni ta’kidlash joizki, ko‘hna va hamisha navqiron Toshkent vohasi hududida ko‘plab qabilalar, xalqlar yashab, o‘z madaniyatlarini olib kelishgan. Tarixda istilochilar tomonidan yirik shaharlari talangan, vayron etilgan. Shunga qaramasdan, Toshkent vohasi rivojlanishni davom ettirdi. Buyuk tarix poydevori asosida Toshkent vohasi bugungi kunda ham iqtisodiy salohiyatiga ko‘ra yuqori o‘rinda turuvchi muhim strategik hududlardan biri hisoblanadi. 1938-yil 15-yanvar kuni O‘zbekiston SSR tarkibida Toshkent viloyati ma’muriy hudud sifatida tashkil etilgan. Toshkent viloyati O‘zbekistonning shimoli-sharqida Tyan-Shan tog‘larining g‘arbiy qismi va Sirdaryo daryosi o‘rtasida joylashgan. Uning maydoni 15300 km².

Toshkent viloyati hududining katta qismi tog‘ oldi tekisligidir. Shimoliy va shimoli-sharqda - balandligi 4299 m gacha bo‘lgan G‘arbiy Tyan-Shan tizmalari.

Viloyat shimoliy va shimoli-g‘arbiy qismida Qozog‘iston bilan, shimoli-sharqida – Qirg‘iziston Respublikasi, sharqda – Namangan viloyati, janubda – Tojikiston, janubi-g‘arbiyda esa Sirdaryo viloyati bilan chegaradosh.

2017-yil 24-avgust kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyev tashabbusi bilan Nurafshon shahri viloyat markazi deb e’lon qilinadi. Bugungi kunda Toshkent viloyati ma’muriy jihatdan 15 ta tumanlardan iborat.

Bo‘stonliq tumani nomlanishi “Bo‘ston” – bog‘-rog‘lar, bog‘u-bo‘ston” so‘zlaridan olingan bo‘lib, hududda joylashgan bog‘lar, bepoyon dalalar, dorivor giyohlarga boy tog‘lariga nisbatan berilgan. O‘ziga xos tabiatи va dam olish makanlariga boyligi sabab “O‘zbekiston Shveytsariyasi” deb ham nomlanishi bejiz emas.

3.1 TARIXIY MAKONGA BOY BO‘STONLIQ

Obirahmat yodgorligi — must’e madaniyatiga doir ibtidoiy davr odamlari manzilgohi. Toshkentdan 100 km shimoli-sharqda, Ko‘ksuv tizmasi etagidagi Paltovsoyning o‘ng qirg‘og‘ida joylashgan. Obirahmat yodgorligi keng yoysimon shaklda bo‘lib, eni 20 m dan ortiq; u quruq va yorug‘, sharqiy chekkasidagi qiyadan chuchuk suvli sharshara oqib tushadi. G‘orning og‘zi janub tomonga qaragan. Manzilgohda uzoq vaqt davomida hosil bo‘lgan 21 ta madaniy qatlamning umumiy qalinligi 10 m. Olib borilgan arxeologik qazishlar davomida manzilgohdan nayzasimon quollar, nukleuslar, turli xildagi tosh kesgichlar,



ponasimon quollar, bigizlar topilgan. Topilmalar O‘rta Osiyoda tosh davrining eng boy kolleksiyalaridan birini tashkil qiladi⁶. 1962-yilda Bo‘stonliq arxeologik otryadi tomonidan aniqlanb, 1962–1970- yillarda Obirahmat poleolit otryadi tomonidan o‘rganilgan⁷.

10-rasm. *Obirahmat yodgorligi*.

Obirahmat g‘ori yumaloq shaklli ohaktosh qoyasida shakllangan ayvon bo‘lib, og‘zi janubga qaragan: eni 20 m, chuqurligi 9 m, shiftining maksimal balandligi 11,8 m. Qatlamlarning qalinligi 10 m va ular 21 ta litologik qatlamga ajratilgan. Qatlamlarning paleolit davriga oid qalin madaniy qoldiqlarga egaligi qadimgi odamlarning bir necha o‘n ming yilliklar davomida moddiy-madaniy jihatdan dinamik evolyusiyasini kuzatish imkonini beradi.

⁶ Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. 1-жилд. – Тошкент: ЎзМЭ, 2000.

⁷ Буряков Ю.Ф., Касымов М.Р., Ростовцев О.М. Археологические памятники Ташкентской области. – Т.: Фан, 1973. – С. 20.

Mazkur yodgorlik arxeolog, olimlar – X. K. Nasriddinov, M. M. Gerasimov, A. R. Muhammadjonov (1963-y.) hamda R. H. Sulaymanovlar tomonidan



o‘rganilgan (1964–1965-yy.) keyingi yillarda yodgorlik T. Omonjulov va K. A. Kraxmallar tomonidan ahyon-ahyonda (1966–1986-yy.) tadqiq qilingan.

11-rasm. Obirahmat yodgorligi dunyo olimlari nigohida.

R. H. Sulaymanovning Obirahmatdagi ilmiy faoliyati 1964–1965-yillarga to‘g‘ri keladi. Shuningdek, mazkur olim tomonidan Obirahmat g‘orida 10 m qalinlikda joylashgan 21 ta buzilmagan kul rangli yoki to‘q jigar rangli madaniy qatlamlar mavjudligi aniqlandi. Ushbu madaniy qatlamlarning bir qismi o‘rta asrlarda qilingan yer osti handaq tufayli buzilgan edi.

Madaniy yotqiziqlarning quiyi qismi (15–21- qatlamlar) cheklangan maydonda ochilgan. Qatlamlardan yig‘ib olingan tosh industriya gomogen xaraktyerde bo‘lib, bu ularning on ming yillar davomida o‘zining texnik an’alarini saqlab qolgan yagona paleolit davri industriyasi ekanligi ma’lum bo‘ldi. Obirahmatning industriyasi Yaqin Sharq va Markaziy Osiyoning gardishsimon hamda levallua texnikasi aralashgan plastinasimon industriyalari qatoriga kiradi. Obirahmat makoni industriyasi qurollari uchun retushlangan plastinalar, uzunchoq paykonlar, kesgichlar xarakterlidir. Shuningdek, uchlari yo‘nilgan plastinalar ham ko‘pchilikni tashkil qilib, ular yog‘ochga ishlov beradigan tosh randalar (skobeli i strugii) deb talqin qilingan. Bundan tashqari, to‘plamda qirg‘ichlar, kam sonli yo‘nilg‘i uchlarda shakllantirilgan va yirik qirg‘ichchalar ham mavjud. Ammo, eng muhimmi bu yerdagi 10 m qalinlikdagi



qatlamlarda tosh
inventarlar qatlamdan
qatlamga asta-sekin
rivojlanib, o‘zgarib
boradi.

12-rasm. Obirahmat yodgorligida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar.

Uchirindilar olishga mo‘ljallangan nukleuslar soni sistematik ravishda kamayib boradi va prizmatik plastinalar chaqmoqlanadigan o‘zaklar soni oshib boradi. Qirg‘ichlar va retushlangan uchirindilar nisbati kamayadi hamda so‘ngi paleolit davri uchun xos tosh qurollar soni ortadi, shu jumladan, kombinasiyalashgan tosh qurollar ham.

Obirahmat g‘orining industriyasi quyidan yuqoriga qarab 5 ta ketma-ket xronologik kompleksga ajratilgan. Quyi kompleks (A) o‘rta paleolitning finali; ikkinchi (B) – o‘rtadan so‘ngi paleolitga o‘tish davri, deb tasniflangan; yuqori – V, G va D komplekslari esa Obirahmat g‘orining so‘ngi paleolit davri bosqichi, deb tasniflangan. Texnik-tipologik ko‘rsatgichlariga ko‘ra Obirahmatning industriyasi Teshiktosh, Xo‘jakent, Janubi-G‘arbiy Farg‘ona materiallariga o‘xhash deb topilib, yagona Obirahmat madaniyatiga birlashtirilgan.

O‘rta va so‘ngi paleolitga oid tosh qurollar hamda uchirindilar va plastinalar nisbatini hisoblab chiqish natijasida yuqorida tilga olingan Obirahmat madaniyati yodgorliklarida ularning foiz nisbati turlichaligi aniqlandi. Bu holat ularning davriy ketma-ketligini aniqlash imkonini berdi. Ulardan eng arxaigi Teshiktosh, so‘ngra Janubiy Farg‘ona, Xo‘jakent va eng taraqqiy etgan kompleks esa Obirahmat g‘ori industriyasi ekanligi aniqlandi.

Obirahmat industriyasining barcha qatlamlarida kuzatiladigan asosiy xususiyati o‘rta hamda so‘nggi paleolit davriga xos texnologik va tipologik

belgilarning birga kelishidadir. To‘plamning yetakchi o‘rin tutadigan nukleuslari orasida so‘ngi paleolitga oidlari, avvalombor, ensiz o‘zaklar, nukleus-kesgichlar, prizmasimonlar va uchirindilardan yoki yirik plastinalardan ishlangan turli xil mikronukleuslar egallaydi. Biroq, o‘rta paleolitga xos yo‘nilg‘ilarni yuza bo‘ylab chaqmoqlash strategiyasi saqlanib qoladi.

Levallua tipidagi o‘zaklar kam sonli bo‘lib, aksariyat hollarda ular so‘ngra plastinalar yoki plastinkalar olishga mo‘ljallangan so‘ngi paleolitga xos ensiz nukleuslarga aylantirib yuborilgan. Obirahmat industriyasi yo‘nilg‘ilari orasida plastinalar muhim o‘rin tutadi va asosiy tosh qurollar ham ulardan ishlangan. Yodgorlikning ko‘pgina qatlamlarida plastinalar nisbati 50 % dan oshiqni tashkil qiladi.

Yodgorlikning tosh qurollari deyarli bir xil shaklli. Eng ko‘p sonni paykonsimon qurollar (retushlangan paykonlar, uchli plastinalar), retushlangan plastinalar, kesgichlar (ko‘pincha yonlama tipidagi) tashkil etadi. Tosh qurollarning sezilarli qismini tashkil qiladigan qirg‘ichchalar tipologik jihatdan unchalik yorqin emas. Levallua shakllar kam sonli va ular asosan, uzunchoq ko‘rinishda. Qirg‘ichlar yodgorlikning barcha qatlamlarida mavjud bo‘lib, asosan plastinasimon yo‘nilg‘ilardan ishlangan, ko‘pincha ularni retushlangan plastinalardan ajratish qiyin. To‘plamda tipologik jihatdan yorqin kichik hajmli muste tipidagi paykonlar katta o‘rin egallaydi. Obirahmatda olib borilgan tadqiqotlar natijasida ushbu hududlarga o‘rta paleolit davri odamlarining migrasiyasi haqidagi g‘oya ilgari surildi. Bu so‘ngi paleolit davriga o‘tish davrini o‘zida aks ettirgan, umumiylasosga ega bo‘lgan va konvergent rivojlangan Yaqin Sharq, O‘rta Osiyo va Oltoy industriyalarining o‘xhashliklariga asoslangan edi.

Ta’kidlanishicha, madaniyatlar evolyusion o‘zgarishlarining konvergentligi umumiy asoslaridan tashqari, o‘xhash paleoekologik sharoitlar bilan ham xarakterlanadi. Shu ma’noda, Levant, Oltoy hamda O‘rta Osiyo qadimgi aholisi tog‘larda va tog‘oldi hududlarida yashagan bo‘lib, bu joylarda tabiat o‘zining murakkab tuzilishi va juda turli-tumanligi bilan ajralib turadi. Birgina, vodiyyda bir vaqtning o‘zida igna va yapoloq bargli o‘rmonlar, mayda bargli tayga o‘simliklari,

quruq dasht va o‘tloq dashtli assosasiyalar hukm surgan. Bu holat ibtidoiy odamlarga turli fasllarga qarab o‘zлari uchun qulay ekologik muhitni tanlash imkonini bergen. Shunday qilib, Yaqin Sharqdan migrasiya qilgan guruhlар aholisining madaniy evolyusiyasi o‘xhash ekologik sharoitlarda sodir bo‘lgan va bu (populyasiyalarning filogenetik va madaniy yaqinligidan tashqari) so‘ngi paleolit davri madaniyatlarining shakllanishidagi umumiyligi adaptasion jarayondir degan xulosaga kelindi.

Yuqorida ta’kidlaganidek, Bo‘stonliq tumani hududida poleolit davridayoq insonlar tomonidan o‘zlashtirila boshlangan, ana shunday makonlardan yana biri Xo‘jakent manzilgohi bo‘lib, Xo‘jakent qishlog‘ining janubi-g‘arbiy qismida joylashgan, balandligi 2,5 metr bo‘lgan unchalik chuqur bo‘lмаган g‘or. Kirish qismining kengligi 6 metr, uzunligi 4 metrdan iborat g‘or old qismida ibtidoiy odamlar mehnat qurollari topilgan maydon joylashgan. 1959-yilda A. P. Okladnikov rahbarligida olib borilgan arxeologik qazish jarayonida madaniy qoplamlarda ko‘plab tosh qurollari, hayvon suyaklari topilgan. Olimlar tomonidan mazkur manzilgoh qadimgi tosh asri must’e davri yodgorligi ekanligi aniqlangan.

Xo‘jakent g‘orining pastki qismida joylashgan qoyatoshlarda aks etgan petrogliflar 1957-yilda G. V. Parfenov tomonidan o‘rganilgan. Petrogliflar davri qadimgi tosh asri, bronza bilan belgilangan bo‘lib, toshga o‘yib bitilgan.

Ilgari Chirchiq vodiysidagi eng yirik shaharlardan biri hozirgi Xodjikent qishlog‘i hududida joylashgan edi. Chirchiqning chap qirg‘og‘ida, ko‘prik yaqinida qal’a tipidagi qadimiy istehkom bo‘lgan Oqtepa tepaligi qoldiqlari (o‘lchamlari 30×20 m, balandligi – 7 m. gacha) hozirgacha saqlanib qolgan.

Arxeologik tadqiqotlar natijasida VI–XII asrlarga oid sopol buyumlar aniqlangan. Katta formatdagi g‘ishtlar (48x26x10 sm), don qirg‘ichlari bo‘laklari topilgan. Chirchiqning ro‘parasida, o‘ng qirg‘og‘ida “Hojikent bozorboshi” nomli arxeologik yodgorlik saqlangan. 1961–1962- yillarda mazkur aholi punkti V. I. Lenin nomidagi Toshkent Davlat universitetining arxeologiya kafedrasи xodimlari, 1964- yilda esa O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Arxeologiya institutining Chorvoq arxeologik guruhi tomonidan o‘rganilgan. S. B. Lunina shahar aholisi hayotidan

dalolat beruvchi turli xil keramika materiallari – xumlar, ko‘zachalar, qozonlar, piyola va boshqa ko‘plab narsalarni oldi. Mazkur arxeologik ashyolar VI–XV asrlarga to‘g‘ri keladi.

Qadimgi shahar Chirchiqning o‘ng qirg‘og‘ida joylashgan edi, chunki qadimda Binketdan (Toshkent) tog‘li hududlarga boradigan yo‘l aynan Chirchiqning o‘ng qirg‘og‘i bo‘ylab o‘tgan. O‘ng qirg‘oqda, tog‘ etaklarida o‘rta asrlarga oid Xondayliq, Sayliq, Chimboylik va boshqa qal’alar bo‘lgan. Chap qirg‘oqqa olib boradigan yo‘l Xodjikent bozorboshida joylashgan ko‘prik orqali davom etdi. “Eshak ko‘prigi” deb nomlangan ushbu ko‘prik XX asr boshlarida saqlanib qolgan. “Xojikent bozorboshi” aholi punkti o‘rnida qadimda Xargankent yoki Xardjankent degan shahar bo‘lib, u yerda XV asrgacha hayot davom etgan.

1897-yilda TKLA (Turkiston arxeologiya ixlosmandlari to‘garagi) a’zosi N. G. Mallitskiy Hojikentda bo‘lib, bu yerda 7 ta qabr toshini topdi. Mahalliy aholining aytishicha, avvallari ularning 8 tasi bo‘lgan, biroq yaqinda Toshkentga olib ketilgan. Biz uchun qiziq jihatni, ushbu qabr toshlari (arxeologik adabiyotlarda ularni “qayroq” yoki “qayraktosh” deb atashadi) yer yuzidagi qabr toshlari tarixini yoritib turadi.



13-rasm.Qayroqtosh namunalari (Shayx Umar Vale ziyoratgohida saqlanmoqda).

3.2 TOSHGA BITILGAN DOSTONLAR



Markaziy Osiyo ko‘hna sa’natning muhim qismi joylashgan mintaqasi hisoblanadi. G‘arbiy Tyanshanda qadimiy surat va qoyatosh yozuvlari eng ko‘p tarqalgan tarixiy obidalardir.

14-rasm. Bildirsoy petrogliflari.

Bugungacha topilgan qoyatoshlarga bitilgan surat va yozuv namunalarining umumiy soni o‘n mingdan oshib ketgan. Ushbu bebaho moddiy boyliklar nafaqat soni, balki xronologik qamrovi, mavzuning rang – barangligi, har bir tasvirning o‘zigaa xosligi, badiiy darajasi va mahobati bilan ajralib turadi. Toshkent atrofidagi ayrim qoyatosh suratlari Markaziy Osiyoning ko‘pgina hududlarida topilgan petrogliflar orasida ko‘rinishi va tasvirlarning o‘ziga zosligi bilan ajralib turadi va betakror hisoblanadi. Olimlar bu hududdan ham umumiy va o‘ziga xos jihatlarga ega qadimiy qoyatosh suratlarining boy manbalarini aniqlashgan. Bular jumlasiga Xo‘jakent, Qoraqiyasoy, Boshqizilsov, Chotqol, Parokandasoy, Ohangaron va boshqa hududlardan topilgan petrogliflar shular jumlasiga kiradi.

Toshkent vohasidan, G‘arbiy Tyanshnadan topilgan qadimiy qoyatosh yozuv va suratlar XX asrning 50-yillari boshida Chirchiq daryosining yuqori oqimida olib borilgan arxeologik ishlanishlar paytida topilgan.

Tadqiqotchi-arxeolog X. Alpisboyev mahalliy aholi vakillaridan xalifa Alining afsonaviy oti – Dulduuning izlari qoyatoshlar qolib ketgan degan afsonlarni eshitib, qoyatosh suratlaarini o‘rganishga kirishadi. Qoyatosh suratlarida tasvirlangan hayvon tog‘ qo‘yi yani arxarning burama shohlarining izi ekanlini aniqlaydi. Mazkur izlanishlar natijasida olim bu yerda topilgan 23 ta suratni qayd etadi. Ushbu suratlaarni boshqa topilmalar bilan qiyoslab, ushbu topilmalar miloddan avvalgi I asrga mansublini aytib o‘tadi. Olimning Xo‘jakentda olib

borgan izlanishlari yakuniga etmagaan. Shunga qaramasdan Xojakent qoyatosh suratlari ilk bor shu tariqa kashf etilgan.

1958-yilda Toshkent viloyati Bo'stonliq tumanidan T. A'zamxo'jayev tomonidan ulkan petrogliflar to'plami topilgan. Ushbu topilma haqida muallif tomonidan ma'lumotga ko'ra, Uzunsoy daryosining yuqori oqimida joylashgan Chimboyliq qishlog'idan 18–20 kilometr shimoldagi tog'ning tepasi va janubiy yon bag'rida tog' qo'ylari, tog' echkilari, bug'ular, itlar, yirtqich hayvonlar, otlar kabi hayvonlar aks ettirilgan 250 dan oshiq qoyatosh – lavhalar topilgan. Ushbu topilgan qoyatoshlarda turli hayvonlardan tashqari ov, mol haydash, yirtqichlar hujumi kabi boshqa holatlaar ham tasvirlangan. Tadqiqotchi tomonidan shunday lavhalar aks ettirilgan 30 dan ortiq qoyatoshlar o'rganib chiqilgan va suratga olingan. Qoyatosh suratlarining paydo bo'lish davri haqida T. A'zamxo'jayev "Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, biz o'rgangan suratlar bronza va ilk saklar yashagan davrga, ya'ni miloddan avvalgi II asr oxirlari – I asr boshlariga to'g'ri keladi" – degan fikrlarni bildirgan edi.

Toshkent vohasidagi tarixiy yodgorliklarni o'rganish ehtiyojidan kelib chiqib, XX asrning 60-yillarida arxeologik ekspeditsiyalar tashkil etiladi. Ushbu ekspeditsiya tomohidan Pskom, Ko'ksuv, Chotqol va Chimyon daryolari havzasida, shuningdek, Qorasuv, Kungara tog'larida, Ohangaron, Arashansoy vodiysi hamda Toshkent viloyatining boshqa hududlarida ko'plab qoyatosh suratlari ishlangan joylar qayd etilgan.

Xo'jakent – Toshkent sharhidan 70 km. shimoli-sharqda joylashgan qadimiylar manzilgoh hisonlanadi. Suratlar aks ettirilgan qoyatosh Chirchiq daryosining chap sohili va Chotqol nizmasining g'arbiy yonbag'rida joylahgan. Shu joydan Chirchiq daryosining vodiysi boshlanadi. Qoyatoshning yonida buloq oqib chiqqan. Mazkur buloq hozirgi kungacha muqaddas hisoblanadi.

Xo'jakentdagи suratlarning balandligi 12,5 metrni, uzunligi 18 metr keladigan tik ohaktosh qoyasiga o'yib chizilgan. Qoyatosh yuzasi shimoli – g'arba Chirchiq daryosi tomonga qaragan. Suratlarning aksariyati qoyatoshning pastki qismida, inson bo'yi yetadigan balandlikda joylashgan. Qoyatosh yuzasi turli omillar

ta'sirida ancha yemirilgan. Dastlab qoyatosh yuzasiga ko'plab surat va belgilar aks ettirilgan. Bir – biriga juda yaqin joylashgan suratlar bir-birining ustiga chiqib ketgan.

Bundan tashqari, qoyatoshda aniq ko'rinish turgan suratlaar bilan birgalikda bilinear – bilinmas bo'lib ketgan suratlar ham uchraydi. Bundan olimlar ushbu qoyatosh suratlari turli davrlarda chizilgan degan xulosaga kelishgan. Bu yerda asosan turli hayvonlarning noaniq tasvirlarini uchratish mumkin. Xojakentdag'i suratlar konturli, siluetli, chiziq – chizmali shaklda aks ettirilgan. Qoyatoshlarda odam qiyofasi aks ettirilgan suratlar ham ko'zga tashlanaadi.



15-rasm. Xo'jakent petrogliflari.

Xo'jakent qoyatosh suratlari petrogliflar asosan, bir xil uslubda yaratilgan. Dastlab odam va hayvon gavdasining sirtqi qismi belgilab olingan, so'ng to'liq o'yib chiqilgan. Suratlarning aksariyat qismi tosh qurollar, kamroq qismi metal qurollar bilan chizilgan. Suratlarning aksariyatining yuzalari silliq.

Qadimgi ajdodlarimiz hayotining ko'p sohalarini qamrab olgan Xo'jakent petrogliflari bиринчи navbatda, mavzu rang-barangligi bilan e'tiborni tortsa,

Ko‘pgina suratlar yuksak badiiy mahorat bilan ishlanganligi bilan diqqatga sazovordir.

Mazkur moddiy madaniyat yodgorligi tarixiy davr doirasining kengligi bilan G‘arbiy Tyanshan tog‘laridan topilgan petrogliflardan ajralib turadi. Uning eng qadimiy qatlami eneolotik xususiyat kasb etib, mil.avv. IV–III asrlarning birinchi yarmiga oid hisoblanadi. Xo‘jakentdan topilgan ayrim qoyatosh suratlari bronza (mil.avv. II asr) davriga, aksariyat suratlar esa sak-skiflar (mil. avv. I asr) davriga tegishlidir. Keyingi davrlarda, xususan, qadimgi turkiylar davrida yoki o‘rtasIDLAR chizilgan suratlar qadimgi davrda chizilgan ayrim suratlar ustiga tushib qolgan bo‘lishi ham mumkin.

Xo‘jakentda topilgan qoyatosh suratlarni o‘rganish ularning aksariyati astoydil bajarilgani va aniq-tiniq aks ettirilganini ko‘rsatadi. Bunday suratlar ikki asbob (biri toshga qo‘yilgan, ikkinchisi bilan zarb berilgan) yordamida yaratilgan bo‘lsa kerak. Boshqa-nisbatan dag‘al suratlar bitta uskuna yordamida o‘yib chizilgan. Bir-biridan shakli va katta-kichikligi bilan ajralib turgan har bir uskunani yaqqol farqlash mumkin.

Petrogliflar tahlili alohida suratlarda ham, suratlar guruhida ham izlarning siljiganidan dalolat beradi. Xususan, Boshqizilsoydagি uskunalardan qolgan izlarning bir xili deyarli uchramaydi. Bu hol uskuna shakli va berilayotgan zarba kuchi bilan izohlansa kerak. Ko‘pgina suratlarda hajmi kichkina, aylana, to‘pcha va egri- bugri shakldagi izlar ko‘zga tashlanadi. Va aksincha, yirik, chuqur va uzunchoq shakldagi izlar kam uchraydi. Bularning barchasi suratlarni chizish uchun metalldan yasalgan uskunalar qo‘llanganini tasdiqlaydi. Ushbu suratlar xranologik jihatdan miloddan avvalgi VII–II asrlar oralig‘ida yaratilgan. Ular bilan yonma-yon va yaqin atrofida turli davrlarga oid arxeologik yodgorliklar topilgan.

O. M. Rostovtsev tomonidan Chotqol tizmasining janubiy – sharqiy yon bag‘rida, Ohangaron daryosi vodiysida ham bir necha petrogliflar manzili topilgan. Ushbu suratlar 1966–1967- yillarda J. Kabirov hamda M. M. Xo‘janazarov tomonidan o‘rganilgan. Suratlar qoyatoshlarning qulay silliq yuzasiga chizilgan bo‘lib, asosan, suv manbalari – soy va buloqlar atrofida jamlangan. Petrogliflar bir-

biriga nisbatan yaqin joylashgan to‘rt nuqtada- Zag‘daksoy, Jartoshsoy, Urayliksoy va Tutilisoyda topilgan. Ularning barchasida echkilar, tuyalar, itlar, otlar, yirtqichlar va odamlar galasdsi aks ettirilgan suratlar asosiy o‘rin egallaydi. Ayrimlarida arab alifbosida bitilgan etnografik yozuvlar ko‘zga tashlanadi. Suratlarning aksariyati yaxshi saqlangan, biroq ayrimlari yemirilgani uchun aniq baholash imkonini bermaydi. Suratlar tabiiy hodisalar ta’sirida silliqlangan qoyatoshlar yuzasiga siluet, kontur va chiziq – chizma shaklida bajarilgan. Ohangaron daryosi vodiysidagi petrogliflar chizilish uslubi bilan bir- biridan farqlanmaydi. Barcha suratlar o‘yadigan asboblar yordamida chizilgan, ularning shakli, qo‘llangan asboblardan qolgan izlar deyarli bir xil. Ohabgarondagi qoyatosh suratlar milodiy birinchi asrga taalluqli ekanligi aniqlangan.

1974- yilda Pskom arxeologik otryadi nomonidan Chuqursoy va Qoraqiyasoy daryolari hamda Kul degan joyda ham qoyatosh suratlar topilgan. Keying o‘n yilliklar mobaynida amalga oshirilgan izlanishlar jarayonida ushbu hududning bir qator manzillarida mavzu boyligi, syujetlarning o‘ziga xosligi va yuksak badiiy jihatlari bilan ajralib turgan qadimiy qoyatosh suratlar kashf qilingan. Ular dengiz sathidan 2500 metr balandlikdagi xushmanzara darada joylashgan.

Bu yerda tim- qora qumloq toshlar va granitning silliq yuzasida odamlar, tog‘ echkilari, tog‘ qo‘ylari (arxarlar), ho‘kizlar, tuyalar, otlar, itlar, yirtqich hayvonlar, ilonlar va turli belgilar aks ettirilgan suratlar topilgan. Suratlardagi guruhiy sahnalar yanada rang- barangdir. Mohiyatiga ko‘ra, ularni ikki guruhga ajratish mumkin. Oddiy kompozitsiyali suratlarda tuya va otlarni yetaklab borayotgan odamlar, chavondozlar, kamonchilar aks ettirilgan. Murakkab kompozitsiyali suratlarda ov jarayoni, karvon, aravalor yurishi, raqs va hokazo sahnalarni ko‘rish mumkin.

Ushbu suratlarda xo‘jalik-maishiy turmush va marosimlar bilan bog‘liq sahnalar ham ko‘p uchraydi. Mazkur san’at namunalari o‘zida mazkur tog‘larga xos bo‘lgan hayvonot dunyosi deyarli to‘liq aks ettirilganligi bilan diqqatni tortadi. Qiziq jihat shundaki, bu yerda asosan, Osiyo va Yevropaning baland tog‘li hududlariga xos bo‘lgan yulduzlarga oid timsollar ham ko‘p uchraydi.

Qoraqiyasoydagi hajm jihatidan nisbatan kichikroq qoyatoshlarda Sarmishsoy va O‘zbekistonning boshqa hududlarida uchraydigan petroglyphlarga o‘xshash qoyatosh suratlar topilgan. Betartib joylashgan suratlar ba’zan bir-birining ustiga chiqib ketgan. Bu yerdagi qoyatosh suratlar turli shakldagi uskunalar bilan chizilgani ular turli uslubda yaratilganidan dalolat beradi. Mayda nuqtali o‘yib chizish uslubidagi suratlar kata nuqtali tasvirlarga qaraganda astoydil va bejirim ishlangan. Cho‘l shamoli ta’sirida qorayib ketgan ayrim suratlarni tosh rangidan ajratish ancha qiyin.

Bu yerdagi eng qadimiy qoyatosh suratlar miloddan avvalgi II asrga oid, deb hisoblanadi. Biroq, Qoraqiyasoya topilgan qoyatosh suratlar orasida saklar davriga doir suratlar ham uchraydiki, ular o‘zining nozikligi va jozibasi bilan ajralib turadi. Aksariyat hollarda suratlar siluet va kontur uslubida mayda toshli qilib yoki o‘yib bajarilgan. Bu yerda keyinroq, xususan, turklar davri-ko‘chmanchilar sivilizatsiyasi shakllanish davriga oid tasvirlar ham uchraydi.



16-rasm. Sarmishsoy petroglyflari.

IV. BO‘STONLIQ XALQINING BOY MA’NAVIY ME’ROSI.

4.1 XALQ OG‘ZAKI IJODI. FOLKLOR

Qadimgi davrlardayoq insonlar tevarak muhitni o‘rganish, atrofida sodir bo‘layotgan voqeliklarga o‘z munosabatini bildirishga harakat qilgan. Dastlab, ushbu munosabat insonning nutqi to‘liq shakllanmaganligi sababli, turli ovozlar, harakatlar va imo-ishoralar orqali bajarilgan. Inson ongining taraqqiy etishi sababli so‘zlar, gap va turli tillarning vujudga keldi. Turli xil imo-ishoralar, harakatlar asosida raqlar shakllandi. Insonlarning atrof-muhitga, tabiat hodisalari va dunyoning paydo bo‘lishiga qiziqishi natijasida ularning yaratilishi to‘g‘risida turli afsona hamda rivoyatlar yaratildi. Kishilik badiiy tafakkurining turli shakllarini o‘z ichiga olgan ushbu sinkretik ijod namunalari ibtidoiy inson dunyoqarashi va faoliyatining barcha jihatlari bilan mahkam bog‘langan bo‘lib, qadimgi odamlarning diniy-e’tiqodiy va mifologik qarashlari, boshlang‘ich ilmiy (empirik) bilimlari, tabiat hamda jamiyat haqidagi tasavvurlarini aks ettirgan.

Insonlarning bir biriga, yigitlarning qizlarga muhabbatini, qabila-urug‘lar o‘rtasidagi janglarda mard, jasur o‘g‘lonlarning qahramonligini madh etuvchi rivoyat, asotir va afsonalar asrlar osha bugungi kunga qadar yaxshi saqlanib qolmoqda. “Xalq og‘zaki ijodi” namunalarida ota-bobolarimizning aytmoqchi bo‘lgan pand-nasihatlari, el e’zozlagan odam bo‘lishning talab-qoidalari, Alp Erto‘nga, To‘maris, Shiroq, Jaloliddin Manguberdi, Temur Malik kabi ajoyib yurt farzandlarining botirliklari, xalqimizning urf-odatlari, milliy fazilatlarimiz haqida san’at darajasiga ko‘tarilgan so‘z tizimlaridan iborat maqol, qo‘sish, ertak, doston, bolalarga bag‘ishlangan asarlar va boshqa janrlardagi namunalarda ifodasini topadi. Shuning uchun ham xalq og‘zaki ijodini milliy qadriyatlar deb atash odat bo‘lgan.

Xalq og‘zaki ijodi fanda fol’klor deb yuritiladi. Ushbu atamani 1846-yilda ingлиз олими Уилям Томс тақлиф qilgan bo‘lib, uning ma’nosи “xalq donoligi” degan tushunchadan iborat. Aslini olganda, fol’klor deganda, xalq tomonidan yaratilgan hamma san’at namunalari tushuniladi. Me’morlik, naqqoshlik, ganchkorlik, zardo‘zlik, musiqa, raqs, og‘zaki adabiyot namunalari – hammasini

fol’klor deb tushunish qabul qilingan. Har bir san’at sohasida ish olib borayotgan mutaxassis o‘zi tanlagan tumi “folklor” deb atayveradi. Masalan, musiqachi xalq kuylari, xoreograf xalq raqslari, arxitektor xalq me’morchiligi, fol’klorshunos esa xalq dostonlari va ertaklarini fol’klor asari deb hisoblaydi⁸.



O‘zbek xalqi folklorida keng tarqalgan og‘zaki ijod janri – xalq qo’shiqlari hisoblanadi. Xalq qo’shiqlarida o‘zbek xalqining turmush tarzi, tuyg‘ulari, ishonch va e’tiqodi kabi yuksak insoniy qarashlar bilan birga sevgi-muhabbat, sadoqat, mehr-oqibat, do’stlik kabi fazilatlar, vatan madhi kuyga solingan. Shu bilan birga, insonlar dardi, ayriliq, bevafolik kabi qayg‘uli tuyg‘ular ham kuylangan.

Bo‘stonliq tumani xalq qo’shiqlarida ona tabiat, viqorli tog‘lar, bepoyon bog‘-rog‘lar, aholining turmush tarzi aks etgan. Jumladan:

Rozi bo‘lgin tuqqan yerim,
Bergan nonu tuzingga.
O‘ynab-kulib ichganlarim,
Zilol chashma suvingga.
Ko‘kni quchgan purviqor,

⁸ Madayev O. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. – T.: Mumtoz so‘z, 2010. – B. 17.

Tog‘imsan, Bo‘stonlig‘im.

Asal, qimiz, mevaga boy.

Bog‘imsan, Bo‘stonlig‘im.

Ko‘nglim tubi sohibi,

Faxrimsan, Bo‘stonlig‘im⁹.



17-rasm. Bo‘stonliqning go‘zal tabiatи.

Xalq og‘zaki ijodining asosiy janrlardan biri bo‘lgan qo‘shiqlarda vatan, yurt madhi, xalq hayoti, axloqiy normalari, insonning ichki kechinmalari, orzu umidlari, o‘ziga xos san’atkorlik bilan, sodda va lo‘nda, ayni paytda yuksak badiiylik bilan ifodalangan.

Bo‘stonliq tumani tog‘liq hudud bo‘lib, chorvachilik rivojlanganligi bois asosan qo‘y, echki kabi uy hayvonlari ko‘p boqiladi. “Xo‘sh-xo‘shlar”, “Turey-turey” kabi xalqona qo‘shiqlar aynan chorvachilik bilan bog‘liq mehnat qo‘shiqlari hisoblanadi.

Ho‘shim, molim-govmishim, ho‘sh-ho‘sh,

Emchaklari sovmishim, ho‘sh-ho‘sh.

Oralab yeding o‘tingni, ho‘sh-ho‘sh,

Iyiblar bergen sutingni, ho‘sh-ho‘sh.

⁹ Кабирова Б. Тарихий маконга бой Бўстонлик. – Тошкент, 2023. – Б. 4.

Xalq qo'shiqlaridan hunarmandchilik bilan bog'liq qo'shiqlar keng tarqalgan bo'lib, Bo'stonliq aholisi asosan charxchilik, bo'zchilik, o'rmak, kashtachilik, yog'och o'ymakorligi kabi hunarmandchilik turlari bilan asrlar davomida shug'ullanib kelishmoqda. Uy hunarmandchiligi bilan asosan ayollar shug'ullanib, oilaga qo'shimcha daromad olib kelgan.




To'quvchi qiz qo'shig'i:
O'rmagimni to'qiymen,
Kecha-kunduz to'qiymen.
Qachon tamom bo'ladi,
Deb ashula to'qiymen.

18-rasm. Bo'stonliqlikning milliy hunarmand qizlari.

Xalq qo'shiqlarida tasvirlangan obrazlar, qahramonlar bizga har tomonlama dunyoqarashi, dardi, orzusi, armoni, tuyg'ulari bilan qalban yaqin insonlardir. Xalq ijodkori bo'lgan qo'shiqlar umumlashma xususiyatga ega bo'lganligi sababli unda kuylanayotgan dard, alam, shodlik kabi tuyg'ulariga ham har kim sherik bo'lib turadi. Xuddi o'sha qo'shiqda o'z kechinmalari kuylanayotgandek tuyuladi. Shu sababli, xalq qo'shiqlarida mazmun bilan shakl mustahkam bog'langan holda yuksak badiiylik kasb etib, eshituvchiga zavq beradi, ayniqsa qo'shiqdagi sodda til, o'tkir ibora va ifoda, mazmundagi mantiqiylik uning ta'sirchanligini yanada oshiradi. Bu esa, qo'shiqlarning asrlar davomida ajdoddlardan avlodlarga xalq xotirasida yetib kelishini ta'minlovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Xalq qo'shiqlarida kuyylanadi:



Termalar. Pand-nasihat, odob-axloq ya'ni didaktik ahamiyatga ega bo'lgan, 10 misradan 300 misragacha bo'lgan lirik, liro-epik she'rlarga "Terma" deyiladi. "Terma" so'zining ma'nosi terib, tanlab tuzish demakdir, ya'ni nisbiy mustaqillikka ega bo'lgan, shakl va mazmun jihatdan bir-biriga yaqin bandlarni kompozitsiyasiga ko'ra yaxlitlashtirishdir. O'zbek xalq termalarida asosan, yaxshilik, yomonlik, mehr-muhubbat, sodiqlik va xiyonat kabi tuyg'ular kuylanib, mardlik, odillik, odamiylik kabi yuksak insonmiy tuyg'ular ulug'lanadi.





19-rasm. Xalq sayllaridan lavhalar

MILLIY QADRIYATLAR, URF-ODAT VA MAROSIMLAR

Agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo'lsa, uning joni va ruhi ma'naviyatdir. Biz yangi O'zbekistonni barpo etishga qaror qilgan ekanmiz, ikkita mustahkam ustunga tayanamiz. Birinchisi – bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyot, ikkinchisi esa ajdodlarimizning boy merosi va milliy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma'naviyatdir.

**Shavkat Mirziyoyev,
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti**

Milliy qadriyat deganda, muayyan xalqningurf-odatlari, an'anasi, fazilatlari, axloq va odobi, yashash tarzi, bayramlari, shu xalqning aksariyat qismi tomonidan e'zozlanishga loyiq bo'lgan obidalari, milliy kiyimlari, uy-ro'zg'or buyumlari, milliy tafakkuri tushuniladi. Masalan, o'zbek xalqining mehnatsevarligi,

mehmondo'stligi xushxulqligi va muloyimligi, g'ayratli hamda itoatgo'yligi, turli toifadagi odamlar bilan o'zaro inoqlashib ketishligi, kechirimliligi, mulohaza va tafakkur bilan ish ko'rishi, tinchliksevarligi hamda bolajonligi o'zbek milliy qadriyatlari hisoblanadi.

Asrlar davomida Bo'stonliq tumani hududida o'zbek xalqi bilan bir qatorda tojiklar, qozoqlar, ruslar, tatarlar, qirg'izlar kabi millatlar bir oila farzandlaridek tinch-totuv istiqomat qilib kelmoqda. O'zaro hurmat, ishonch va tenglik kabi yuksak insoniy mezonlar asosida O'zbekiston Respublikasi fuqarosi, xalqi sifatida yurtimiz taraqqiyotiga o'z hissasini qo'shib kelmoqda.

Bo'stonliqlar uchun o'ziga xos qadriyatlardan biri – mehmondo'stlikdir. Tumandagi qaysi xonadonga tashrif buyurmang, mahalliy aholi sizni ochiq chehra bilan kutib oladi. Mehmon sifatida ulug'lab, uyining to'riga o'tqazadi. Topgan-tutganini dasturxoniga qo'yib, mehmon qiladi. Mehmonnavozlik va mehmon kutish oliyjanob xulqlardan bo'lib, fozil kishilar bu narsaga qadim-qadimdan beri amal qilib keladilar. Xalqimiz mehmondo'stligi, mehmonnavozligi bilan shuhrat qozongan. Biror o'zbek xonadoni, oilasi yo'qki, mehmonni xursandchilik bilan kutib olmagan, uyidagi bor ne'matlarni dasturxonga keltirib to'kmagan bo'lsa. "Mehmon – otangdan ulug'", "Mehmon kelar eshikdan, rizqi kirar teshikdan", "Mehmon oldida hatto mushugingni pisht dema" kabi maqol va hikmatlar bejizga aytilmagan.

Mehmon kutish odobi xalqimizning asrlar davomida sayqallanib, bugungi kunga qadar davom etib kelayotgan qadriyatlaridan biri hisoblanadi. Jumladan, mehmon tashrif buyurganda, uy sohibi qanday ahvolda bo'lishidan qat'i nazar, mehmonni ochiq chehra va shodlik bilan kutib olmog'i kerak. Bu vaqtida uy egasi qandaydir boshqa ishlarni rejalashtirib turgan bo'lsa ham ularni kechiktirib, mehmonga hurmat ko'rsatish bilan ovora bo'lishi maqsadga muvofiq ishdir. Mehmondustlik ajoyib hislat bo'lib, odamlar o'rtasidagi do'stlik, birodarlik rishtalarini mustahkamlashga hizmat qiladi.



20-rasm. Mehmonnovozlik.



21-rasm. Dasturxon atrofida o 'zbek mehmondo 'stligi.

All rights reserved
Copyright © www.CentralAsia-Travel.com

Bo'stonliq aholisi odatda, bir nechta avlodlardan iborat bo'lgan katta oilalar tarkibida yashaydi, shuning uchun ular ko'proq hovlisi bo'lgan katta uylarni yoqtiradilar. Maishiy hayotida mehmondo'stlikning bir qismi bo'lgan choyxo'rlik marosimi katta ahamiyatga ega bo'ladi. Bunda choy damlash va uni mehmonlarga quyib berish faqat mezbonning mutlaq huquqi bo'ladi. Tushlik yoki kechki ovqatga takliflarni doimo qabul qilish va o'z vaqtida kelish qabul qilingan.

Mehmonga kelayotganda o'zi bilan birga mezbonning bolalari uchun turli sovg'alar yoki shirinliklar tayyorlanadi. Ayollar orasida mehmonga borilganda ro'mol va gazmol, uy ro'zg'or buyumlari sovg'a sifatida olib boriladi. O'z navbatida mezbon ham mehmonlarni turli sovg'alar bilan kuzatib ko'yadi. Xalq orasida ushbu odat bilan bog'liq "Bor tovog'im, kel tovog'im, bormasang, kelmasang o'rtada sin tavog'im" maqoli bo'lib, an'ana tarzida avlodlardan avlodlarga o'tib kelmoqda. Qishloq joylarda mehmon kelgan paytda ayollar odatda erkaklarning suhbatiga xalal bermaslik uchun ular bilan bir dasturxonga o'qtirmaydilar. Turar joy xonasiga kirishda poyafzal yechiladi. Mezbon ko'rsatadigan o'ringa o'tirish kerak. Bunda ushbu joy kirishdan qanchalik uzoqda bo'lsa, shunchalik hurmati baland bo'ladi.

Asrlar davomida sayqallanib, bugungi kunga qadar e'zozlanib kelayotgan mehmondo'stlikda o'ziga xos odob qoidalari ham shakllangan.

Mehmonning odoblari:

1. Mehmon o'ziga ko'rsatilgan joyga o'tiradi.
2. U o'ziga taqdim qilingan narsadan rozi bo'ladi.
3. Taqdim qilingan taomdan tezroq tanovul qilish mehmonning odobidandir.

Agar u taomdan yemasa, mezbonga nisbatan hurmatsizlik bo'ladi.

4. Mehmon faqat mezbonning izni bilan o'rnidan turadi.
5. Mehmon mezbonning haqqiga duo qiladi.
6. Mehmon mezbonnikida uch kundan ortiq turmaydi.

Albatta, ushbu odob qoidalari yozib qo'yilmasada, an'ana tarzida ajdodlardan avlodlarga meros bo'lib kelmoqda.

Bo‘stonliq xalqining yana bir o‘ziga xos qadriyatlaridan biri – hashardir. Ma’lumki, xalqimiz ma’naviyati va qadriyatlarida boshqa xalqlar o‘rgansa va o‘z tajribasida qo‘llashga arziyidigan ko‘pgina ibratli tajribalari mavjud. Masalan, “hashar” deb nomlanuvchi qadriyat insonlarni birdamlik, ahillik va mehr-oqibatga undashi bilan ajralib turadi. Hashar – bu xalqimizning qadimiy va azaliy qadriyatlaridan biri bo‘lib, uning zamirida obodlik, hamjihatlik, mehr-oqibat, xayrsahovat va bunyodkorlik mujassamlashgan. “Hashar – elga yarashar” degan maqol bejiz aytilmagan. Hasharda xalqimizga xos bag‘rikenglik, o‘zaro hamjihatlik, umumxalq bayrami oldidan mahallalar, ko‘chalar va aholi turar-joylarini obodonlashtirish ishlari uyushqoqlik va hamjihatlik bilan amalga oshiriladi. Tarixdan ma’lumki, 1939-yilda Katta Farg‘ona kanalining hashar bilan bunyod etilishi xalqimizning birdamligi ramzidir. Jumladan, Bo‘stonliqda ariqlar qazish, tozalash, buloqlar, soy va daryo bo‘ylarini obodonlashtirish hashar yo‘li bilan amalga oshiriladi. Tog‘li qishloqlarga suv olib boruvchi ariqlarni tozalash, qazish ishlarida qishloq ahli bir tanu-jon bo‘lib mehnat qiladi. Erkaklarning mashaqqatli mehnatiga ayollar ham qarab turishmaydi. Shirin taomlar va issiq choy bilan hasharchilarni mehmon qilish qishloq ayollari zimmasiga yuklanadi. Har bir

oiladan bir nafar vakil o‘z ish qurollari bilan hasharga jalg etiladi. Asosan kuz va bahor fasllarida omaviy hasharlar tashkil etiladi.



22-rasm. Xashar.

Faqat o‘zimizgagina xos bo‘lgan hasharning qadriyat darajasiga ko‘tarilgani ham bejjiz emas. Zero, xalqimiz hasharni mehr-oqibat, ishonch hamda do‘stlik rishtalarini mustahkamlovchi vosita sifatida e’zozlab keladi. Jamiyatimizda o‘zaro mehr-oqibat va hamjihatlik muhitini, beg‘araz yordam, mehr-muruvvat kabi ezgu fazilatlarni tobora mustahkam qaror toptirish, mahallalar, aholi turar joylarini obodonlashtirish maqsadida o‘tkazilayotgan hashar yurtimizni yanada obod va fayzli bo‘lishida o‘ziga xos xayrli tadbir vazifasini o‘taydi.

4.3. MILLIY TAOMLAR

O‘zbek milliy taomlari dunyo taomlari orasida eng shirin, xilma - xil taomlardandir. Sharq madaniyatida mehmonni dasturxonga turli shirinliklar, murabbolar qo‘yish, shirin taomlar taylorlab olib kelish odatga aylangan.

Jumladan, Bo‘stonliq tumani aholisi juda mehmondo‘st va xushchaqchaqligi bilan ajralib turadi. Ular mehmonlarni uzoq ajdodlari tomonidan tayyorlangan tansiq taomlar bilan mehmon qiladilar.

Ayni paytda taomlarini tayyorlashda zamonaviy gaz va elektr pechlar, oshxona anjomlari va jihozlaridan keng foydalanimoqda. Biroq, pishirishning an’anaviy usullari hali hamyaxshi saqlanib qolgan. Oshxona jihozlarining ichida eng keng tarqalgani qozondir (odatda bir necha turdag'i va turli o‘lchamlarda).

Milliy taomlar ichida eng keng tarqalgan va ko‘p iste’mol qilinadigan mahsulot – non va non mahsulotlari hisoblanadi. Bo‘stonliq tumaniga qadam qo‘yishingiz bilan bozorlarda turli patir va nonlarga ko‘zingiz tushadi. Hajmi va tayyorlanish uslubi va tarkibiga ko‘ra, Bo‘stonliq nonlari bir-biridan farqlanadi. Asosiy “obi-non” tayyorlanadi. Bayramlar uchun patir (qo‘y yog‘i qo‘shilgan yassi tort) pishiriladi. Bahorda obi-non uchun xamir yalpiz, karahindiba, ismaloq va boshqa ko‘plab o‘tlarning yangi kurtaklari infuzionida pishiriladi. Bo‘stonliqning non va patirlari tandirda, o‘tin bilan pishirilganligi sababli mazasi hisoblanadi.



23-rasm.O‘zbek milliy non turlari.

Bo'stonliq tog'liq hudud bo'lganligi bois chorvachilik yaxshi rivojlanganligi bois milliy taomlari go'shtdan ko'p foydalanish bilan ajralib turadi. Ko'pgina taomlarda mol, ot, echki va parranda go'shti ishlatiladi. Shuningdek, baliq va semiz parranda go'shti ham o'zbeklar orasida hurmatga sazovor. Tuxumlar asosan bayramona pishirish uchun ishlatiladi.



24-rasm.O'zbek shirinliklari va mevalari.

O'zbek dasturxoni doimo to'kin-sochin va boy bo'lib kelgan. Dasturxonga milliy shirinliklar – holvalardan tortib, turli quritilgan mevalar, yong'oq, pistaning turli navlariyu bodomlar va turli sarhil mevalar qo'yiladi.


Jumladan, birgina 50 ga yaqin holva turlari mavjud. Bo'stonliq tumani bog'dorchilik yaxshi rivojlangan hududlardan biridir. Ayniqsa yong'oq va bodom bog'lari serhosilligi bilan ajralib turadi. Meva va rezavorlarning ko'pligi o'zbek taomlarida shirin kompotlar, dorivor infuziyalar, tetiklantiruvchi sorbetlar tayyorlash uchun ishlatiladi. Qovun va tarvuzlar mustaqil shirinliklardir.

Ushbu imkoniyatdan kelib chiqqan holda mazkur hududda turizmning muhim turlaridan biri bo'lmish gastronomik turizmni rivojlantirish yaxshi samara beradi, deb o'ylayman. Gastronomik turizmning muhim tarmoqlaridan bo'lmish qishloq gastronomik turizm to'g'ridan to'g'ri agroturizm bilan bog'liqdir. Ushbu turrning asosiy maqsadi, shahardan uzoqda, tabiatga yaqin joyda yashash, qishloq hayotini o'rganishdir. Bunday sayohatlardagi sayyohlarning faoliyati qishloq

aholisining oddiy hayotini aks ettiradi: tabiat va hayvonlar bilan doimiy aloqada bo‘lish, uy ishlari, yig‘im-terim, o‘zlari yetishtiradigan va dunyo bo‘ylab tarqaladigan an’anaviy taomlarni tayyorlash, ularning joyiga borib kuzatish va bevosita yig‘im terim jarayonlarida qatnashish sayyoohlar uchun o‘zgacha zavq beradi.

Bo‘stonliqqa tashrif buyurgan mehmonlar yo‘l-yo‘lakay tuman bo‘ylab milliy taomlardan tatib ko‘rish uchun kafe va restoranlarga, milliy taomlar oshxonasiga tashrif buyuradilar.

ТОШКЕНТ ВИЛОЯТИНИНГ ГАСТРОНОМИК ХАРИТАСИ



25-rasm. Milliy taomlar: beshbarmoq va manti.

V. BO‘STONLIQ TUMANINING IQTISODIY SALOHIYATI VA TARAQQIYO TISTIQBOLLARI.

5.1 Turizm – barqaror iqtisodiy taraqiqiyot omili

Jahon iqtisodiyotida turizm sohasi tez sur’atlar bilan rivojlanib borayotgan va eng daromadli biznes turi bo‘lib, uning yalpi milliy daromaddagi ulushi 10,0 foizni tashkil etadi. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, yaratilayotgan ish o‘rinlarining har yettingchisi, “uchinchchi dunyo” mamlakatlari bo‘yicha pul mablag‘lari tushumining 50 foizi va ish bilan bandlik darajasining 80–90 foizi turizm sohasiga tegishli. Butunjahon turizm tashkiloti (WTO) davlatlarga turizm salohiyatini oshirish, yangi xizmatlar taklif etish, yangi turizm brendlarini yaratish, turizm sohasi raqobatbardoshligini tubdan oshirish bo‘yicha takliflar kiritish zarurligini ilgari surmoqda. Bu esa turizm geografiyasini yanada kengaytirish, mamlakatlar ichki mahsuloti (YAIM)dagi ulushini oshirish hamda turizmnning rentabellik sohalardan biri ekanligini ko‘rsatib turibdi.

Sayyoqlik rivojlangan mamlakatlarning iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy barqarorligining jahon tajribasi va amaliyoti shuni ko‘rsatadiki, davlatning jug‘rofiy joylashuvi, tabiiy-iqlim resurslari va diqqatga sazovor joylari turizm vositasida umum manfaati uchun xizmat qiladi. 1985-yilda Butunjahon turizm tashkiloti (WTO) Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan “Turizmning global axloqiy kodeksi”da jahon sayyoqlik sanoatini yanada rivojlantirish uchun quyidagi tavsiyalar berilgan: “Turizm siyosatini shunday yo‘lga qo‘yish kerakki, tashrif buyurilgan hududlar aholisining turmush darajasini yaxshilashga yordam berish bir birga, tashrif buyuruvchi sayyoqlarning ehtiyojlarini qondirishi kerak”. Xalqaro turizm - bu iqtisodiyotning muhim tarmog‘i bo‘lib, uning maqsadi madaniyat va ta’limni rivojlantirish, davlatlar, xalqlar o‘rtasida aloqa hamda dam olishni tashkil qilish, inson kuchini tiklashdan iborat.

Turizm – kuchli xo‘jalik tuzilmasi bo‘lib, uning tarkibiga transport, oziq-ovqat industriyasi, dunyo bo‘ylab dam olish tadbirlarini tashkil etishni qamrab oladi. Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ekologik va demografik kabi global funksiyalarni bajaradigan turizm, bir tomonidan, odamlarning dam olishga bo‘lgan ehtiyojlarini

qondiradigan, ikkinchi tomondan, tadbirkorlikning kuchli mexanizmi bo‘lgan noyob sohaga aylandi. Turizmning tabiatи iste’molchi, ishlab chiqaruvchi va umuman jamiyat ehtiyojlarini qondirishni nazarda tutadigan ijtimoiy va axloqiy marketing konsepsiyasini amalga oshirishni nazarda tutadi:

- iste’molchi dam oladi, kuchini, sog‘lig‘ini tiklaydi, ma’naviy ehtiyojlarni qondiradi va hokazo;
- turistik xizmat ko‘rsatish tizimini yaratgan tadbirkorga foyda olish kafolatlangan;
- umuman olganda, jamiyat o‘zining ijtimoiy-iqtisodiy muammolari – fuqarolarning obodonlashtirish, ish o‘rinlari tashkil etish, aholining turmush darajasini oshirish, soliq tushumlari va turistik faoliyatdan olinadigan boshqa to‘lovlar hisobiga markazlashtirilgan budjet mablag‘larini shakllantirishni hal qiladi.

Turizm murakkab fenomen bo‘lib, ko‘plab adabiyotlarda ushbu tushunchaga turlicha ta’rif keltirilgan. Butunjahon turizm tashkilotining bergan ta’rifiga ko‘ra: “Turizm – insonlarning odatdagi muhitdan tashqarida hordiq chiqarish, ish va boshqa maqsadlarda 24 soatdan 1 yilgacha bo‘lgan muddatda sayohat qilishi hisoblanadi”.

O‘zbekiston Respublikasining “Turizm to‘g‘risida”gi qonunning 3 moddasiga ko‘ra, “Turizm – jismoniy shaxsning doimiy istiqomat joydan sog‘lomlashtirish, ma’rifiy, kasbiy-amaliy yoki boshqa maqsadlarda borilgan joyda (mamlakatda) haq to‘lanadigan faoliyat bilan shug‘ullanmagan holda uzog‘i bilan bir yil muddatga jo‘nab ketishi (sayohat qilishi)dir”¹⁰.

Bugungi kunda jahonda turistik imkoniyatlardan oqilona foydalanish borasida, ayniqsa ziyorat turizmini rivojlantirish yo‘nalishidagi ilmiy tadqiqotlarga ustuvor ahamiyat qaratilmoqda. Bu borada tarixiy-me’moriy hamda diniy ahamiyatga ega komplekslarni ziyorat nuqtai nazardan baholash, rayonlashtirish, ziyorat turlarni aniqlash va marshrutlarni ishlab chiqish orqali hududlarning turistik

¹⁰ <https://lex.uz/docs/4428097>

jozibadorligini oshirish va sayyohlar tashrifini ko‘paytirishga yo‘naltirilgan tadqiqotlarga alohida e’tibor berilmoxda.

Mamlakatimizda turizm biznesining rivojlanishi, xorijlik turistlar oqimi va turizm xizmatlarini eksportini kengaytirish tarmoqda yangi ish o‘rinlarining yaratilishi aholining bandlik darajasining o‘sishi, mehmonxonalar, sayyohlarni joylashtirishning boshqa vositalari va turizm faoliyati bilan shug‘ullanuvchi boshqa sub’yektlar sonining ko‘payishiga olib keladi. Shu sababli, so‘nggi yillarda Respublikamizda turizmni jadal rivojlantirish uchun qulay iqtisodiy va tashkiliy-huquqiy sharoitlarni yaratish, milliy turizm mahsulotlarini jahon bozoridagi raqobatbardoshligini ta’minalash, sayyohlik ob’yektlaridan samarali foydalanish, ko‘rsatilayotgan xizmat turlari sifatini oshirish, yurtimizga tashrif buyurayotgan sayyohlar oqimini ko‘paytirish bo‘yicha keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.



Jumladan, “2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi”da ham turizm industriyasini jadal rivojlantirish, turistik xizmatlarni diversifikatsiya qilish va sifatini yaxshilash, turizm infratuzulmasini kengaytirish muhim yo‘nalishlarda biri sifatida belgilab berildi. Bu borada Respublikamizda ziyorat turizmning rivojlanishiga tabiiy geografik va tarixiy omillarning ta’siri, ularning hududiy farqlari hamda mavsumiy o‘zgarish xususiyatlarini tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Turizm sohasi O‘zbekiston Respublikasida mustaqillikdan so‘ng rivojiana boshladi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Jumladan, 1992-yilda “O‘zbekturizm” Milliy Kompaniyasiga asos solindi (O‘zbekiston Prezidenti Sh. M. Mirziyoyevning 2016-yil 2-dekabrdagi PQ-2666-sonli Qarori asosida Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasiga aylantirildi) va mamlakatning turistik jozibadorligini oshirish hamda sohani kadrlar bilan ta’minalash borasida bir qancha islohotlar amalga oshirildi.

Shuningdek, 1999-yil 20-avgustda qabul qilingan “Turizm to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining qabul qilinishi soha rivojida muhim rol o‘ynaydi. Ushbu Qonunning asosiy maqsadi turizm sohasidagi bozorni

rivojlantirish, shuningdek, turistlar va turistik faoliyat sub'yeqtari huquqlari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilishdan iborat.

O'zbekiston Respublikasining geografik joylashuvi, tarixi va iqlim sharoitiga ko'ra, turizmning ekoturizm, ziyorat turizmi, sayohat turizmi kabi turlari mavjud bo'lib, bugungi kunda turizmning yangi yo'nalishlari-tibbiyot turizmi, ta'lim turizmi, kinoturizmi va ov turizmi yo'lga qo'yilmoqda.



26-rasm. O'zbekistonning turistik shaharlari.

So'nggi yillarda Respublikada turizm sohasi tubdan isloh etilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 2-dekabrdagi "O'zbekiston

Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-4861-sonli, 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar stretgiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli, 2017-yil 16-avgustdagagi "2018–2019-yillarda turizm sohasini rivojlantirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3217-sonli qarori, 2018-yil 3-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasi turizm salohiyatini rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratish bo'yicha qo'shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5326-sonli farmonlari va 2018-yil 7-fevraldagi "Ichki turizmni jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3514-sonli qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 13-avgustdagagi "O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5781-sonli, 2021-yil 9-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasida ichki va ziyorat turizmini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6165-sonli Farmonlari, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "2010–2020-yillarda nomoddiy madaniy meros ob'yektlarini muhofaza qilish, asrash, targ'ib qilish va ulardan foydalanish Davlat dasturini tasdiqlash to'g'risida"gi¹¹, "Muqaddas qadamjolar, ziyoratgohlar, masjidlar va qabristonlarni obodonlashtirish ishlarini samarali tashkil etish to'g'risida"gi qarorlari¹², "Moddiy madaniy va arxeologiya merosi ob'yektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanishni yanada takomillashtirish yuzasidan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"dagi, 2019-yil 31-dekabrdagi "2019–2021-yillarda Toshkent viloyatida turizm sohasini jadal rivojlantirish to'g'risida"gi, 2020-yil 10-iyundagi "O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini tiklash va rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 433-sonli qarorlarida hamda mazkur soha rivojlanishigaborasidagi ustuvor vazifalar belgilab berigan.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2017-yilga kelib, O'zbekistonga 2 million 700 ming, 2018-yilda 5 million 300 mingdan ortiq turistlar tashrif

¹¹ Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2010 йил 7 октябрдаги 222-сонли "2010–2020 йилларда номоддий маданий мерос объектларини муҳофаза қилиш, асраш, тарғиб қилиш ва улардан фойдаланиш давлат дастурини тасдиқлаш тўғрисида"ги Қарори. // www.lex.uz.

¹² Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2018 йил 15 февралдаги 120-сонли "Муқаддас қадамжолар, зиёратгоҳлар, масжидлар ва кабристонларни ободонлаштириш ишларини самарали ташкил этиш тўғрисида"ги Қарори // www.lex.uz.

buyurgan. Mazkur sohani yanada rivojlantirish maqsadida 2019–2025-yillarda O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish konsepsiysi ishlab chiqilib, unga ko‘ra, 2025-yilga kelib, xorijlik sayyoohlar sonini 9–10 million nafarga yetkazish, turli ko‘rgazma va tanlovlар o‘tkazish, O‘zbekistonni festivallar mamlakatiga aylantirish, shu tariqa, ivent-turizmni rivojlantirish rejalashtirilgan.

So‘nggi yillarda mamkatimizda olib borilgan islohatlar natijasida yurtimizga tashrif buyuruvchi xorijiy sayyoohlar bilan bir qatorda ichki turizmda sayohat qiluvchilar soni ham kundan-kunga oshib bormoqda. Global Muslim Travel Index (GMTI)ning 2019-yildagi reytingiga ko‘ra, O‘zbekiston Islom Hamkorlik Tashkiloti (IHT) mamlakatlari orasida eng jozibali o‘n mamlakatlar qatoriga kiritilishi dunyo hamjamiyati tomonidan yurtimizning turistik salohiyatiga berilgan yuksak bahodir¹³.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan olib borilgan ochiq siyosat O‘zbekistonda turizm sohasini jadal rivojlanishiga keng yo‘l ochdi. Natijada, 2017-yildan to 2019-yilga qadar turizm sohasidan olingan daromad – ushbu xizmatlar eksporti hajmi hamda ularning mamlakat YAIMdagi ulushi 2,5 barobarga oshdi. 2019 yilda turizm xizmatlari eksporti umumiy hajmining YAIMga nisbati 2,3 foizni tashkil qildi.

Oxirgi uch yil davomida yurtimizga tashrif buyuruvchi xorijlik sayyoohlar soni 4 barobar oshdi. Shu uch yilda turizmni rivojlantirishga qaratilgan o‘nlab hukumat hujjatlari qabul qilindi. Ular sirasiga “Turizm to‘g‘risida”gi yangi qonun¹⁴, 2019–2025-yillarda O‘zbekistonda turizmni rivojlantirish konsepsiysi, turizm sohasidagi biznesga turli imtiyoz va preferensiyalar berish, ushbu sohaga investitsiyalar jalb qilish va ularni rag‘batlantirish, chet ellik investorlarga turli imtiyozlar taqdim etish kabi chora-tadbirlar kiradi.

Jumladan, 2017-yilda fuqarolari O‘zbekistonga vizasiz kiruvchi mamlakatlar soni 10 taga yaqin edi xolos, so‘nggi uch yil davomida ushbu ro‘yxat qariyb 10 barobar kengaytirildi. Shuningdek, xorijliklarga 5 kungacha mamlakatda mehmon

¹³ Global Muslim Travel Index 2019. Master Card & Crescentrating 2019. URL: <https://www.crescentrating.com/reports/global-muslim-travelindex-2019.html>

¹⁴ “Туризм тўғрисида”ги 2019 йил 18 июлдаги ЎРҚ-549-сонли Ўзбекистон Республикаси Конуни // <https://lex.uz/docs/4428097>.

bo‘lishga ruxsat beruvchi vizasiz tranzit rejimi, chet el fuqarolarini hisobga va ro‘yxatga olish bo‘yicha soddalashtirilgan tizim, vizalarni rasmiylashtirishning elektron tartibi amaliyatga tadbiq etildi. Sayyoohlarning yurtimizga tashrifidan maqsadini inobatga olgan holda, imtiyozli maxsus toifali vizalar joriy etildi:

Vatandosh – O‘zbekistonda tug‘ilgan kishilar va ularning oila a’zolari uchun 5 yillik viza;

Student visa – chet ellik talabalar uchun yillik viza;

Academic visa – ilmiy xodimlar va o‘qituvchilar uchun 3 oydan 2 yilgacha bo‘lgan viza;

Medical visa – mamlakatga davolanish uchun viruvchilar uchun 3 oygacha bo‘lgan viza;


Pilgrim visa – 2 oygacha beriladigan ziyorat vizasi.

2020-yilda dunyo miqyosida yuz bergan koronavirus pandemiyasidan eng ko‘p zarar ko‘rgan sohalardan biri turizm bo‘ldi. Soha pandemiya sabab butkul to‘xtab qoldi. Juhon sayyoqlik tashkiloti bayonotiga ko‘ra, aynan turizm industriyasida pandemiyadan keyin dunyo bo‘yicha 50 million ish joyi qisqargani aytilmoqda.


O‘zbekiston misolida ko‘rsak, 2019-yilda mamlakatimizga 6748,5 ming kishi tashrif buyurgan. 2020-yilning yanvar-mart oylarida turizm yo‘nalishida tashrif buyurgan xorijiy sayyoohlar soni 1214,0 ming kishini tashkil etgan bo‘lib, bu 2019-yilning shu davriga nisbatan 12 foiz kamayish ko‘rsatkichini beradi.

Jahondagi barcha mamlakatlar turizmida boshlangan inqiroz O‘zbekistonni ham chetlab o‘tmadi. 2019-yilda turistik xizmatlar eksporti hajmi 1,3–1,4 milliard dollarni tashkil qilgan edi (Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra – \$1,3 mlrd., Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra – \$1,4 mlrd.). Joriy yilning 1-yarim yilligida esa turistik xizmatlar eksportidan tushgan daromad jami 203,5 million AQSh dollariga yetdi. Ushbu daromadning 99,5 foizi (\$202,4 mln.) 2020-yilning 1-choragiga to‘g‘ri keladi, 2-chorakda bu ko‘rsatkich atigi 1,1 million dollarga teng bo‘ldi.

O'zbekistonga tashrif buyurgan xorijiy turistlar soni
(mln nafar sayohatchi)



Ichki turistlar soni
(mln nafar sayohatchi)



27-rasm. Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi

Turizmnинг о'зи жуда кeng qamrovli tushuncha bo'lib, bugungi kunda turistlarning qanday sabablar bilan tashrif buyurishiga qarab ko'plab turlari mavjud hisoblanadi: Gastronomik turizm, ekoturizm, agroturizm, sport turizmi, madaniy

turizm, ziyorat turizmi, ta’lim turizmi, qishloq turizmi va boshqalar, biz ushbu turizm turlari bilan ko‘proq a’loqaga kirishadigan turizm turi sifatida qishloq turizmini misol keltirishimiz mumkin bo‘ladi. Qishloq turizmi bu agroturizm, yashil turizm, ekoturizm turlari bilan bir ma’noda ishlataladi.

Qishloq turizmi – bu keng ma’noda, atrof-muhitga eng yaqin bo‘lgan va birinchi navbatda ichki turizm bozoriga yo‘naltirilgan turizm sanoati tarmog‘idir. Shundan kelib chiqib, ushbu turizm turini quydag‘i turizm turlari bilan bevosita bog‘lanishini ta’kidlamoqchimiz:

Sport turizmi – turistik tashkilotlarning har xil xalqaro sport yig‘inlariga keladigan turistlarga xizmat ko‘rsatishi. Haqiqiy sportdan sport turizmi farq qiladi va sport dam olish bilan bog‘langan holda maxsus yo‘nalishlar tuziladi. Masalan, velosport, alpinizm, ot o‘yinlari kabi sport turizmiga talab yil sayin o‘sib boryapti. Kanada davlati faqat sport turizmi va sport turmahsulotlarini boshqa davlatlarga sotishdan yiliga 5 milliard AQSh dollaridan ortiq daromad oladi. Sport turizmi turizmning bir turi bo‘lib, velosiped, chang‘i, tog‘ chang‘i, avtomobil, mototsikl, paraplan, deltaplan, suvda kemada suzish, olimpiadalarda qatnashish, golf va tennis o‘ynash maqsadlarida tashkil qilinadigan turistik mahsulotlar.

Tog‘ turizmi – tog‘lar bo‘ylab ot-ulovda, piyoda yurish va har xil tog‘ o‘yinlaridan foydalanish, tog‘ bag‘rida toza havoda dam olish, tog‘ hayvonlarini ov qilish kabi xizmatlarni turmahsulot sifatida sotish amalga oshiriladi. Tog‘ turizmi Respublikamizda keng rivojlanish imkohiyatiga ega va ko‘pchilik aholi yozda tog‘ bag‘rida dam olib keladi.

Piyoda yo‘nalishi – ayrim turistlar maxsus joylar, cho‘llar, tog‘lar va ot-ulov o‘ta olmaydigan joylardan piyoda o‘tishni xohlaydi. Oldindan piyoda yuradigan turistlar uslubiy tayyorgarlik ko‘rib, maxsus turmahsulot sotishadi. Piyoda yo‘nalishlar ko‘pchilik dam olish joylarida, tog‘larga chiqish va sayr qilish kabi qisqa turlar har kuni tashkil qilinadi.

Qishloq gastronomik turizm: Bu gastronomik turizmning bir yo‘nalishi bo‘lib, bunda turistlar o‘rmonda yovvoyi mevalarni terish, noyob lazzatli ovqatlar to‘plash, fermer xo‘jaliklarida meva va sabzavotlarni yig‘ish; vinochilik bilan

tanishish (uzum yig‘ish); asalarichilarga tashrif buyurish (asal quyish) va boshqa sayohatlarni uyuşdırishi mumkin.

Ekoturizm – tabiat bilan bog‘liq bo‘lgan barcha yo‘nalishlar “eko-turizm” deb ataladi. Ushbu yo‘nalishlarda asosan, tabiat turmahsulot sifatida sotiladi. Masalan, turistlar tog‘larda dam olish, cho‘llarda sayr qilish, o‘tlar terish, hayvonlarni ko‘rish va baliq oviga borishga maxsus turlar tashkil qilishni so‘raydilar. Rivojlangan davlatlarda ushbu yo‘nalish dam olish turizmi sifatida tez rivojlanayotgan tarmoqlar hisoblanadi. Masalan, har bir amerikalik xorijda ekoturizmda qatnashgan vaqtlarida kuniga o‘rtacha 100 dollardan mablag‘ sarflaydi.

BMT Butunjahon turizm tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra, ekoturizm 2020-yilgacha turizmni rivojlantirishning beshta asosiy strategik yo‘nalishidan biri bo‘lib qoladi. So‘nggi yillarda global turizm sanoatining umumiyligi hajmida ekoturizm ulushi 10 foizdan oshdi va uning o‘sish sur’ati butun sayyoqlik sanoatidagi tegishli ko‘rsatkichlarga nisbatan 2–3 baravar yuqoridir¹⁵.

O‘zbekistonda tarixiy, madaniy va ziyyarat turizmini rivojlantirish bilan bir qatorda mazkur sohaning boshqa turlari, xususan, ekoturizmni rivojlantirishga ham jiddiy e’tibor qaratilmoqda. Yangi tahrirda qabul qilingan “Turizm to‘g‘risida”gi qonunda ekoturizm mazkur sohaning alohida turlaridan biri sifatida belgilab qo‘yilgan¹⁶. Bundan tashqari, Vazirlar Mahkamasining “Ekoturizmni rivojlantirish chora-tadbirlari va suv omborlarining suv saqlanadigan zonalarida yer maydonlarini ajratish tartibini takomillashtirish to‘g‘risida”gi qarori¹⁷ ham qabul qilindi. Ushbu yo‘nalishni jadal rivojlantirish, mazkur qonun va qarorlarni amaliyatga tatbiq qilish maqsadida Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi tarkibida Ekologik va agroturizmni rivojlantirish bo‘limi tashkil etildi.

Hozirgi kunda ko‘plab rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar zudlik bilan o‘z hududlarining keng maydonlarini qo‘riqxonalar va milliy bog‘lar uchun

¹⁵ Ecotourism in Uzbekistan: prospects and opportunities. July 18, 2018. Available at: <https://uzbekistan.lv/en/ecotourism-in-uzbekistan-prospects-and-opportunities/>

¹⁶ Национальная база данных законодательства. 19. 07. 2019 г. – № 03/19/549/ 3446 // <http://lex.uz/ru/docs/4428101>

¹⁷ ПКМ №978 от 03. 12. 2018. lex.uz.

ajratadilar, ekoturistlarni jalb qilish uchun maxsus uyushgan tuzilmalarni yaratadilar va o‘z kapitallarini olib ketadilar. Masalan, Kosta-Rika o‘z hududining 30 foizini tabiatni muhofaza qilish zonasi deb e’lon qildi. Ushbu mamlakatda turizm yetakchi daromad manbaiga aylanmoqda. AQShda ekoturizmdan yillik daromad 220 million dollarga etadi va tez o‘sishga intiladi. Keniyaning milliy bog‘lardan foydalanishdagi daromadi 450 million dollarni tashkil etadi. Ekvador har yili Galapagos orollaridagi ekoturizmdan 180 million dollardan ko‘proq daromad oladi.

O‘z navbatida shuni alohida qayd etish kerakki, Bo‘stonliq tumanida turizmning barcha turlarini rivojlantirish uchun yuksak salohiyat mavjud. Boy madaniy merosga ega hududda muqaddas qadamjolar, qadimiy obidalar va ekoturizmni rivojlantirish uchun qulay manzillar, qadimiy tarixga ega qishloqlar shuningdek, bahavo va xushmanzara dam olish maskanlari ko‘p. Tumanda tabiiy va tarixiy-madaniy manzillar bo‘yicha yangi sayyohlik yo‘nalishlari ishlab chiqish, turistik xizmatlar sifatini yanada yaxshilash doimiy e’tiborda.

5.2. ZIYORAT TURIZMI

Keyingi yillarda dunyo miqyosida muqaddas joylardan foydalangan holda etnografik, ekologik va ziyorat turizmini rivojlantirish masalasi yetakchilik qilmoqda. Turizmning eng faol va rivojlantirishda katta imkoniyatlarga ega turlaridan biri ziyorat turizmi bo‘lib, davlat tomonidan katta ahamiyat berilgan. Chunki sayohatchilar (ziyoratchilar) ziyorat davomida oziq-ovqat iste’mol qiladi, yashash uchun pul to‘laydi va turli xizmatlardan foydalanadi, shu asosda ziyoratgoh hududida yangi iqtisodiy infrastrukturalar shakllanadi. Ziyorat turizmi bu turli xil konfessiyalarining o‘z diniga bo‘lgan hurmati va e’tiqodi nuqtai nazaridan muqaddas qadamjolar, shaharlar, qabriston va aziz sanalgan maskanlarga ziyorat qilishdir¹⁸.

Chindan ham, ziyorat turizmi, ya’ni muqaddas joylarni ziyorat qilish ikki asosiyligi, ya’ni ma’rifiy sayohatlarga yo‘naltirilgan haj va diniy turizmdan iborat. Shu ma’noda, “Islom dinining quvvati” deya e’tirof etiladigan Buxoroga sayohat qilish uchun har yilda dunyoning turli burchaklaridan minglab sayyoohlar keladilar. Ular payg‘ambarimiz Muhammad sallolohu alayhi vassalamdan boshlangan “oltin silsila”ning davomchilari bo‘lgan yetti pir – Abduholiq G‘ijduvoniy, Muhammad Orif Revgariy, Mahmud Anjur Fag‘naviy, Xoja Ali Romitaniy, Muhammad Boboyi Samosiy, Sayyid Amir Kulol va Bahouddin Naqshband ziyoratgohlari, shuningdek, tabarruk manzillarni ziyorat qiladilar¹⁹. Islom dunyosidagi Qur’oni Karim namunalaridan bir – Hazrati Usmon Mus’hafi O‘zbekistonda saqlanayotganligi, hadis ilmi olimlarining ustozasi Muhammad al-Buxoriy, Naqshbandiya tariqatining ko‘plab yetuk izdoshlari yurtimizdan yetishib chiqqan, bir qancha diniy markazlarning mavjudligi O‘zbekistonning ziyorat turizmi bo‘yicha salohiyati yuqoriligini bildiradi.

Prezidentimiz Sh. M. Mirziyoyev tashabbusi bilan shu yilning 21–23-fevral kunlari Buxoroda ilk marotaba I Xalqaro ziyorat turizmi forumi bo‘lib o‘tdi. Mazkur forumda ikki tomonlama uchrashuvlar davomida mamlakatning turistik

¹⁸ Бабкин А. Б. Специальные виды туризма. Учебное пособие. – Ростов-на-Дону, 2008. – С. 11–12.

¹⁹ Ўзбекистон зиёрат туризмининг янги марказига айланмоқда // Халқ сўзи. 2019 йил 22 февраль. – № 37. – Б. 3

imkoniyatlari va salohiyati targ‘ibotiga yo‘naltirilgan hamkorlik masalalari hamda qo‘shma loyihalar muhokama qilindi. Shuningdek, O‘zbekistonning islom olamida ziyyarat turizmining eng yirik markazlaridan biri sifatida xalqaro e’tirof etilishi masalasiga urg‘u berildi. Ayniqsa, bir necha asrlardan buyon islom madaniyatini poytaxti sifatida namoyon bo‘lib kelgan “Qubbatul Islom” – Buxoro shahri 2020-yilda Islom hamkorligi tashkiloti Ta’lim, fan va madaniyat masalalari bo‘yicha Islom tashkiloti (ISESCO) tomonidan Buxoro boshqa shaharlar qatorida Islom madaniyatining poytaxti deb e’lon qilinganligi e’tiborga sazovor²⁰. Bu ham O‘zbekistonga xorijiy sayyohlar va ziyyoratchilarining yanada ko‘proq tashrif buyurishiga xizmat qiladi.

Mazkur Xalqaro forum doirasida O‘zbekistonning ziyyarat turizm markazlaridan biri sifatida tan olinishiga doir “Buxoro deklaratsiyasi” imzolandi. Mazkur xalqaro hujjatning imzolanishi O‘zbekiston tarixidagi muhim hodisa bo‘lib, ushbu hujjat Respublikada sayyohlik infratuzilmasining rivojlanishiga va umuman turistik oqimning yanada ko‘payishiga kuchli turtki beradi. Yuqoridagilardan kelib chiqib, O‘zbekistonda madaniy turizmni yanada rivojlantirish imkoniyatlari yuqori bo‘lib, uning rivojlanishi mamlakatimizning xalqaro aloqalarini rivojlanishiga ijobji rol o‘ynaydi.

Yurtimizdagi islom diniga oid ziyyoratgohlar, yahudiylilik, buddaviylik yodgorliklari, nasroniylik cherkov, monastrlaridan foydalangan holda 700 ming ziyyoratchilarni jalb etish va 130 million dollarlik xizmatlar eksport qilish imkoniyati mavjud. Shu maqsadda Yevropa mamlakatlari, Malayziya, Indonezyiya, Pokiston, Tailand, Yapaoniya kabi davlatlar bilan aviaqatnovlarni tiklash, yangi reyslarni yo‘lga qo‘yish, Milliy aviakompaniyaga chiptalar narxini qayta ko‘rib chiqish vazifalari bugungi kunda dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Jumladan, 2020-yil 29-dekabr kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyevning Oliy Maslisga Murojaatnomasida ham davlatimiz rahbari

²⁰ Бухоро Декларацияси: Ўзбекистон зиёрат туризми марказларидан бири сифатида эътироф этилди // «Халқ сўзи», 2019 йил 23 феврал июн, № 38. – Б. 1, 4

tomonidan 2021-yilda ham turizm sohasi, ayniqsa ziyorat va ichki turizmni rivojlantirishga e’tibor qaratilishini ta’kidlandi. Shuningdek, turizm ob’yektlari atrofidagi yer maydonlari, suv va yo‘l infratuzulmalarini yaxshilash uchun Respublika byudjetidan 1 trillion so‘m miqdorida mablag‘ ajratildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasida ichki va ziyorat turizmini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6165-sonli Farmoni qabul qilindi. Mazkur Farmonda Respublikada turizm bozorining turli segmentlariga yo‘naltirilgan turizm mahsuloti va xizmatlarini diversifikasiatsiya qilish, ularning raqobatbardoshligini yanada oshirish, maqbul hamda qulay ichki va xalqaro ziyorat turizmi muhitini yaratish, transport yo‘nalishlarini kengaytirish, transport xizmatlari sifatini oshirish, turizm mahsulotlarini keng targ‘ib qilish, shuningdek, mamlakatimizning sayohat va dam olish uchun xavfsiz manzil sifatidagi imijini mustahkamlashda muhim vazifalar belgilangan. Farmonning 1-ilovasida keltirilgan “O‘zbekiston Respublikasidagi yirik moddiy madaniy meros ob’yektlarida ichki turizm oqimlarini shakllantirish rejasi”ga mamlakatimizdagi 22 ta, jumladan, Toshkent viloyatidagi Zangi ota va Shayx Umar Vali ziyoratgohlari kiritilgan²¹.

Mamlakatimizda aynan ziyorat turizmini rivojlantirish borasida amlaga oshrilayotgan islohotlar bejiz emas. Zero, xalqaro turizmning eng serdaromad yo‘nalishlaridan biri-ziyorat turizmidir. Ziyorat turizmi – turizm sanoatida yangi yo‘nalishlardan biri bo‘lib, mamlakatimizda asosan islom diniga e’tiqod qiladigan sayohatchilarga qaratilgan bo‘lishiga qaramay, ushbu yo‘nalishda taklif etilayotgan xizmatlarning mo‘tadil narxlari, xavfsizligi, pokizaligi, oilaviy sayohat uchun qulayligi bois musulmon bo‘lmagan sayohatchilar uchun ham jozibador hisoblanadi.

Shuningdek, islom tamaddunida yurtimizning tutgan o‘rni, ulug‘ muhaddislar – Imom al-Buxoriy va At-Termiziylarning shu zamindan yetishib chiqqanligi, naqshbandiylik tariqati asoschisi Bahouddin Naqshbandning ilmi

²¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 9 февралдаги “Ўзбекистон Республикасида ички ва зиёрат туризмини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида” ПФ-6165-сонли Фармони // <https://lex.uz/ru/docs/5283956>.

irfondagi o‘rni yuksakligi ziyorat turizmini rivojlantirishda asos bo‘lib xizmat qiladi.

Vatanimiz hududida dunyoga mashhur qadamjo va ziyoratgohlar borki, ularni ziyorat qilish Islom dinida “Kichik haj” bilan tenglashtirilgan. Bu esa o‘z navbatida ziyorat turizmini yanada rivojlantirish orqali, O‘zbekistonning turizm salohiyatini yuksaltirish imkoniyatini beradi. Bugungi kunda yurtimizda jami 7476 ta moddiy madaniy meros ob’yekti davlat muhofazasiga olingan bo‘lib, shundan 4308 tasi arxeologiya, 2079 tasi arxitektura, 694 tasi monumental san’at yodgorliklari, 395 tasi esa diqqatga sazovor joy sanaladi. Mazkur yodgorliklarning 75% dan ortig‘i Respublikaning markaziy turistik shahlarida joylashgan.

Turistik rekreatsion ob’yektlardan Toshkent shahrida 114 ta, Samarqandda 118 ta, Buxoroda 201 ta va Xiva shahrida 310 tasi joylashgan bo‘lib, bugungi kunda bu turistik resurslarning 1/3 qismigina turizm sohasida faoliyat ko‘rsatmoqda, qolgandari esa turistik infratuzilmaning shakllanishi va yangi turmahsulotlar tayyorlashni talab etadi²². Jumladan, 2020-yil 24-yanvar’ kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasida ham yurtimizda 8200 dan ziyod madaniy meros ob’yekti mavjud bo‘lib, turizm mashrutlariga uning atigi 500 tasi kiritilganligi tanqid qilindi²³.

Ziyorat turizmining yana bir muhim masalalaridan biri ularni saqlash, restavrasiatsiya qilish va shuningdek, O‘zbekiston fuqarolari hamda xalqaro miqyosda tanitishdan iborat.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, mavzuning dolzarbligi shundaki, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Osiyodagi mamlakatlar orasida nisbatan katta turistik imkoniyatlarga ega bo‘lib, ushbu sohada yuqori darajadagi raqobatga bardosh bera oladigan hamda turizmni yanada rivojlantirish uchun potensial imkoniyatlarga ega bo‘lgan mamlakatlardan biri hisoblanadi shuningdek, O‘zbekiston Jahon turistik tashkilotining (WTO) “Buyuk Ipak Yo‘li” loyihasining asosiy bo‘g‘ini hisoblanadi. Bu loyiha bo‘yicha turistlar ixtiyoriga taklif etilayotgan turlaming

²² <http://elib.buxdu.uz/index.php/pages/referatlar/mustaql-ish-kurs-ishi/item/9817-2021-01-28-08-15-20>.

²³ Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш. М. Мирзиёевнинг 2020 йил 24 январдаги Олий Мажлисга Мурожаатномаси // Халқ сўзи. – №19. 25. 01. 20. – Б. 1–3.

aksariyat qismi O‘zbekiston hududidan o‘tadi. Bu esa o‘z navbatida, mazkur loyiha orqali ziyorat turizmini targ‘ib qilish, madaniy turizm talablariga miqdor hamda sifat jihatidan javob berish imkoniyatlarini, turistlar ixtiyoriga taklif etilayotgan milliy turistik mahsulotlarimizni qo‘shti mamlakatlarning turistik mahsulotlariga nisbatan raqobatbardoshligini tahlil etish va madaniy turistik resurslarimizdan

kelgusi avlod manfaatlarini ham unutmagan holda barqaror rivojlantirish imkoniyatlarini o‘rganib chiqqan holda yangi rivojlanish strategiyasini ishlab chiqish zaruratini tug‘diradi.

	Tuman, shahar	Jami	Arxeologiya	Arxitektura	Monumental san’at yodgorliklari	Diqqatga sazovor joylar
1	Angren shahar	26	16	1	8	1
2	Bekobod tumani	34	23	1	7	3
3	Bo‘ka tumani	23	16	0	2	5
4	Bo‘stonliq tumani	79	60	1	5	13
5	Zangiota tumani	22	9	6	4	3
6	Oqqo‘rg‘on tumani	70	60	0	7	3
7	Ohangaron tumani	165	154	1	1	9
8	Parkent tmani	68	62	0	1	5
9	Pskent tumani	48	37	0	1	10
10	O‘rtachirchiq tumani	16	10	0	1	5
11	Qibray tumani	44	31	0	5	8
12	Quyichirchiq tumani	24	22	0	2	0
13	Chinoz tumani	18	13	0	4	1
14	Yuqorichirchiq tumani	58	52	0	3	3
15	Yangiyo‘l tumani	26	20	0	5	1
JAMI		721	585	10	56	70

Bugungi kunda Toshkent viloyatida O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi Madaniy meros ob’yektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish ilmiy-ishlab chiqarish Bosh boshqarmasi Toshkent shahri, Toshkent va Sirdaryo

viloyatlari bo'yicha mintaqalararo davlat inspeksiyasi tomonidan jami 721 ta madaniy meros ob'yektlari ro'yxatga olingan.

Viloyatda joylashgan Zangiota, Hazrati Ali, Shodimalik ota, Buzruk ota, Zarkent ota, Payg'ambar ota, Shomirqori avliyo, Parpi ota, Shayx Umar Vali Buzruk ota, Qirq qiz kabi ziyoratgohlari mashhur bo'lib, bu yerga nafaqat Respublikamiz, balki qo'shni mamlakatlar hamda Rossiya, Turkiya, Indonezyiya, Malayziya, Eron, Pokiston kabi davlatlardan ziyoratchilar tashrif buyurmoqda. Amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlari bilan bir qatorda viloyatda ziyorat turizmini rivojlanishiga salbiy ta'sir qiluvchi ob'yektiv va sub'yektiv muammolar ham mavjud:

1. Hududning turistik resurslarini reklama, targ'ibot va tashviqot qilish ishlarining pastligi.

2. Ziyoratgohlar joylashgan hudud infrastrukturasidagi muammolar: ziyoratgohlarga olib boruvchi yo'llarning asosiy qismi ta'mirlashga muhtoj, ichimlik suvi va tabiiy gaz muammolari.

3. Ziyoratchilar va sayyohlarga xizmat ko'rsatuvchi mehmonxonalar soni hamda xizmatlar sifati, narxini qayta ko'rib chiqish kerak.

4. Muqaddas qadamjo va ziyoratgohlarning tarixiy-me'moriy qiyofasi hamda tabiat bilan uyg'unligini yo'qotmasligi uchun rekonstruksiya, obodonlashtirish ishlarini mutaxassis olimlar bilan hamkorlikda amalga oshirishni yo'lga qo'yish kerak.

Toshkent viloyati ziyorat turizmini rivojlantirish istiqbolli rejasida quyidagilar amaliyatga tatbiq etilsa, maqsadga muvofiq bo'lar edi:

1. Turistik resurslar to'g'risida saytlar va mobil dasturlarni ishlab chiqish orqali targ'ibot ishlarini kuchaytirish kerak.

2. Toshkent viloyatida turizm industriyasini bo'yicha investisiitsion loyihalar sonini oshirish.

3. Mintaqaviy hamkorlikni yo'lga qo'yish orqali turistlar oqimini ko'paytirish. Masalan, Buyuk Ipak yo'li kesimida: Qozog'iston-O'zbekiston qo'shma turlari kabi.

4. Turizm sohasi bilan bog‘liq kichik va o‘rta biznesni qo‘llab-quvvatlash buyicha dasturlar ishlab chiqish hamda amaliyotga tatbiq etish kerak.

5. Ziyorat turizmi yo‘nalishini qo‘shimcha yo‘nalishlar bilan boyitish, ya’ni ekoturizm, gastronomik turizm, shopping va boshqalar bilan uyg‘unlashtirish.

Xulosa qilib shuni qayd etish mumkinki, Toshkent viloyati nafaqat ziyorat, balki eko, sayohat, sport va tibbiyot turizmini rivojlantirish bo‘yicha ulkan salohiyatga ega hudud hisoblanadi. Turizm bo‘yicha sayyoohlар sonining o‘sishi aholini ish bilan ta’minlanishiga, valyuta tushumining ko‘payishiga, YaIMning o‘sishi hamda mamlakatning eksport salohiyatini oshirishga xizmat qilib, valyuta kirimlari hamda tashqi savdo balansi barqarorligi ta’milanadi. Shu sababli, mavjud imkoniyatlardan samarali foydalangan holda, O‘zbekistonning turizm xabini yaratish sari barcha imkoniyatlarni safarbar etish kerak.

5.3 BO‘STONLIQ TUMANINING MUQADDAS QADAMJO VA ZIYORATGOHLARI

Bo‘stonliq tumani ziyoratgohlari tarixi, vazifasi, ahamiyati va me’moriy yechimiga ko‘ra, bir-biridan farq qiladi. Mazkur ziyoratgohlarining rivojlanish tarixiga ko‘ra, quyidagi bosqichlarga bo‘lish mumkin:

1. Islom dini kirib kelgunga qadar mavjud bo‘lgan diniy e’tiqodlar bilan bog‘liq ziyoratgohlar va ziyorat marosimlari. Mazkur davrda asosan, fetishim, animizm, totemizm, shomonlik, Ko‘k Tangri e’tiqodi, zardushtiylik, nasroniylik va moniylik kabi diniy qarashlar bilan bog‘liq muqaddas qadamjo hamda ziyoratgohlar shakllangan bo‘lib, ular orasida qoya tosh rasmlari eng qadimiysi hisoblanadi. Shuningdek, Ohangaron tumanidagi Qorixona va Qo‘sbuluoq yodgorliklari buddaviylik, xristian hamda Mitra e’tiqodi bilan bog‘liq yerosti ibodatxonasiga ega bo‘lgan²⁴.

Bugungi kunga qadar ziyoratgohlar va ziyorat marosimlarida qadimgi e’tiqodlar izlari saqlanib qolgan. Jumladan, Bo‘stonliq tumanidagi Balogardon, Qadamjo, Ohangarondagi Parpiota, Payg‘ambar ota, Piskentdagi Qirqqiz va Qo‘lota kabi ziyoratgohlar bunga misol bo‘ladi.

2. VIII asr boshlaridan – XIV asrgacha bo‘lgan davr. Ushbu davrda arablar istilosи natijasida vohaga islom dinining kirib kelishi va mahalliy ziyoratgohlar hamda ziyorat marosimlarining islom aqidalari bilan simbiozi yuz beradi. Ya’ni, barcha qadamjo va ziyoratgohlar Qur’oni Karimda nomlari zikr qilingan payg‘ambarlar, sahabalar hamda xalifalar nomlari bilan bog‘liq holda talqin etila boshlangan. Jumladan, Toshkent viloyatidagi Hazrati Masjid Ali, Axtam Sahoba, Zarkent ota va Ikrima ota ziyoratgohlari bunga misol bo‘ladi. O‘z o‘rnida shuni qayd etish ham kerakki, Movarounnahrda X asrdan boshlab mashxur imomlar, shayxlar va diniy allomalar qabrlari ustiga maqbaralar qurish an’anaga aylana boshlagan.

²⁴ Раимкулов А. О трех неизвестных типах христианских культовых сооружений Средней Азии // ИМКУ. – Самарканд, 2004. – №34. – С. 222.

3. XIV asrdan – XIX asr oxirigacha bo‘lgan davr. Tasavvuf ta’limotining keng tarqalishi va avliyolarga bo‘lgan ehtiromning yuksakliligi bois Toshkent vohasida XIV asrda so‘fiylarning memorial-diniy ziyyaratgohlar keng tarqalgan²⁵. Tasavvuf ta’limotiga ko‘ra, tasavvuf shayxlari dafn qilingan qabristonlar muqaddas hisoblanib, ziyyaratgohlarga aylanib borgan. Chunonchi, Toshkent viloyati hududida asosan, turkistonlik Xo‘ja Ahmad Yassaviy va yassaviylik ta’limotining izdoshlari nomi bilan bog‘liq ziyyaratgohlar bunyod qilingan. Ushbu ziyyaratgohlar chillaxona, masjid, xonaqo kabi qo‘sishimcha binolar bilan boyitilib, arxitektura kompleksiga aylantirilgan. Jumladan, Shoabdumalik ota va Boboxon ota kabi ziyyaratgohlar chillaxonalar bugungi kunga qadar yaxshi saqlanib qolgan. Shuningdek, Zangiota hamda Qizilmozor kabi ziyyaratgohlar o‘rta asr me’morchiligidagi oid obidalar hisoblanadi.

4. Sovet davri. Mazkur davrda ateistik siyosat sababli ziyyaratgohlar va ziyyarat marosimlari “yot unsurlar” deb e’lon qilinib, muqaddas qadamjo hamda ziyyaratgohlarni buzib tashlash, ularni ateistik muzeylar, sex va omborxonalarga aylantirish, shuningdek, ziyyarat marosimlariga qarshi keskin kurash olib borildi. Jumladan, O‘zbekiston SSR Kompartiyasining I s’yezdida “Dinga qarshi proraganda va turmush xurofotlariga qarshi kurash” rezalyusiyasining qabul qilindi²⁶.

Mazkur davrda siyosiy tazyiqlarga qaramasdan, o‘zbek xalqi an’ana va qadriyatlarida ziyyaratgohlarga bo‘lgan e’tiqodlar saqlanib qoldi. 1928-yil 3-mart kuni I. Stalining “Quloqlarga qarshi kurash – dinga qarshi hal qiluvchi kurash pallasi”²⁷ mavzusida so‘zlagan nutqidan so‘ng mamlakatda din vakillariga qaratilgan qatag‘on siyosati yanada kuchaydi. Hattoki, tabarruk qadamjo va ziyyaratgohlardagi shayx, eshon hamda qarovchilar ham qatag‘on qurbaniga aylandi. Natijada, ziyyaratgohlar qarovsiz va tashlandiq holatga kelib qoldi. Tabarruk qadamjo va ziyyaratgohlarni buzib tashlash ishlari rag‘batlantirildi. Jumladan, Ohangaron tumanidani Parpi ota va Shoabdumalik ota, Bo‘stonliqdagi

²⁵ Тошкент тамаддун тарихи ва тараққиёт истиқболлари. – Тошкент: Маънавият, 2014. – Б. 96.

²⁶ Ўзбекистон Коммунистик партияси съездларининг резолюция ва қарорлари. I том.... – Б. 48, 50, 51.

²⁷ Наука и религия. – 1977. – №10. – С. 16.

Ikrima ota ziyoratgohlari buzib tashlandi. O'rta Osiyo va Qozog'iston musulmonlar idorasi (SADUM) tabarruk qadamjo hamda ziyoratgohlarni saqlash, himoya qilish, ijaraga berilgan ziyoratgoh hududlarini qaytarib olish hamda obodonlashtirish masalalari bo'yicha Din ishlari bo'yicha Kengashga murojaat bilan chiqqan²⁸. Shunga qaramasdan, ziyoratgohlar baribir ateistik muzey, turli sex va "Qizil choyxonalar" larga aylantirilgan.

5. Mustaqillik yillari. O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan so'ng tabarruk qadamjo va ziyoratgohlarning "qayta tug'ilish" davri bo'lib, buzilib ketgan maqbaralar sharqona me'morchilik an'analari asosida qayta tiklanib, ziyoratga keluvchilar uchun barcha shart-sharoitlar yaratildi. So'nggi yillarda ziyorat turizmini rivojlantirish maqsadida Respublika miqqosida mavjud tabarruk qadamjo va ziyoratgohlarni o'rganish, ziyoratgohlar infratuzilmalarini rivojlantirish hamda rekonstruksiya qilish ishlariga alohida e'tibor berilmoqda. Shu bilan birga, ziyorat marosimlarini o'ziga xos jihatlari, marosimlarning vujudga kelishidagi endogen va ekzogen omillar, marosimlarning insoniyat ruhiyatiga ta'siri kabi xususiyatlarni o'rganish dolzarb vazifalardan biriga aylandi.

Sovet davrida dinga qarshi olib borilgan ateistik mafkura ta'sirida ziyoratgohlarning asosiy qismi qarovsizlik oqibatida vayron bo'ldi. Mustaqillikdan so'ng o'zbek xalqining e'tiqod erkinligi tiklanishi sababli, ziyoratgohlarning asosiy qismida qayta rekonstruksiya shlari olib borildi. Ziyoratgohlarni qayta tiklash va obodonlashtirish ishlarida mahalliy aholining homiyligi, shuningdek, "Oltin Meros" xalqaro xayriya jamoat fondi yordamida amalga oshirildi.

Ziyoratgoh va qadamjolarning mahalliy xususiyatlari. Bo'stonliq tumani aholisi ma'naviy hayotida muqaddas qadamjo va ziyoratgohlar hamda mozorlar muhim ahamiyatga ega. Asrlar davomida islom olamida mashhur bo'lgan xalifalar, sahabalar va tasavvuf tariqati namoyondalarining qabrlari hamda mozorlari muqaddas hisoblanib, xalqona qarashlarga ko'ra, ularni ziyorat qilish o'z muammolariga yeechim topish, niyatlarining amalga oshishi hamda turli kasallikkarga shifo topishda yordam beradi. Aksincha, muqaddas qadamjo va

²⁸ O'zbekiston Milliy arxivi. 2956-fond, 1-ro'yxat, 215-ish, 9-varaq.

ziyoratgohlarga zarar yetkazish hamda hummatsizlik qilish turli baloyu-ofat va kasalliklarga yo‘liqishga sabab bo‘ladi, deb ishonilgan. Ayniqsa, viloyat miqyosida Zangi ota, Shodmalik ota, Payg‘ambar ota, Parpi ota, Zarkent ota, Machit Ali, Shayx Umar Vali Bog‘ustoniy, Balogardan, Shomir Qori Avliyo, Qirqqiz, Axtam sahoba kabi ziyoratgohlar e’tiborli maskanlar hisoblanib, mazkur mozorlarga atrofdagi viloyatlar va qo‘shni davlatlardan ham ziyoratchilar tashrif buyurgan. Ziyoratgohlar turli sayllar kabi ommaviy bayramlar ham o‘tkazish joyi ham hisoblangan.

Har bir ziyoratgoh o‘zida xalqona qarashlar, qadimgi rivoyat va afsonalarni mujassam etgan bo‘lib, mahaliy aholining dunyoqarashi, tafakkuri, ishonch hamda e’tiqodini aks ettirish bilan birga, ular ziyoratchilarning diniy hissiyotlarini uyg‘otishda muhim rol o‘ynaydi.

Tumanda joylashgan ziyoratgohlarning vujudga kelishi omillari nuqtai nazaridan ikkita turga ajratish mumkin:

1. Tabiiy (landshaftli) ziyoratgohlar: a) tog‘-toshlar, g‘orlar bilan bog‘liq orografik; b) buloq, daryo, ko‘l va dengiz bilan bog‘liq gidrologik; s) o‘simplik dunyosi bilan bog‘liq ziyoratgohlar.

2. Qo‘l bilan yaratilgan (antropogen) ziyoratgohlar: muqaddaslashtirilgan tabiiy landshaftlarning kuchli yoki butunlay madaniylashtirilgan holati bo‘lib, insonlar tomonidan tabiiy muqaddas ob’yektlar tosh, g‘or, buloq yoki daraxtlar saqlangan holda avliyolarga bag‘ishlab masjid, mozor va maqbaralari bunyod qilingan joylarni o‘z ichiga oladi. “Ziyoratgoh” atamasini “muqaddas joy”, “qadamjo”, “aziz joy”, “topinch (kult) joyi”, “ilohiy joy” kabi iboralar bilan birga ishlatish mumkin. Bo‘stonliq ziyoratgohlarining yana bir o‘ziga xos jihatlaridan biri shuki, tabiiy va antropogen, ya’ni inson aralashuvi bilan vujudga kelgan ziyoratgohlar bilan birga aralash xususiyatga ega ziyoratgohlar ham keng tarqalgan.

Bo‘stonliq tumanida inson omili bilan yaratilgan ziyoratgohlar asosan, mashhur avliyolarga atab qurilgan maqbaralar, mozorlar va qabrlardan iborat bo‘lib, asosiy qismi mustaqillikdan keyingi davrga to‘g‘ri keladi. Chunki, sobiq

sovet davrining mafkuraviy siyosati sababli ziyoratgohlarning asosiy qismi yo‘qolib ketgan, saqlanib qolganlari ham xaroba holatda edi.

Toshkent viloyati geografik joylashuviga ko‘ra, muhim savdo yo‘lida joylashgan. Ayniqsa, ushbu yo‘llar Buyuk Ipak yo‘li hududning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida muhim rol o‘ynagan. ‘Buyuk Ipak yo‘li har doim ziyorat yo‘li bo‘lgan. Karvon yo‘lidagi savdo ishlari doimo muvaffaqiyatli bo‘lishi uchun muqaddas joylarni ziyorat bilan boshlangan hamda karvon manzilga yetgach, muvaffaqiyat uchun muqaddas joylar ziyorati bilan yakunlangan. Shunday qilib, savdo yo‘llari diniy e’tiqod va qarashlarni uzatish uchun muhim kanalga aylandi va dinlararo aloqalar rivojlandi, lekin muqaddas joylar – payg‘ambarlar va avliyoning qabrlari, shifobaxsh buloqlar va alohida qoyalar, toshlar va daraxtlar ko‘pincha bir joyda qolib, faqat nomlarinigina o‘zgartiradi²⁹”.

Vujudga kelgan davri noma’lum bo‘lgan Bo‘stonliq tumanidagi “Qadamjo” ziyoratgohi Buyuk Ipak yo‘lining tarmoqlaridan biri bo‘lgan – “Poltovsov” vodiysi, “Sargardon”, “Arab qishloq”, “Oqbuloq”, “Maydontol” ma’danchilar qishloqlaridan so‘ng Chotqol daryosi bo‘ylab, Nayza to‘qay orqali Urumchi va Xitoy davlatlariga boruvchi savdo yo‘li boshlanishida joylashgan. Yana bir nomi “Obi Rahmat” bo‘lib, fors tilidan tarjima qilinganda, “Suvga rahmat” ma’nosini anglatadi. Ushbu ziyoratgoh tijorat ishlarida birinchi qadam qo‘yiladigan muqaddas joy sifatida ulug‘lanib, mahalliy aholi o‘rtasida “Qadamjoy” nomini olgan. Ziyoratgoh Toshkent viloyati Bo‘stonliq tumanidagi Chorvoq dengizining yuqori sharqiy sohilida Ardolkent (hozirgi Burchmulla) qishlog‘i hududida joylashgan bo‘lib, qishloq aholisi asosan, Chotqol daryosining o‘ng qirg‘og‘ida istiqomat qilib, asosiy mashg‘ulotlari hunarmandchilik, ma’dan qazish, dehqonchilik va savdo-sotiq bilan shug‘ullangan. Bu yerdagi ma’dan qazib olish ishlari eramizdan avvalgi XIII–XII asrlarga borib taqaladi³⁰.

Mahalliy aholi an’anaviy qarashlarida asrlar davomida tijorat ishlarining rivojlanishi uchun duo qilish maqsadida Idris payg‘ambar qadam ranjida etgan

²⁹ Резван М. Е. Паломничество как функция транспортного коридора / Центральная Азия. Традиция в условиях перемен. Вып. 3 / Отв. ред. Р. Р. Рахимов., М. Е. Резван. – СПб., 2012. – С. 244–269.

³⁰ Марказий Осиё тарихи, археологияси ва этнологияси масалалари. – Тошкент, 2018. – Б. 241.

ko‘hna qadamjo Obi Rahmatni ziyyarat qilish ajdoddardan avlodlarga o‘tib, davom etib kelmoqda. Uzoq safar oldidan savdogarlar Obi Rahmat ziyyaratgohida bir necha kun dam olib, poklanib, so‘ngra safarga chiqilgan. Savdo ahli tijoratdan qaytishlarida ham shu yerda yig‘ilib, bir kecha tunab, poklanib, Ardolkent, ya’ni hozirgi Burchmulla qishlog‘iga yo‘l olgan.

Bo‘stonliq tumanidagi Chimboyliq qishlog‘ida muhim karvon yo‘li bo‘yida Ikrima ota ziyyaratgohi joylashgan. Rivoyatga ko‘ra, ziyyaratgoh hududida qadimiy masjid ham bo‘lgan. Ziyyaratgoh hududidan topilgan qadimiy buyumlar- masjid g‘ishtlari, sopol idishlar va ulkan tegirmon toshi o‘rta asrlarga oid bo‘lib, ziyyaratgohning qadimiy ekanligidan dalolat beradi.

Umuman olganda, ziyyaratgohlar nafaqat diniy va ma’rifiy, balki iqtisodiy jihatdan ham muhim rol o‘ynaganligi sababli Toshkent vohasining iqtisodiy rivojlangan hududlarida ziyyaratgohlar albatta, mavjud bo‘lgan. Ayniqsa, o‘rta asrlarda mahalliy aholi orasida Parpi ota, Ko‘l ota va Zangi ota ziyyaratgohlari anchagina mashhur edi.

Toshkent viloyati ziyyaratgohlari haqida so‘z yuritilar ekan, Zangi ota, Shodmalik ota, Shayx Umar Vali Bog‘istoniy, Masjid Ali, Ervali bobo, Parpi Ota kabi aziz joylar o‘ziga xos koinot va ona yerning energiyasi o‘zaro birlashgan maskanlar bo‘lib, ushbu joylarga ziyyaratga qalbni turli gumon va yomon fikrlardan tozalab, faqat yaxshi narsalarni o‘ylagan holda, ixlos bilan kelish kerakligini ta’kidlash joiz. Zero, fikrlar so‘zga, so‘z esa amalga aylanishi, ya’ni moddiylashishi ayni haqiqat.

Ziyyaratgohlarda qilingan niyatlar amalga oshganligi sababli, diniy qarashlar o‘zgarishlarga uchrasa-da, muqaddas qadamjo va ziyyaratgohlarga bo‘lgan ishonch hamda ixlos bugungi kunga yaxshi saqlanib qolgan.

Umuman olganda, Toshkent viloyati hududida joylashgan ziyyaratgohlari vujudga kelish tarixi, afsona va rivoyatlari, me’moriy tuzilishiga ko‘ra betakror bo‘lib, Respublikaning boshqa hududlarida aynan bir xil ziyyaratgohni uchratmaysiz. Yana bir muhim jihat shuki, asrlar davomida mahalliy aholining ziyyaratgohlarga bo‘lgan hurmati va ishonchi yuqori bo‘lib, xalqimizning

etnomadaniyatini talqin etishda mazkur ziyoratgohlar muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, globallauv jarayonlari tez sodir bo‘layotgan bugungi kunda o‘zbek xalqi milliy o‘zligini anglashda muhim mezonlardan biri bo‘lgan ziyoratgohlarning ahamiyati yanada oshib bormoqda. Zero, har bir inson uchun tug“ilgan joy, o‘ziga xos mozor muqaddas tushuncha bo‘lib, kindik qoni to‘kilgan joydan ona yurt va Vatanga bo‘lgan muhabbat singadi. Shu sababli ham har bir inson o‘z mozorini Vatan tuprog‘ida bo‘lishni xohlaydi. Vatanni himoya qilish mana shu muqaddas mozorlarni muhofaza etishdan boshlanadi. O‘zi uchun muqaddas bo‘lgan vatanni himoya qilish – har bir insonning muqaddas burchi. Ziyoratgohlar – bu ajdodlarimizning avlodlarga qoldirgan oltin merosi hisoblanadi. Mana shunday merosni asrab-avaylab, kelajak avlodlarga yetkazish bugunning dolzarb masalalaridan biridir.

Ma’lumki, Toshkent viloyati tabiatini va qulay iqlim sharoiti bilan Respublikaning boshqa hududlaridan ajralib turadi. Viloyatda joylashgan tabarruk qadamjolar va ziyoratgohlar asosan, tasavvuf ta’limoti namoyondalari hamda tabiat kulhti bilan bog‘liq maskanlar hisoblanadi. Ziyorat marosimlari islom dini ta’sirida mahalliy e’tiqodlar bilan simbioz hosil qilgan bo‘lsa-da, ayniqsa, viloyatning tog‘li hududlaridagi ziyorat marosimlarida mahalliy e’tiqodlar va islomiy qarashlarning sinkretlashgan holatlari bugungi kunga qadar yaxshi saqlanib qolgan.

Qadimdan, Iloq, Binkent, Choch, Shosh nomlari bilan mashhur Toshkent vohasi qadimdan Yevropa va Osiyoni bog‘laydigan yo‘llar chorrahasida muhim savdo markazi hamda “Osioning darvozasi” bo‘lib xizmat qilganligi bois “Sharq darvozasi”, qulay tabiiy-geografik joylashuvi, tarixi va betakror me’moriy obidalari bilan dunyoga “Sharq gavhari” degan nomlar bilan tanilgan. Shu sababli, Toshkent vohasiga tashrif buyuruvchilar, qadim va navqiron vohani ziyorat etuvchilar doimo ko‘pchilikni tashkil etgan.

Viloyatdagi mavjud ziyoratgohlar mamlakatda ziyorat turizmini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Bugungi kunda barqaror rivojlanayotgan ziyorat turizmi mazkur sohadagi yangi yo‘nalishlardan biri bo‘lib, mamlakatida asosan, islom diniga e’tiqod qiladigan sayohatchilarga qaratilgan bo‘lishiga

qaramay, ushbu yo‘nalishda taklif etilayotgan xizmatlarning mo‘o‘tadil narxlari, xavfsizligi, pokizaligi va oilaviy sayohat uchun qulayligi bois musulmon bo‘limgan sayohatchilar uchun ham jozibador hisoblanadi.

Viloyatda joylashgan Zangiota, Hazrati Ali, Shoabdumalik ota, Buzruk ota, Zarkent ota, Payg‘ambar ota, Shomirqori avliyo, Parpi ota, Shayx Umar Vali, Qadamjo, Buzruk ota, Ikrima ota, Ko‘l ota, Qirq qiz, Axtam sahoba kabi ziyoratgohlari mashhur bo‘lib, bu yerga nafaqat Respublika, balki qo‘shni Respublikalar hamda Rossiya, Turkiya, Indoneziya, Malayziya, Eron va Pokiston kabi davlatlardan ham ziyoratchilar tashrif buyurmoqda.

Xulosa qilib shuni qayd etish mumkinki, Toshkent viloyati nafaqat ziyorat, balki eko, sayohat, sport, gastronomik, etno, agro, ov va tibbiyot turizmini rivojlantirish bo‘yicha ulkan salohiyatga ega hudud hisoblanadi. Turizm bo‘yicha sayyohlar sonining o‘sishi aholini ish bilan ta’milanishi, valyuta tushumining ko‘payishi, YaIMning o‘sishi hamda mamlakatning eksport salohiyatini oshirishga xizmat qilib, valyuta kirimlari va tashqi savdo balansi barqarorligi ta’milanadi. Shu bilan birga, ziyoratchilardan tushgan mablag‘lar evaziga tabarruk qadamjo va ziyoratgohlarda rekonstrusiutsiya, obodonlashtirish, grantlar asosida ziyoratgoh tarixi hamda ziyorat marosimlarini o‘rganish va ziyoratgohlarni zamonaviy texnologiyalar bilan ta’minalash imkoniyati tug‘iladi.


Jumladan, ziyoratgohlar xavfsizligini ta’minalash maqsadida Ohangaron tumanidagi “Shoabdumalik ota”, Zangiotadagi “Zangiota” majmualari, Parkentdagagi “Zarkent ota” hamda Machitali bobo (Hazrati Ali), Piskentdagagi “Bo‘g‘zyon ota” ziyoratgohlarining diqqatga sazovor joylarida videokuzatuv moslamalari, shuningdek, ziyoratchilarga qulaylik yaratish maqsadida Ohangaron tumanidagi “Shoabdumalik ota”, Zangiotadagi “Zangiota” majmuasida ziyoratchilarga Wi-Fi nuqtalari o‘rnatilgan.

Toshkent vohasi nafaqat iqtisodiy va siyosiy mavqeining yuqoriligi, shu tuproqda tug‘ilib o‘sgan buyuk allomalariyu avliyolari, ziyoratgohlari bilan ham dunyoga mashhurdir. Buyuk Ipak yo‘lida nafaqat savdo sotiq, madaniy-ilmiy muloqat almashinuvi bilan bir qatorda ziyorat marosimlari ham amalga oshirilgan.



Jumladan, karvon bilan savdoga chiquvchilar uzoq safarga chiqishdan oldin hamda safardan qaytganlaridan so‘ng ziyoratgohlarga tashrif buyurgan.

28-rasm. Ziyoratgohdagi besh panja shaklidagi buloq suvlari.



29-rasm. Ziyoratgohdagi 800 yillik chinor daraxti.

Ana shunday savdo yo‘lida joylashgan ziyoratgohlardan biri Toshkent viloyati Bo‘stonliq tumani Chorvoq dengizining yuqori sharqiy sohilida joylashgan Burchmulla qishlog‘idagi “Obi-Rahmat” ziyoratgohidir. Mahalliy aholi orasida “Qadamjoy” nomi bilan ham mashhur. Buyuk ipak yo‘lining qadimgi tarmog‘ida joylashgan ziyoratgoh “Poltovsov” vodiysi, “Sargardon”, “Arab qishloq”, “Oqbuloq”, “Maydontol” ma’danchilar qishloqlaridan so‘ng Chotqol daryosi bo‘ylab, Nayza to‘qay orqali Urumchi va Xitoy davlatlariga boruvchi savdo yo‘lining boshlanishi bo‘lgani uchun, tijorat ishlarida birinchi qadam qo‘yiladigan muqaddas joy sifatida ulug‘lanib, “Qadam joy” nomini olgan. Ziyoratgohning vujudga kelishini Idris payg‘ambar nomi bilan bog‘laydilar.

Rivoyat qilishlaricha, Idris payg‘ambar ulkan chinor tagida dam olib, nomoz o‘qimoqchi bo‘libdi. Tahorat uchun suv topa olmagach, Allohga iltijo qilibdi. Shunda Allohdan nido kelibdi: ”Ey Idris, panjangni yerga botir”. Payg‘ambar besh panjasini yerga botirishi bilan beshta buloq paydo bo‘libdi. Hozirgi kunda ziyoratgohda 750–800 yillik ulkan chinor daraxti va besh panja shaklidagi buloqlar mavjud. Asosan, tijorat bilan shug‘ullanuvchilar, uzoq safarga yo‘l olayotgan yo‘lovchilar ziyoratgohga tashrif buyuradi. Buloq suvlari tarkibidagi ma’danlar oshqozon-ichak kasalliklarini da’volashda shifobaxsh suv hisoblanadi. Shu sabab bugungi kunga qadar ziyoratgohga dardlariga shifo izlab keluvchilar ko‘pchilikni tashkil etadi.

Balogardon ziyoratgohi

Ana shunday ziyoratgohlardan biri Bo‘stonliq tumani Sijjak qishlog‘ida joylashgan “Bahovuddin Balogardon” ziyoratgohi bo‘lib, ushbu ob’yekt asosan, tabiat kulti bilan bog‘liq qadamjo hisoblanadi. Shuni ta’kidlash kerakki, Toshkent viloyati ziyoratgoh va muqaddas qadamjolarining asosiy qismi Yassaviya ta’limoti bilan bog‘iq bo‘lib, mazkur ziyoratgoh ham Naqshbandiya ta’limoti asoschisi Bahouddin Naqshband nomi bilan uyg‘un holda izohlanadi. Mahalliy aholi qarashlariga ko‘ra, Bahouddin Balogardon (Naqshbandiy) Shayx Umar Vali Bog‘ustoniyning muqaddas qabrlarini ziyorat qilish maqsadida Bo‘stonliqqa

tashrif buyuradi. Aynan mana shu g'orda dam olib, chilla saqlagan ekan. Shu sababli bu yerdagi g'or va g'orda oqib turuvchi buloq suvlari muqaddas hisoblanadi. Mahalliy urf-odatlar va ziyorat marosimlariga ko'ra, mushkul tashvishga duchor bo'lganlar mana shu yerga kelib, is chiqarib, chin dildan niyat qilsa, barcha tilaklarga amalga oshar ekan. G'ordagi suv ham muqaddas hisoblanib, oshqozon-ichak va teri kasalliklariga shifo hisoblanadi. Shu sababli, bugungi kunga qadar Bahovuddin Balogardonni ziyorat qilib, dardiga malham topuvchilar hanuzgacha ziyoratga keladi.



30-rasm. Ziyoratgohdagi g'or.

Mazkur ziyoratgoh “Jarboshi avliyo” ham deb atalib, bunga sabab jarlik bo‘yida joylashgan bo‘lib, tabiatи va o‘simlik dunyosi bu yerga keluvchi ziyoratchilarga o‘zgacha ta’sir etadi. Ziyoratchilar asosan, apreldan boshlab, oktabr oylariga qadar keladi. Bu yerda ziyoratchilar uchun barcha sharoitlar yaratilgan.



31-rasm. Ziyoratgoh joylashgan hudud tabiatи.



32-rasm. Muqaddas qadamjoga tashrif buyurgan ziyoratchilar.

Shayx Umar Vali Bog‘ustoniy

Bo‘stonliqning Bog‘uston qishlog‘i o‘zining maftunkor tabiatini bilan ajralib turadi. Buyuk avliyolarning aynan mana shu zaminda yashaganlari ham beziz emas. Ana shunday pirlardan biri, avliyo Shayx Umar Valiy Bog‘istoniy 1230 yil Bo‘stonliq tumani Bog‘iston qishlog‘ida tavallud topgan va 1320 yil 90 yoshida vafot etgan. Shayx Umar Valiy Bog‘istoniy mashhur tariqat vakillaridan biri bo‘lgan. Uning o‘g‘li-dovrug‘i yetti iqlimga ketgan shayx Xovandi Tohur bo‘lib, u Shayx Umar Valining yagona farzandlari bo‘lgan. Evarasi-Naqshbandiya tariqatining peshvosi shayx Xo‘ja Ahror Vali XV asr Movarounnahr ma’naviy va siyosiy hayotida katta o‘rin tutgan.



33-rasm. Bog‘ustonning asriy daraxtlari.

Keksalarning aytishlaricha, Umar Valiy karomat va mo‘jizalar ko‘rsatgan. Biroq eng katta mo‘jiza u yaratgan bog‘lar hisoblanadi. Ziyoratgohga tashrif buyurganlar asrlar shohida bo‘lgan daraxtlarga duch keladi. Xalqano qarashlarga ko‘ra mazkur daraxtlar Shayx Umar Vali tomonidan ekilgan ekan.

Hozirgi kunda bu joylarni yanada ko‘rkamlashtirish, fayz bag‘ishlash choralari ko‘rilayapti. Shayx Umar Vale va uning turmush o‘rtog‘i, nevarasi


qabrlari tepasida sharqona uslubda maqbaralar bunyod etilib, uning tevarak-atrofini obodonlashtirish ishlari olib borilmoqda.

Maqbarada, yuzasiga yetti qator yozuv va “1189 yil” degan sana o‘yib yozilgan g‘aroyib uzunchoq qayroqtosh bo‘lib, aytishlaricha, toshga qo‘l tekkizib, chin dildan va ezgu niyat bilan iltijo qilinsa, odamning har qanday tilak-istagi amalga oshadi deb ixlos qilinadi.

Toshkent viloyati qadamjo va ziyoratgohlarida o‘tkazilgan marosimlardan yana biri bu – “avlodlar uchrashuvi” hisoblanadi. Shayx Umar Vali ziyoratgohida muntazam o‘tkazib kelinayotgan ushbu marosimning ziyoratgohda o‘tkazilishiga asosiy sabablardan biri, avvalo, shukronalik ramzi sifatida Allohga atab jonliq so‘yilgan. Vafot etgan tengdoshlar ruhiga Qur’on tilovat qilinib, oilasi holidan xabar olingan. Marosimga ustozlar taklif etilib, ularga hurmat-ehtirom ko‘rsatilgan. Mazkur marosim bevosita so‘nggi yillarda vujudga kelgan bo‘lib, ehson qilish maqsadida tashkil qilinganligi bois, aynan ziyoratgohda o‘tkaziladi.

Quyimozor tepa (Chinor buva)

Quyimozor tepa (Chinor buva)- ziyoratgohi Bo‘stonliq tumanida joylashgan bo‘lib, mahalliy aholi tomonidan “Chinor buva” deb ham ataladi. Chunki, “Qo‘yimozor” tepaligi tabiiy ofatlar, sel kelishi va ko‘chkilar natijasida yo‘q bo‘lib ketgan. Bu yerda uzoq tarixga ega ulkan ikki chinor daraxtlari ildizlari orasidan buloq chiqadi. Qishloq qariyalarining guvohlik berishiga qaraganda, chinorlar “Ko‘k to‘nlik ota” tomonidan ya’ni bundan 850 yil avval ekilgan. “Ko‘k to‘nlik ota”ning asli ismi Xo‘ja Fazliddin bo‘lib, shayx va tabib sifatida tanilgan. U doimo ko‘k to‘nda (chopon)da yurganliklari uchun mahalliy xalq uni “Ko‘k to‘nli ota” deb atashgan. Ziyoratgohdagi buloq va xovuz suvi qishda ham yozda ham bir xil haroratda bo‘lib, turli kasalliklarni davolovchi, shifobaxsh suv hisoblanadi. Shuningdek, mahalliy aholi tomonidan hovuz va buloqda yashaydigan baliqlar muqaddas hisoblanadi.



34-rasm.Qadimiy chinor daraxtlari.

Hozirgi kunda ziyoratgoh o‘rnida “Chinara” restarani joylashgan bo‘lib, tumanga tashrif buyuruvchi sayyohlarning sevimli maskaniga aylangan.



35-rasm.Chinara restorani.

Ikrima ota ziyoratgohi

“Avliyosoy Ikrima ota” ziyoratgohi - 1935-1940 yillarda sovetlar davrida boshqa muqaddas qadamjolar kabi buzib tashlangan. Istiqlol yillarida ya’ni 1995 yilda ziyoratgoh qaytadan ta’mirlanib qurilgan.

Avliyo Ikrima otaning qachon tug‘ilganligi haqida ma’lumotlar mavjud mavjud emas. Xalqona qarashlarga ko‘ra, Ikrima ota payg‘ambarimiz Muhammad (s.a. v.)ning avlodlaridan bo‘lgan. Ikrima ota Chimboyliq qishlog‘i aholisiga islom dini ta’limotidan saboq bergan. Shuningdek, u turli xil kasalliklarni qur’on o‘qib, dam solib davolab, dong taratgan.

Bo‘stonliq tumani Chimboyliq qishlog‘ida joylashgan Ikrima ota ziyoratgohi ham mardlik va jasorat ramzi sifatida ulug‘lanib, mahalliy aholi o‘g‘il farzandlarini ziyoratgohga olib kelib, Ikrima otaning mardonovor janglari to‘g‘risidagi rivoyatni so‘zlab beradi. Yosh avlodda vatanga muhabbat va mardlik tuyg‘ularini shakllantirishda mazkur ziyoratgoh muhim rol o‘ynaydi.



36-rasm. Ikrima ota ziyoratgohining umumiy ko‘rinishi.

5.4 EKOLOGIK TURIZM

Bugungi kunda ekoturizm butun dunyoda eng serdaromad sohalardan biriga aylandi. Ekspertlarning fikricha, ushbu tarmoqni yanada rivojlantirish nafaqat ijtimoiy-iqtisodiy masalalarni samarali hal etish, balki ekologik muammolarni bartaraf qilishda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Jahon sayyoqlik tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra, hozirda turizm sanoatida 210 milliondan ortiq ishchi xizmat qiladi va undan olinadigan daromad yiliga 770 milliard AQSh dollarini tashkil etadi.

Ta'kidlash joizki, O'zbekiston ham boy tabiiy resurslar, betakror o'simlik va hayvonot olamiga ega. Ushbu salohiyatni asrash va ko'paytirish maqsadida ko'plab milliy dastur hamda loyihibar hayotga tatbiq etilmoqda. Boisi, mamlakatimizda ekoturizmning rivojlanishi nafaqat tabiatni muhofaza qilish, ekoturistlarni ona tabiatimizga jalb etish, balki iqtisodiy sharoitni yaxshilash, aholini ish bilan ta'minlashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Ekoturizm va uning rivojlanishi nafaqat hududning ijtimoiy-iqtisodiy sharoitiga bog'liq bo'libgina qolmay, balki shu hududning tabiiy sharoiti, unda ekoturistik ob'yektlarning mavjudligi va ularning geografik o'rniغا ham bog'liqdir. Chunki tabiiy sharoit xususiyatlari hududning ekoturistik imkoniyatlari va uning qaysi turlarini rivojlantirish mumkinligini aniqlashga imkon beradi.



37-rasm. Ekosayyohlar.

O‘zbekistonga turistlarni jalg qiluvchi asosiy omil bu uning maftunkor tabiatidir, uning xilma-xilligidir. Sababi, O‘zbekiston iqlimi va ob-havosi yil davomida dam olish hamda ekoturizmni rivojlantirish uchun qulayligi bilan ajralib turadi. Jumladan, geografik o‘rni qulay, tabiiy sharoiti va ekoturistik imkoniyatlari xilma-xil bo‘lgan, sanoat rivojlangan hamda aholi zinch yashaydigan Toshkent viloyatida ekoturlarga talab yuqori. Chunonchi, viloyatning ekoturistik salohiyati yuqori bo‘lib, uni jadal sur’atlar bilan rivojlantirish uchun barcha imkoniyatlar mavjud. Misol uchun, Bo‘stonliq tumani o‘zining ekoturistik salohiyati bilan viloyatning boshqa tumanlaridan ajralib turadi. Eng muhimi, hududda turizmning ayniqsa, ekoturizmning barcha yo‘nalishlarini rivojlantirish imkoniyati mavjud.

Ekoturizm – bu hududning tabiiy va madaniy hamda etnografik xususiyatlari haqida tasavvurga ega bo‘lish uchun, ekotizimlar yaxlitligini buzmaydigan hamda shunday iqtisodiy sharoitlarni yaratadigan, tabiatni inson oyog‘i nisbatan tegmagan joylarga sayohatni o‘z ichiga olgan turizmdir, bunda tabiat va tabiiy resurslarni muhofaza qilish mahalliy aholi uchun foydali bo‘ladi.

Ekoturizm yoki “yashil” turizm mas’uliyatli yoki barqaror turizm sifatida tasniflanadi. “Yashil” turizmning maqsadi tashrif buyurilgan joylarni himoya qilish va mahalliy aholining hayotini qo‘llab-quvvatlashga yordam beradigan turizm xizmatlaridan foydalangan holda yovvoyi tabiat va madaniy qadriyatlarni saqlashga yordam berishdir.

Ekoturizmning belgilari va ta’riflarini umumlashtirib, ekoturizmning uchta asosiy komponentini ajratib ko‘rsatishimiz mumkin:

“Tabiatni bilish”, ya’ni tabiatni o‘rganish bilan bog‘liq sayohat, turistlar tomonidan yangi ko‘nikma va bilimlarni olish kabi elementlarini o‘z ichiga oladi.

Ekotizimlarni saqlash nafaqat sayyoohlarning marshrutdagи to‘g‘ri xattiharakati, balki turistlar va turoperatorlarning atrof-muhitni muhofaza qilish dasturlari hamda adbirlarida ishtirok etishini ham nazarda tutadi.

Mahalliy aholi manfaatlarini hurmat qilish nafaqat mahalliy qonunlar va urfatatlarga rioya qilish, balki turizm yo‘nalishlarning ijtimoiy-iqtisodiy

rivojlanishiga qo'shgan hissasini ham anglatadi. Ushbu komponentlardan kamida bittasi bo'limasa, ekoturizm haqida gapirishga asos yo'q.

Yuqoridagilarni umumlashtirgan holda, ekoturizmga quyidagicha ta'rif berish mumkin: ekoturizm – tabiatni asrash va mahalliy aholi manfaatlari ko'zlagan holda ekologik tizimlarni saqlash bilan bog'liq bo'lgan turistik ehtiyoj va talabga asoslangan turistik faoliyatning maxsus turidir³¹.

Hozirda ekoturizmning bir nechta turlarining rivojlanib borayotganligini ko'rishimiz mumkin. Xususan, ekoturizmning eng rivojlangan turlaridan biri bu **agroturizm** bo'lib, har bir shaxs tabiat qo'yniga sayyohat qilishi bilan birgalikda hududning qishloq xo'jaligi, dehqon va fermer xo'jaliklari faoliyati bilan tanishish, ularning an'anaviy qishloq mehnati, qishloq xalqi madaniyati, urf-odatlari, milliy qadriyatlari, amaliy san'ati, milliy qo'shiq va raqslari, mahalliy an'anaviy bayramlari haqida ma'lum darajada bilimga ega bo'ladilar hamda yuqoridagi holatlarga amalda ishtirok etishni anglatadi.

Shuningdek, ekoturizmning bir necha turlarini keltirish mumkin:

1. Ilmiy turizm. Ilmiy ekoturlar davomida sayyohlar har xil turdag'i tabiat tadqiqotlarida qatnashish, dala kuzatuvlari olib borish imkoniga ega bo'ladilar.

2. Tabiat tarixiga sayohatlar. Bu sayohatlar asnosida atrofdagi tabiat va mahalliy madaniyatni bilish. Bunday ekskursiyalar o'quv, ilmiy-ommabop va tematik ekskursiyalarning almashinushi bo'lib, maxsus jihozlangan ekologik yo'llar orqali birgalikda davom etadilar.

3. Sarguzasht turizmi. Ushbu ko'rinish harakatning faol usullari bilan bog'liq holda sayohat va yangi narsalarni olish maqsadida ochiq havoda dam olish, taassurotlar hissi, turistning jismoniy shaklini yaxshilash va sport natijalariga erishish kabi jihatlarni birlashtiradi.

³¹ Дьяченко О. Н., Полесская О. П. Организация специальных видов туризма.... – С. 30.

4. Qo‘riqxonalarga, alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlarga sayohat. Bunda yuqori jozibadorlik qo‘riqlanadigan hududlarda joylashgan noyob va ekzotik tabiiy obyektlar va hodisalar ko‘plab sayyoohlarni o‘ziga jalb qiladi³².

Masalan, Lotin Amerikasiga kelayotgan sayyoohlarning 60 foizi milliy bog‘lar, qo‘riqxonalar va ularga borishni maqsad qilgan. Ushbu turdagি ekoturizm eng ko‘p Avstraliyada rivojlangan, shuning uchun uni ko‘pincha “Ekoturizmni rivojlantirishning Avstraliya modeli” deb ataydilar.

Ekoturizm – ekologik ta’lim va ma’rifat dasturlarini o‘z ichiga olgan va ekologik barqarorlik tamoyillariga muvofiq amalga oshiriladigan tabiatga yo‘naltirilgan turizmdir. Ekologik turizm – mahalliy madaniyat va ekotizimning yaxlitligini buzmaydigan tabiiy muhitni yaxshiroq tushunish maqsadida tabiiy hududlarga maqsadli sayohat, tabiiy resurslarni himoya qilish esa mahalliy aholi uchun foydalidir.

Shunday qilib, ekoturizmning o‘ziga xos xususiyatlari tabiat bilan muloqot qilish istagini rag‘batlantiradi va qondiradi, tabiat va madaniyatga salbiy ta’sir ko‘rsatadi va turoperatorlarni va sayyoohlarni tabiatni muhofaza qilish va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni rag‘batlantirishga undaydi.

Ekoturizm barqaror va tabiatga yo‘naltirilgan turizm va dam olishdir. Turizmda barqarorlik turizmning ekologik, ijtimoiy-madaniy hamda iqtisodiy ta’sirlarining ijobiy umumiy muvozanati, shuningdek, tashrif buyuruvchilarning bir-biriga ijobiy ta’sirini nazarda tutadi. Shunday qilib, ekologiya, iqtisodiyot va ijtimoiy rivojlanish nuqtai nazaridan eng yuqori umumiy ijobiy ta’sirga ega bo‘lgan sayyoohlilik faoliyati yanada barqarordir.

Shu o‘rinda qayd etish kerakki, bugun ekologik inqirozning sayyoraviy tus olishi insoniyatni tashvishga solmoqda. Ekologik muammolarning dunyo miqyosida haddan tashqari og‘irlashib ketayotgani zamirida tabiatning o‘zini-o‘zi tiklash kuchi pasayayotgani, uning resurslari kamaygani, atrof-muhit ifloslanib, zaharlanib borayotgani yotadi. Bu borada aholining ekologik madaniyatini

³² Храбовченко В. В. Определение и видовой состав экотуризма: мировой опыт и российская специфика // Туризм, экология и устойчивое развитие регионов / Материалы международной научно-практической конференции. – Тверь: ТвГУ, 2003. – С. 343–345.

yuksaltirish, atrof-muhitga oqilona munosabatda bo‘lish, tabiat ne’matlarini kelgusi avlodlar uchun asrab-avaylash o‘ta muhimdir. Zero, ekologik ta’limtarbiya tabiat va jamiyat o‘rtasidagi uzviylikni ta’minlash hamda tabiiy barqarorlikni saqlashda muhim ahamiyatga egadir.

Tabiiy resurslarning tobora kamayib borayotganligi, atrof-muhit muhofazasining sayyoraviy chegaralarda tobora keskin holatlarni keltirib chiqarayotganligi, tabiiy inqirozlarning oldini olish, tabiatni kelgusi avlodlar uchun muhofaza qilishda ekologik turizmni rivojlantirish xalqaro miqyosda tan olingan najot yo‘llaridan andoza olish, tajribalardan oqilona foydalanish muhimdir.

O‘zbekistonda ekoturizmning rivojlanishi nafaqat ma’naviyatimiz, ilm-fan, madaniyat, ma’rifat, tabiatni muhofaza qilish, ekoturistlarni jalb qilish, biologik xilma-xillikni saqlash muammolarini hal qilish, balki shu bilan birga, iqtisodiy masalalarni, mahalliy ijtimoiy-iqtisodiy sharoitini yaxshilash, aholini yangi ish joylari bilan ta’minlash, mamlakatimiz iqtisodiyotining o‘sishiga katta hissa qo‘shadi.

Mamlakatimiz ekoturizm resurslariga boy davlatlar katorida turadi va Markaziy Osiyo mintaqasi dunyo mamlakatlarining o‘zaro aloqalarini geografik jihatdan bog‘lovchi davlatdir. Shu sababli ichki va xalqaro turistik oqim va ekoturistik oqim ham bizda kuchayishining juda katta imkoniyatlari hamda salohiyatlari bor.

O‘zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish Davlat Qo‘mitasi mutaxassislari O‘zbekistonning ekoturistik rayonlari haritasini ishlab chiqishgan. Haritaga muvofiq, butun mamlakatimiz hududi 14 ekoturistik rayonga ajratilgan. Har bir ekoturistik tumanga ekoturistik zona deb ham qarash mumkin. Ular jumlasiga Ustyurt, Orol va Orolbo‘yi, Amudaryo, Qizilqum, Nurota, Zarafshon, Aydarkul, Sirdaryo, Chirchiq, Ohangaron, Farg‘ona, Turkiston, Qashkadaryo, Hisor, Surxondaryo ekoturistik rayonlari kiritilgan. Har bir rayon o‘zining ekoturistik holati, imkoniyatlari, shart-sharoitlari va rivojlanish istiqbollari nuqtai nazaridan ajralib turadi.

Chirchiq-Ohangaron tog‘li ekoturistik rayonida xalqaro ekologik rezervat joylashgani uchun ham uning huquqiy maqomi tabiatga aralashmaslik prinsipiga moslashtirilishi zarur. Undagi ekoturistik sayohatda vertolyot va samolyotlardan foydalanishga ruxsat berilmaydi. Ekoturlar oldindan belgilab berilgan kichik yo‘lakchalar orqali, kam sonli turistik guruhchalarga bo‘lingan tarzda, yilning hayvonot olamida uchramaydigan va ko‘paymaydigan davrlarida piyoda va otlarda aylanish maqsadga muvofiqdir. Mazkur ekoturistik marshrutlarda mahalliy aholining xizmatidan atroflicha foydalanish ularni noekologik yo‘naltirilgan turmush tarzini ijobiy tomonlarga o‘zgartiradi.

Yuqoridagi ma’lumotlardan xulosa qilish mumkinki, O‘zbekistonda ekoturizmni rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yetarli va imkoniyatlar katta. Ekologik turlarni yilning barcha fasllarida o‘tkazish va uni tarixiy, diniy turizm bilan uyg‘unlashgan holda olib borish mumkin.

Toshkent viloyati Xumson-Oqtosh zonasining ekoturistik salohiyati katta va turmahsulot xizmatlarining narxi uncha baland emasligi boshqa xududlar bilan farqlidir. Xumsonga qilinadigan tashriflarning o‘rtacha soni har mavsumda 10 ming kishiga yetadi, Xumsonning Oqtosh zonasiga bir kunlik tashriflarni ham qo‘sib hisoblaganda kamida 120 ming kishiga yetishi mumkin.

Xumson xalqaro turizm yo‘nalishlariga kam kiritilgan. Chet el sayohatchilari bu yerlarga faqat Toshkentga qilgan tashriflari doirasida kelishadi (ularning ulushi atigi 2% ni tashkil qiladi, bo‘lish muddatlari 2 kungacha). Ushbu holat xalqaro miqiyosda reklama ishlari hali to‘liq yo‘lga qo‘yilmaganligini anglatadi. Shu bilan birga, Xumson-Oqtosh turistik zonasiga qiziqish bildiradigan mahalliy turoperatorlar mavjud. Masalan, Asia rast, Ecosan tour, Elena tour, AST, Ark- Osiyo, Otpusk.uz, Asia raft, Advantour, Go fly.uz kabi firmalari shular jumlasidadir. Xumson-Oqtosh zonasi bo‘yicha tavsiya qilinadigan turistik mahsulot yo‘nalishlari:

- ✓ tog‘da otda yurish marshrutlari;
- ✓ tog‘da piyoda yurish marshrutlari;
- ✓ folklor va gastronomiya;

- ✓ tabiat qo‘ynida hordiq chiqarish, joylarga ekologik turlar uyushtirish;
- ✓ baliq ovi, dorivor o‘simliklar yig‘ish.

Yuqorida ko‘rsatilgan marshrutlar o‘tkazish uchun eng qulay vaqtlar:

- ✓ trekkinglar - aprel-iyun oxiri va sentyabr-oktyabr o‘rtalari;
- ✓ tog‘larga chiqish-may-sentyabr;
- ✓ suvda sayr qilish - may-iyul;
- ✓ otta sayr qilish iyun-iyul va sentyabr-oktyabr;
- ✓ biznes va sayr qilish-may-oktyabr;
- ✓ paraglayding va deltaplenerlik-may-oktyabr;
- ✓ tog‘ chang‘isi va taxtalari (snoubording)-yanvar-mart oxiri.

Shu bilan birga, Bo‘stonliq tumanida ekologik turizmni rivojlantirish uchun Chotqol biosfera qo‘riqxonasi hamda Ugom-Chotqol davlat milliy tabiat bog‘i (Toshkent viloyati, O‘rmon xo‘jaligi davlat qo‘mitasi tasarrufida) mavjud. Quyida ushbu tabiiy oyektlarga to‘xtalamiz.

Chotqol biosfera qo‘riqxonasi – Toshkent viloyatining Parkent tumani tog‘li hududida, Chotqol tog‘ tizmalarining janubig‘arbida joylashgan. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1990-yil 21-iyundagi qarori bilan Chotqol qo‘riqxonasi (1947) negizida Ugom Chotqol davlat tabiat milliy bog‘i tashkil etilishi munosabati bilan uning janubiy qismida alohida qo‘riqlanadigan hudud tarzida ajratilgan.

Toshkent viloyati tabiatini muhofaza qilish boshqarmasiga qaraydi. G‘arbiy Tyanshanning ulkan va noyob o‘simliklari, hayvonot va qushlarini o‘rganish, saqlab qolish va ko‘paytirish maqsadlarida ish olib boradi. Umumiy maydoni 9900 gani tashkil etadi. Qo‘riqxona hududi sharqda deyarli Namangan viloyati, janubiy g‘arbda Ohangaron tumani tog‘li hududlariga yaqin boradi. Relyefi har xil balandliklar (1100–4000 m), qoyali cho‘qqilar va tik qiyaliklar bilan tavsiflanadi. 1000–1500 m balandlikda lyossimon tuproqlar, undan yuqorida tog‘ o‘rmon va o‘tloqi tuproqlarning turli shakllari rivojlangan. Iqlimi kontinental, yanvar oyining o‘rtacha harorati – 7°, iyul oyiniki 23–25°, yillik yog‘in miqdori 700–800 mm.

Qo‘riqxona hududidagi asosiy suv havzalari Boshqizilsoy, Shovvasoy va ularning irmoklari. Qo‘riqxonada o‘simliklarning 1300 ga yaqin turi, shu jumladan, dorivor o‘simliklardan jenshen, tog‘ yon bag‘irlarida 40 dan ortiq daraxt va buta turlari o‘sadi.

Asosiy daraxtlari tol, terak, qora archa, savur archa, yong‘oq, pista, qayin, zirk, chetan, do‘lana, yovvoyi olma, tog‘olchalardan iborat. Hayvonot dunyosida 30 dan ortiq sut emizuvchilar turi, shu jumladan, tog‘ qoploni, qo‘ng‘ir ayiq, tog‘ echkisi, yelik, tulki, bo‘rsiq, qobon (yovvoyi cho‘chqa), shuningdek qushlarning 140 dan ortiq turi - bedana, qirg‘iy, qora laylak, kaklik, qumri va boshqalar uchraydi.

G‘arbiy Tyanshan uchun noyob bo‘lgan o‘simliklarning 33ta, hayvonlarning 3ta, qushlarning 4 turi Xalqaro va O‘zbekiston Qizil kitobiga kiritilgan. Qo‘riqxona Maydontol uchastkasining baland tog‘ qoyalarida tog‘ echkisi va kiyiklar tasviri tushirilgan Teraklisoy petrogliflari 1965-yilda topilgan.

O‘zbekiston hududida YuNESKOning Butunjahon merosi Ro‘yxatiga kiritilgan noyob milliy bog‘ Ugam-Chotqol milliy bog‘idir. Ushbu sayyoramizning haqiqiy mo‘jizasi bo‘lgan bog‘, o‘zining toza tabiat, ajoyib tabiiy diqqatga sazovor joylari va tarixiy obidalari bilan har qanday kishini zavqlantiradi.

Ugom-Chotqol milliy bog‘i, 1990-yilda Toshkent viloyati hududida tashkil etilgan bo‘lib Bo‘stonliq, Parkent va Ohangaron tumanlarini o‘z ichiga oladi. Bog‘ning maydoni 574 ming getktarni tashkil etadi.

2016-yilda YuNESKO ushbu bog‘ni tarkibiga muhtasham Chotqol tog‘lari ham kiradigan Butunjahon merosi ro‘yxatiga kiritilganligini e’lon qildi.

Bog‘ landshafti, asosan G‘arbiy Tyan-Shan tog‘ tizmalaridan tashkil topadi. Muhtasham tog‘lar, ko‘plab daralar va jarlarni shakllantiradi ularning orasidan esa, Pskom, Chotqol, Ugam va Ko‘ksuv kabi tog‘ daryolari oqib o‘tadi.

Eng baland Adelunga cho‘qqisi – Pskom tog‘ tizmasiga tegishli bo‘lib uning shimoliy-sharqiy qismida, dengiz sathidan 4301 m. balandlikda joylashgan. Qarama-qarshi tomonda esa, dengiz sathidan 4299 m. balandlikda joylashgan yana bir cho‘qqi – Beshtor joylashgan. Ular birgalikda faqat eng tajribali alpinistlarga ko‘tarila oladigan ikkita buyuk tog‘ni hosil qiladi.

Milliy bog‘ hududida, alohida muhofaza qilinadigan tabiiy obyekt sifatida qo‘riqlanadigan hudud mavjud. Ushbu bog‘ o‘zining noyob tabiiy landshafti tufayli o‘simplik va hayvonot dunyosi, chiroli sharshara hamda ko‘llari, toshloq yerlar va manzarali vodiylardan o‘tuvchi sayyohlik so‘qmoqlariga juda boy.

Bog‘da ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilib, o‘simplik va hayvonot dunyosining holati ustidan qat’iy nazorat olib boriladi. Har yili Chotqol biosfera qo‘riqxonasining xodimlari, ilmiy ekspeditsiyalar va konferensiylar o‘tkazadi, shuningdek o‘rmon xo‘jaligi va tabiiy resurslarni saqlash borasida ham nazorat olib boradi. Maxsus inspektorlar o‘simplik va hayvonlar, shu jumladan Qizil kitobga kiritilgan va yo‘qolib borayotgan turlarning sonini nazorat qilib boradi.

Bog‘da biosferik tabiiy ekotizimlar majmuasi va genofond, alohida muhofaza qilinadigan hududlar joylashgan. Unda yashovchi hayonlar orasida qor barsi, menzbir yumronqozig‘i, Tyan-Shan qo‘ng‘ir ayig‘i, qora laylak va boshqa ko‘plab noyob hayvonlar bor. Tog‘ daryolari bo‘ylari va daralarning yon bag‘irlarida zinch o‘rmon o‘simpliklari va archazorlarni ko‘rish mumkin.

Tog‘ etaklarida yovvoyi chakalakzorlar bilan birga ekilgan mevali bog‘lar ham uchraydi. Do‘lana, zarang, bodom, olcha daraxtlari ko‘pincha butali o‘simpliklar – zirk, na’matak, uchqat va boshqalar bilan aralashib ketadi. Shuningdek tog‘ etaklari, masalan G‘arbiy Tyan-Shan tog‘laridagi Oqsoqota tog‘larida yovvoyi olmazorlar va qayinzorlar ham uchraydi.

Bundan tashqari, bog‘ hududida arxeologik yodgorliklar ham mavjud. Masalan, Qorasov tog‘ida qoyalarga chizilgan qadimi rasmlarini ko‘rish mumkin. Poltov, Obiraxmat, Xojikent, Qulbuloq, Po‘latxon kabi ibtidoiy odamlar yashagan manzillar ham topilgan. Xarobalarda, qadimi mehnat qurollari, idishlar, marosimli dafn joylari topilgan. Bunday yodgorliklar hatto 40 ming yil oldin ham odamlar ushbu manzarali joylarda serhosil yaylovlar va buloq suvlaridan foydalanim yashashganliklarini ko‘rsatadi.

Har yili milliy bog‘ga butun dunyodan ko‘plab dam oluvchi va sayyohlar tashrif buyurishadi. Chimyon, Bildirsoy, Xojikent va Parkent tog‘ etaklari, yilning istalgan davrida ham dam oluvchilar orasida juda mashhur. Bu joylarga tashrif

buyurish uchun sizga maxsus ruxsatnoma shart emas. Yozda bu joylar o‘zining yam-yashil o‘simliklari, archa chakalakzorlari bilan, qishda esa sizni qishki ertak muhitiga sho‘ng‘ituvchi qorli tepaliklari bilan o‘ziga maftun etadi. Ko‘p sonli dam olish maskanlari, mehmonxonalar, sanatoriyalar, bolalar oromgohlari, shuningdek, turli xil dam olish maskanlari parkning eng chiroyli joylari, ya’ni Chorvoq suv omborining atrofi bo‘ylab, Kichik va Katta Chimyon tog‘ etaklari, Bildirsoy tog‘ yonbag‘irlarida joylashgan. Bo‘stonliq tumanining “Chimyon”, “Amirsoy”, “Bildirsoy” tog‘-chang‘i kurortlari, “Xumson”, “Tibet”, “Chortoq” sanatoriya va shifobaxsh kurortlari, shuningdek, boshqa ko‘plab sayyohlik ob’yektlari barcha sayyoohlarni, ularning yoshidan qat’iy nazar Ugam-Chotqol milliy bog‘ining shifobaxsh tabiat kengliklarida sog‘liklarini tiklash va mustahkamlash uchun qabul qilishga tayyor.

Xulosa qilib aytganda, Toshkent viloyati Bo‘stonliq tumanida turistik resurslardan samarali foydalanish, ko‘rsatilayotgan xizmat turlarini ko‘paytirish va sifatini zamon talablariga moslashtirish borasida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Bularning barchasi viloyatga tashrif buyuruvchi sayyoohlар sonining ortishi hamda sayyoohlар ko‘p keladigan sevimli maskanga aylantirishga xizmat qiladi.

5.5 TURIZMNING FAOL TURLARI (TREKKING, RAFTING, ALPINIZM)

Dunyoda faol turizm juda ommalashgan bo‘lib, u “Adventure Travel” nomi bilan mashhurdir. Katta jismoniy kuch talab qilinadigan va hamma turistlar qatlamiga ham to‘g‘ri kelmaydigan turizmnинг *faol (aktiv)* turlari – dam olish, sayyohat qilish, vaqtни faol harakatda o‘tkazish, sport turlari bilan shug‘ullanish kabilar kiradi. Shu bilan birga, faol turizmnинг yana bir yo‘nalishi – bu *ekstremal (sarguzashtli) turizmdir*.

Sarguzashtli turizm deganda ekzotik joylar, vulqonlar, zilzilalar, orollar, sharsharalar va shu kabi joylarga sayyohatni tashkil etish tushuniladi. Odatda, ushbu turizm yo‘nalishida ekzotik va ekologik jihatdan toza tabiiy rezervatsiyalarga

noananaviy transport vositalaridan foydalangan holda tashrif buyuriladi hamda sayohatchidan jiddiy jismoniy zo‘riqish, dovyuraklik va jismoniy tayyorgarlikni talab qiladi.

Ushbu turdag'i faol transport usullari va ochiq havoda dam olish bilan bog‘liq barcha sayohatlarni birlashtiradi. Bu xildagi turizm sport turizmiga yaqin hisoblanib, bunda yo‘riqchi-yo‘l boshlovchi xizmatlaridan foydalanib, turist uchun minimum darajadagi xavf ta’minlashi zarur hamda turistlar maxsus asboblarga ega bo‘lishlari zarur.

Sarguzasht turizmiga yana tabiat qo`yniga uyushtirilgan safari, ov, baliq ovlash, qishda motochanalarda uchish yoki yurish qiyin bo`lgan joylarga jiplarda sayr qilish ham kiradi.

Maxsus turlarga turli xil sarguzasht turizmi kiradi, xususan, butun dunyoda, shu jumladan mamlakatimizda ham jadal rivojlanayotgan turizm yo‘nalishi hisoblanadi.

Sarguzasht turizmi ikki turga bo‘linadi: sport sarguzasht va sayohat sarguzashti Sarguzashtli sport turlariga ekstremal daryo raftingi (rafting), tog‘larga chiqish (trekking) g‘orlarga sayohat (speleologik) va chang‘i uchishlar kiradi. Sport dasturlari shuningdek, deltaplanda va paraplanda uchish, qayqlarda suzish va boshqalarni o‘z ichiga oladi.

JTT (Jahon turizm tashkiloti) ma’lumotlariga ko‘ra, turizm har yili 2–4% oshsa, sarguzasht turizmi esa 10–15% ga o‘sadi.

Ekstremal turizm turizmnинг eng xavfli turlaridan biri bo‘lib, uning maqsadi xavfni his qilishdir. Ekstremal turizmdagi barcha xavf turlarini hodisaning tabiatini va xavfli vaziyat yuzaga kelishida turistlarning roliga ko‘ra tasniflash mumkin.

Shuningdek, faol turizmnинг bu turiga quyidagilar ham kiradi: alpinizm, qoyaga ko‘tarilish, muzga chiqish, g‘or, tog‘ va piyoda sayyohlik, suv, chang‘i, chang‘i turizmi, ot minish, sho‘ng‘in, paraplanda uchish. Ushbu turizm turlarining ko‘pchiligi yaqinda paydo bo‘lgan va ekstremal turizm kabi turizmnинг maxsus turiga kiradi.

O‘zbekiston o‘zining keng va rang-barang landshaftlari tufayli ekstremal sport turlari uchun ko‘plab imkoniyatlarni taqdim etadi, garchi ushbu sport turlari mamlakatda hali yangi bo‘lsa-da. Bularga quyidagilar kiradi:

- ekstremal chang‘i va snoubord;
- mototsikl poygasi, ralli, motokross;
- skeytbord, tog‘ velosipedi, qoyaga ko‘tarilish, kanyon va paraplanda uchish.



38-rasm.Turizmning faol turlari.

Bo'stonliq tumaning keng tog'li hududlari ayniqsa jozibalidir. O'zbekistonda tog' turizmi keng qamrovli yo'nalish bo'lmasada, ammo faol rivojlanayotgan sohadir. Bular go'zal tog' landshaftlari bo'y lab sayr qilish, toqqa chiqish, tog' g'orlariga sayohat qilish, paraplanda uchish va h.k.

Tog' tizmalar paraplanda uchun eng yaxshi joy hisoblanib, yilning deyarli istalgan vaqtida paraplanda uchis mumkin, yilning eng mashhur vaqt – yoz hisoblanadi.

Paraplanda uchish uchun eng mashhur joy Chorvoq suv ombori yaqinida joylashgan. Parvozni professional o'qituvchi bilan ham, maxsus tayyorgarlik bilan ham amalga oshirish mumkin.

O'zbekiston dengiz yoki okeanga chiqish imkoniga ega bo'limgan kam sonli davlatlardan biri, ammo suv turizmi uchun juda ko'plab daryolar, ko'llar mavjud/ Shular jumlasidan G'arbiy Tyan-Shan etaklarida joylashgan chuqr Chorvoq suv omboridir. Ekstremal dam oluvchilar uchun ko'plab turoperatorlar Chotqol, Pskom, Ugom, Sirdaryo va boshqa ko'plab daryolar bo'y lab rafting sayohatlarini taklif qiladi.




39-rasm.Turizmnning faol turlari.



40-rasm. Turizmning faol turlari

Shuni takidlsh joizki, keng tog‘li hududlarimiz alpinizm, qoyaga ko‘tarilish va muzga chiqish uchun mo‘ljallangan. Alpinizm, qoyaga ko‘tarilish va muzga chiqishning asosiy yo‘nalishlari asosan, G‘arbiy Tyan-Shan hududlarida joylashgan Maydontol, Pskom va Chotqol tizmalari hisoblanadi. Bu yerlarda har yili alpinizm va qoyaga ko‘tarilish bo‘yicha O‘zbekiston ochiq musobaqlari o‘tkaziladi.

Alpinizm (Alp tog‘i nomidan) – sport turi, turli murakkab to‘sislardan o‘tib tog‘ cho‘qqilariga ko‘tarilish. Alpinizm uch sinfdan – traverslar (dovon oshish, tog‘ tizmalari va etaklaridan o‘tish), murakkab chiqish (tik tog‘larga chiqish) hamda baland tog‘larga ko‘tarilishdan iborat. Alpinizm sport turi bo‘libgina qolmay, kam o‘rganilgan tog‘larni ilmiy tadqiq etishga ham xizmat qiladi.




41-rasm. Turizmning faol turlari.

5.6 QISHLOQ TURIZMI (ETNOGRAFIK TURIZM, AGROTURIZM)

Qishloq turizmini tashkil etishda shuni hisobga olish kerakki, u qishloqlarning ko‘plab ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini hal etish, qishloq aholisining raqobatbardoshligi va farovonligi darajasini oshirish, qishloq iqtisodiyoti hamda hayotini diversifikasiya qilish, qishloq xo‘jaligini rivojlantirishga xizmat qiladi. Mahalliy sanoat, hunarmandchilik va iqtisodiy faoliyatning boshqa sohalarini rivojlantirish orqali qishloq aholisining madaniy merosi, shuningdek qishloq joylarda faoliyatni diversifikasiya qiladi.

Qishloq turizmining rivojlanishi atrof-muhitni boshqarish modellarining o‘zgarishi bilan bog‘liq – bu tabiat va madaniyatni muhofaza qilishga, hududlarning ijtimoiy, iqtisodiy va barqaror rivojlanishiga yordam beradi.

Qishloq turizmi – qishloq aholisi tomonidan o‘z uylari negizida tashkil etilgan mehmon uylari va shaxsiy tomorqa, shuningdek, dehqonchilik uchun ajratilgan yer uchastkasida dam olish tushuniladi. Turistlarga yotoq, oziq-ovqat va qishloqning diqqatga sazovor joylari bilan tanishtirishni ta’minlovchi – qishloq oilasidir. Qishloq turizmi qishloqda amalga oshiriladigan turizmning boshqa turlari, birinchi navbatda rekreatsion, madaniy-ma’rifiy, etnik (etnoturizm), shuningdek, turizmning ixtisoslashgan turlari – chang‘i, ovchilik, baliqchilik, ekologik va hokazolar bilan chambarchas bog‘liqdir. Bularning barchasi qishloq turizmini qo‘shma turlarga kiritish imkonini beradi, bu esa shunga mos ravishda an’anaviy turistik mahsulotga bo‘lgan talabni oshiradi (40-rasm).



42-rasm.Turizm turlari.

Shunday qilib, amalda qishloq turizmi turizmning alohida turlarining sintezi vazifasini bajaradi: uning chorak qismi etnoturizmdan iborat bo‘lib, uning maqsadi mahalliy aholining madaniyati, me’morchiligi, turmushi va an’analari bilan tanishish uchun qishloq joylarga tashrif buyurishdir; 35% ekoturizm hissasiga to‘g‘ri keladi – antropogen ta’sirga uchramaydigan tabiiy landshaftlarga sayohat qilishga yo‘naltirilgan barqaror turizm shakli; 15% agroturizm deb ataladigan bo‘lib, u madaniy-ma’rifiy turizmni, tarixiy, madaniy, geografik diqqatga sazovor joylarga tashrifni ham o‘z ichiga oladi; nihoyat, oxirgi chorak qismi asosan faol sayohat turlariga yo‘naltirilgan faol turizm hisobiga to‘g‘ri keladi.

Biz, yana qishloq turizmining aynan o‘ziga qaytadigan bo‘lsak, qishloq turizmi qishloqlarning tabiiy, tarixiy va boshqa resurslaridan foydalanishga asoslangan turli xil turizm turlarini birlashtiradi. AQSh va G‘arbiy Yevropada qishloq turizmi so‘nggi yigirma yil maboynda mustaqil yuqori daromadli sanoatga aylandi. BTT tahlillariga ko‘ra, qishloq turizmi 2020-yilgacha jahonda turizmni rivojlantirishning asosiy strategik yo‘nalishlaridan biridir. Har yilda 700 millionga yaqin sayyoh dunyo bo‘ylab sayohat qiladi. Turli ma’lumotlarga ko‘ra, sayohatchilarining 12% dan 30% gacha qishloq turizmini afzal ko‘radi.

Qishloq turizmi mahalliy iqtisodiyotga ta’siri katta, yani mahalliy aholining mahsulot va xizmatlariga talab hamda qishloq aholisi uchun qo‘sishimcha daromad topish imkoniyatlarini yaratadi.

Qishloq turizmi Yevropada 1970-yillardan boshlab paydo bo‘lgan. Qishloq turizmining jadal rivojlanishiga quyidagi muammolar sabab bo‘lgan:

- ✓ ishsizlikning yuqoriligi;
- ✓ qishlokdagagi ishchi kuchlarining shaharlarga ko‘chishi,
- ✓ agrobizneslarni birlashtirish,
- ✓ qishloqlardagi aholining daromadini oshirish va boshqalar.

Qishloq turizmining yana bir afzalligi qishloq joylarida dam olishning boshqa turizm turlariga qaraganda arzonligi hisoblanadi. O‘rta daromadli fuqarolar tabiat qo‘ynida dam olishi, dehqon oilasi hayoti bilan yaqindan tanishishi, yangi

sabzavot va mevalar, go'sht va sut mahsulotlarini tatib ko'rish bilan birga qishloq xo'jaligi ishlarida bevosita ishtirok etishadi. Shunindek, bolalar uy hayvonlarini boqishi va ularni urganishi, mevalarni yigishni yaxshi kuradilar.

Qishloq turizmi, eng avvalo, qishloq hayotiga osoyishtalik va muntazamlik, toza havo, sukunat va tabiiy mahsulotlar, qulay yashash sharoiti, xonodon muhiti, arzon narxlar, tabiatga yaqinlik tuyg'usi, yangi taassurotlar olish, mahalliy an'analar bilantanishish, bolalar uchun ko'ngilochar o'yinlar va kattalar uchun dam olish imkoniyatlaridir.

Keyingi yillarda butun dunyoda, jumladan, O'zbekistonda qishloq turizmi tobora ommalashib bormoqda va bu tendentsiya ham xorijiy, ham mahalliy sayyoohlarga nisbatan kuzatilmoxda. Betakror tabiat, o'ziga xos madaniyat va mahalliy jozibadorlik, qishloq ritmida faol dam olish, tabiiy oziq-ovqat, "haqiqiy" hayot bilan tanishish hamda ma'naviy qoniqish, oilaviy dam olish uchun joy – bularning barchasi shahar aholisini qishloqqa e'tibor berishga undaydigan asosiy sabablardir..

O'z navbatida, turizmning ushbu turiga talab ortib borayotganligi sababli Respublika hukumati bunga katta e'tibor qaratdi. Chunonchi, davlatimiz rahbari tomonidan tasdiqlangan 2019–2025-yillarda turizm industriyasini rivojlantirish konsepsiyasida qishloq turizmi ustuvor yo'naliш sifatida belgilangan.

Ichki turistlar oqimi tarkibida qishloq turizmi hanuzgacha 1,5–2% dan ko'p bo'lмаган ulushni egallaydi. Aksariyat sayyoohlar, ayniqsa, chet ellik sayyoohlar O'zbekistonning turli mintaqalaridagi unchalik mashhur bo'lмаган, garchi noyob bo'lmasada, vohalarga emas, balki noyob tarixiy va madaniy yodgorliklari bilan mashhur joylar, masalan, Orol dengizi ekologik halokat zonasiga borishga moyildirlar. Ayni paytda aholining qishloqlarda hordiq chiqarishiga bo'lgan talabi ancha yuqori va ekspertlarning hisob-kitoblariga ko'ra, atigi 10–15 foizga qondirilmoqda. Shu bilan birga, O'zbekistonning deyarli barcha hududlarida qishloq turizmini rivojlantirish uchun katta imkoniyatlar mavjud. Ayni paytda qishloq turizmi asosan, Toshkent, Jizzax, Buxoro, Samarcand va Farg'onaviyoyatlarida rivojlanmoqda.


O‘zbekistonda qishloq turizmi faqat birinchi qadamlarni tashlamoqda, bu esa turizm industriyasining yana bir segmentini yaratishga olib kelishi mumkin, bunda sayyohlik firmalari mahalliy hokimiyat organlarining sa’y-harakatlari bilan birqalikda yangi mahsulotni bozorga chiqarishni o‘rganadi.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston ga turistik yo’nalish sifatida qiziqish sezilarli darajada ortib bormoqda va shu sababli mahalliy sayyohlik operatorlar tomonidan ko‘proq sayyoohlarni jalg qilish uchun ko‘rsatiladigan turistik xizmatlar turi yildan-yilga ko‘payib bormoqda. Tabiatning go‘zalligi va betakrorligi, xalqlarning o‘ziga xos urf-odatlari va boshqa omillar sayyoohlarni dam olishning nisbatan yangi turi – qishloq turizmiga qiziqishlarini orttirmoqda. Qishloq turizmi qishloq joylarning turistik salohiyatidan foydalanishga asoslangan. Shu bilan birga, mahalliy jamoalarni turizmning ushbu turini rivojlantirish jarayoniga jalg etmiloqda.

O‘zbekiston Respublikasida qishloq turizmini rivojlantirishga bo‘lgan tabiiy shart-sharoitlar yetarli darajada mavjud. Respublikaning barcha viloyatlarida bu imkoniyatdan keng foydalanilsa bo‘ladi.

Biz misol tariqasida Toshkent viloyati Bo‘stonliq tumanining bu boradagi imkoniyatlarini keltirib, bunda ba’zi bir qishloqlarni misol qilib o‘tmochimiz. Chunki, ushbu hudud nafaqat buguni, qolaversa, qadim o‘tmishi bilan ham maqtansa arziydi.

Mazkur hududlarning geografik joylashgan o‘rniga qisman to‘xtalish maqsadga muvoqdir. G‘arbiy Tyan-Shanning yosh, qorli va juda go‘zal tog‘larida, Chorvoq suv ombori qirg‘oqlari bo‘yida ko‘plab qishloqlar, jumladan, eng ko‘zga ko‘ringan Sijjak, Burchmulla, Yakkatut, Bog‘iston, Yusufxona, Yangiqo‘rg‘on, Nanay, Bolodala va h.k. Chorvoq suv omborini hosil qiluvchi to‘g‘onning pastki qismida Xojikent qishlog‘i yani shahar tipidagi aholi punkti joylashgan. Yuqorida tilga olingan qishloqlar uzoq tarixga ega, chunki Shosh-Iloq (Toshkent) hududining tog‘li hududlarida qadimdan aholi yashab kelgan.



43-rasm. Bo'stonliq tumanida joylashgan qishloqlar xaritasi.

O'rta asrlardagi aholi punktlarining eng yirigi *Burchmulla* bo'lib, ko'pgina olimlarning fikricha, X asr manbalarida tilga olingan Ardlanket shahri bilan bog'liq. "Burchmulla" so'zi "Burchli balandlik", "Burch" – burchak, "Mola" – balandlik" deb tarjima qilinishi mumkin, garchi "Mulla" so'zining ko'pchiligi tarjimasiz qoldirilgan. Shahar uchun juda qulay, yaxshi joy tanlangan bo'lib, bu yerda Chotqol va Ko'ksu daryolarining tog' vodiylaridan yo'llar birlashib, butun Choch vohasining asosiy shaharlariga olib boradi. Qazishmalar natijasida hunarmandchilik ustaxonalari, bozor maydonlari, uylarning taxta devorlari aniqlangan. Qazishmalar paytidagi pastki qatlamlar VI asrga to'g'ri keladi. Keyinchalik IX–X asrlarga kelib, kichik bir aholi yashovchi qishloqdan shaharga aylangan.



44-rasm. Burchmulla qishlog'i.

Quydag'i ilovada bir qancha qadimiy manzilgohlar ko'rinishini keltiramiz:

Ardolkent tabiiy ravishda uch tomondan Chotqol va Ko'ksu daryolari bilan o'ralgan bo'lib, tik qirg'oqlari bilan qamal paytida mudofaa uchun qulay maydon bo'lган. Sharqiy tomonda uzunligi besh yuz metrdan ortiq mudofaa devori qurilgan. Ushbu shaharning umumiy maydoni taxminan 16 gektarni tashkil etdi. Ardolkentning tanazzulga uchrashi XII asrda sodir bo'ldi va keyingi asrlarda u vaqtı-vaqtı bilan XII asrgacha qayta tiklandi. Ammo keyinchalik tashlandiq shaharning tepe qismida yangi aholi manzili Burchmulla paydo bo'ladi. Aholi sonining ko'payishi natijasida burchmullaliklar yana ikkita qishloqqa ya'ni Ko'ksuvning o'ng qirg'og'idagi Yakkatut va Chotqolning chap sohilida Yangiqo'rg'onga asos solgan.



45-rasm. Burchmulla qishlog‘ining umumiy ko‘rinishi.

Yakkatut qishlog‘i

Yakkatut qishlog‘i ba’zan “Yuqori Burchmulla” deb ham nomlanadi. Burchmulla aholisining ko‘payishi natijasida ko‘plab oilalarning Burchmullaga qarama-qarshi qo‘shni yerlarni o‘zlashtirishiga majbur qildi. Ushbu ikki qishloqni Ko‘ksu daryosi ajratib turadi. Daryoning chap tomonida Burchmulla, qarama-qarshi tomonida Yakkatut qishloqlari joylashgan. Yakkatut qishlo‘ining nomini “Yolg‘iz tut” deb tarjima qilish mumkin. Har ikki qishloq ham Chorvoq suv ombori bo‘yida joylashgan bo‘lib, o‘ziga xos go‘zal manzarga ega. Aholisining asosiy qismi etnik tojiklar bo‘lib, qadimdan mazkur hududlarda yashab kelgan³³.

Yakkatuta qishlog‘i uylari katta yo‘lning ikki tomonida joylashgan bo‘lib, agar qishloqning quyi qismida asosan, eski, yuqorisida esa yangi qurilgan uylar joylashgan. Uylar uchun asosiy qurilish materiali loydir. Barcha uylar taxminan bir xil tarzda qurilgan: tosh poydevor, ko‘cha tarafdan kirish bilanchorva uchun molxona, kichik tovuqxonalar mavjud. Uyning asosiy darvozasidan hovliga kiriladi.

³³ <http://www.sijjak.com/wp-content/uploads/2016/12/Yakkatut-Brichmulla>.



46-rasm. Yakkatut qishloq ko‘chalari.

Hovlilarda odatda ovqatlanish va dam olish uchun tapchanlar (dastarxonlar) mavjud. Ko‘pgina uylarda kichik bog‘lar va asalarizorlar mavjud va deyarli har bir hovlida asosiy turar-joy binosiga ichkaridan ayvon biriktirilgan.

Qishloqning markaziy qismida transport vositalarining so‘nggi bekati, bir nechta do‘konlar mavjud. Yakkatutda maktab, kasalxona va mahalliy hokimiyat idorasi mavjud.

Chorvoq suv omborining qirg‘oqlariga yaqin joylarda ko‘plab tadbirkor aholi dam olish uchun plyaj zonalarini tashkil qilishgan. Asosan dam oluvchilar uchun qayiq, katamaranlar, tapchanlar, qozonlar va barbekyu uchun uskunalar ijara beriladi. Yoz mavsumining eng yuqori cho‘qqisida shahardan ko‘plab dam oluvchilar bu erga kelishadi. Yakkatut ko‘chalarida uylar tashqarisida oddiygina kichik do‘konlarda sotuvga qo‘yilgan, ichimliklar va turli xil mahsulotlarni uchratish mumkin.

Yakkatut (Yolg‘iz tut) nomining kelib chiqishi haqida bir nechta afsonalar mavjud. Shulardan birida keksalar shunday deydilar: “Uzoq vaqtlar oldin bu yerlarga dahshatli qurg‘oqchilik keldi, suv yo‘qoldi, tog‘cho‘qqilarida muz ham qolmadi. Aholini meva bilan boqadigan barcha daraxtlar qurib qoldi va faqat bitta tut daraxti mo‘jizaviy tarzda omon qoladi. Ma’lum bo‘lishicha, uning uzun ildizlar bilan yerdan namlik olgan. Burchmullaliklaruning mevalari bilan suv paydo bo‘lguncha oziqlandi va hayot yana qaynab ketdi. Daraxt sharafiga aholi qishloqqa asos solib, unga Yakkatut (Yolg‘iz tut) nomini berdi”.

Shimolga ketayotgan darveshlar qandaydir kasallikka chalinishibdi. Hech narsa ularga yordam bermadi, kasallik ularni yiqitdib, kuchlarini tugatdi. Bir bola darveshlar bilan sayohat qilib, oziq-ovqat izlab, yolg‘iz turgan tut daraxtiga duch keladi. U bir nechta tut mevalarni yeyishi bilanoq, u o‘zida hayot beruvchi kuchni his qiladi. Bola tutni terib, hamrohlariga olib keladi. Darveshlar tabiiy dorini yeb, kasallikdan xalos bo‘lishdi. Ular yo‘llari davomida yo‘l-yo‘lakay uchraganlarga tosh yonida yolg‘iz turgan va mevasi hayotlarini saqlab qolgan daraxt haqida hikoyaqilishardi. Dastlab u yerda ziyoratchilar va cho‘ponlar to‘xtab otishar edi, ko‘p o‘tmay daraxt yonida Yakkatut (Yolg‘iz tut) aholi yashaydigan manzil paydo bo‘ldi.

Sijjak qishlog‘i

Sijjak – Toshkent viloyati Bo‘stonliq tumaniga qarashli qishloq. Tuman markazi G‘azalkent shahridan Sijjak qishlog‘igacha bo‘lgan masofa 50 km tashkil etadi. Sijjakda 1000 ga yaqin oila (2015-yil) istiqomat qiladi.

Sijjak Pskom daryosi vodiysining o‘ng qirg‘og‘ida joylashgan bo‘lib, Ugom va Pskom tizmalari bilan chegaralangan. Qishloq markazi dengiz sathidan 959 m balandlikda joylashgan³⁴.



47-rasm. Sijjak qishlog‘i.

Chorvoq suv ombori yaratilgandan keyin Sijjak qishlog‘i suv omborining shimoli-g‘arbiy sohilidagi balandroq qismiga ko‘chirilgan. Qishloq hududi suv

³⁴ Буряков Ю. Ф., Касымов М. Р., Ростовцев О. М. Археологические памятники Ташкентской области.... – С. 16–17.

ombori qirg‘og‘i bo‘ylab cho‘zilgan bo‘lib, Ugom tizmasidan pastga Chorvoq suv omboriga oqib o‘tuvchi soylar orqali o‘tadi. Uchta soyning eng kattasi qishloqning markaziy qismidan oqib o‘tuvchi Sijjak-soyidir.

Sovet davrida qishloq “Bo‘stonliq” sovxozi hududida joylashgan edi. Pskom daryosi bo‘yida joylashgan boshqa aholi punktlaridan farqli o‘laroq, Sijjakda asosan tojiklar emas, o‘zbeklar istiqomat qiladi³⁵.

Aholi chorvachilik, bog‘dorchilik, sabzavotchilik bilan shug‘ullanadi. Sijjakda maktab, kasalxona, dorixona, pochta, masjid mavjud.

Tarixiy va arxeologik yodgorliklar

Qishloq va uning atrofida XI-XIII-asr boshlariga tegishli bo‘lgan bir qancha arxeologik yodgorliklar topilgan: Shavkattepa (yoki Oyboshitepa) manzilgohi, Mug‘Go‘ri qabri, Yalovliq mozori, Hazratimulla mozori va boshqalar.

Afsonalarga ko‘ra, Sijjak qishlog‘ining nomini“sechak”—“uch qism” iborasidan kelib chiqqan bo‘lishi mumkin. Bu nom qishloq hududining undan oqib o‘tuvchi daryolar orqali uch qismga bo‘linishini bildiradi³⁶.

Sijjak va uning atrofida bir qancha arxeologik yodgorliklar aniqlangan va ularning barchasi 1963-yilda O‘zbekiston SSR Chorvoq arxeologiya guruhi tomonidan qayd etilgan va o‘rganilgan, biroq qazishmaishlari faqat Shavkattepada olib borilgan.

Arxeologik qazishmalar faqat Shavkattepada – Sijjak arxeologik manzilgohida olib borilgan. Manzilgohning shimoliy-sharqiy qismida turli sirlangan va sirlanmagan idish-tovoq parchalari, shuningdek, sopol shlaklar topilgan.

Sijjakning janubi-g‘arbiy qismida, Shavkatsoy irmog‘ining Pskomga quyilishida XI—XII asr boshlariga oid aholi manzilgohi joylashgan bo‘lib, uning xarobalari Shavkattepa va Oyboshitepa nomi bilan mashhurdir. Manzilgoh mustahkam mudofaa devoriga ega bo‘lib, uning shimoli-g‘arbiy burchagida minoraning aniq belgilari mavjud. 1963-yilda olib borilgan qazishma ishlarida 2 m

³⁵ Буряков Ю. Ф., Касымов М. Р., Ростовцев О. М. Археологические памятники Ташкентской области.... – С. 15.

³⁶ Yuqoridagi asar.... – С. 16–17.

chuqurlikdagi madaniy qatlam topilgan va xonalarning devorlari xom g‘ishtdan ishlangan qismi aniqlangan. Idishlar bo‘laklari va temir pichoq ham topilgan. Mustahkam manzilgohning umumiy maydoni 1600 m² tashkil etadi.

Oyboshitepadan 400 m balandlikda Shavkatsoy bo‘ylab yana bir nomsiz arxeologik manzilgoh bo‘lgan, ammo u daryo terrasini haydalishi natijasida vayron qilingan. Bu yerdan XI–XII va XV–XVI asrlarga oid sirlangan hamda sirlanmagan idishlar parchalari, sopol va metall shlaklari, metallurgiya pechlari parchalari topilgan.

Sijjakning shimoli-sharqiy qismidagi joylarda Mug‘ning dafn etilganligi ma’lum. Go‘ri Mug‘ – Mug‘ning qabristonidir. Qishloq aholisi tomonidan to‘plangan rivoyatlarga ko‘ra, bu yerda dafn etilganlarning yirik suyaklari va xumlar ichida uning qoldiqlari topilgan. Arxeologik tadqiqotlar 3 m chuqurlikda osteologik material mavjudligini tasdiqladi va keramik material mavjudligini qayd etdi³⁷.

O‘rta Osiyo musulmonlari zardushtiyalar Mug‘larni ko‘pincha zardushtiy ruhoniylari, sehrgarlari deb atashgan. Vaqt o‘tishi bilan bu so‘z musulmonlardan oldingi har qanday aholiga nisbatan qo‘llanila boshlandi.

Yalovlik-mozor va Hazratimulla-mozor.

Sijjakning markaziy va g‘arbiy qismlari (1973-yilgi ma’lumotlarga ko‘ra)da ikkita mazor - Yalovlik-mozor va Hazratimulla-mozorlari ma’lum. Yalovlik-mozor qabriston majmuasi hisoblanadi. Majmua to‘rtta qayroq bilan ifodalangan bo‘lib, ulardan uchtasida yozuvlar bor. Hazratimulla-mozor majmuasi zamonaviy qabriston hududida joylashgan uchta saqlanib qolgan qayroq bilan ifodalanadi. Yozuvli qabr toshlari epigrafiya namunalari va tarixiy yodgorlikdir. Qabr toshlaridan birida milodiy 1412–1413-yillarga to‘g‘ri keladigan 815-hijriy yil sanasi yozuvlari mavjud. Shundan kelib chiqib, Sijjak mashhur sayyohlik maskani hisoblanadi.

³⁷ Буряков Ю. Ф., Касымов М. Р., Ростовцев О. М. Археологические памятники Ташкентской области... – С. 115.

Nanay qishlog‘i



48-rasm.Nanay qishlog‘i.

Nanay qishlog‘i dengiz sathidan 900 m balandlikda, Pskom daryosining chap sohilidagi vodiyda joylashgan. Qishloq hududida 4000 ga yaqin aholi istiqomat qiladi, ularning deyarli barchasi etnik tojiklardan iborat.

Bu yerlarning iqlimi tog‘ etaklari uchun xos, yozi issiq (+40C gacha) va qishi sovuq, qorli (-20C gacha). Biroq, Chorvoq suv omborining yaqinligi havoni sezilarli darajada namlaydi va yoz jaziramasini yumshatadi. Kuz va bahorda yomg‘ingarchilik ko‘p bo‘ladi.

Nanay qishlo ‘ining kelib chiqishi haqidagi afsona.

O‘zbekistonda Nanay nomi bilan atalgan ikkita qishloq mavjud. Ikkinci shunday nomdagagi qishloq Namangan viloyati Yangiqo‘rg‘on tumanida joylashgan bo‘lib, uning aholisi asosan o‘zbek, qisman qirg‘izlardan iborat. Rivoyatlarga ko‘ra, Namangandagi Nanay qishlog‘i aholisining bir qismi qishloqdoshlari bilan janjallahib, o‘z vatanlarini tashlab ketishga majbur bo‘lgan. Tog‘larda sarson bo‘lib, Pskom daryosi yaqinida qulay vodiy topib, bu yerlarda qishloqqa asos solishgan va nomini ham bir xil nomlagan.

Lekin, Pskom nanayliklarining rivoyatlariga ko‘ra, voqealik aksincha edi. Ularning talqiniga ko‘ra, Nanay qishlog‘i bu joylarda Iskandar Zulqarnayn davridan beri mavjud bo‘lib, qishloq buyuk sarkarda va uning jangchilari uchun vaqtincha mustahkamlangan to‘xtash joylaridan biri sifatida qurilgan. Buni

topilgan Nanaytepa (Dinaptepaning boshqa nomi) manzilgohi tasdiqlaydi, unda mudofaa devori va minorasi bo‘lgan qal'a qoldiqlari topilgan. Dastlab u karvonsaroy sifatida foydalanilgan bo‘lsa, keyinchalik esa butunlay qishloqqa aylangan. Nega aholining bir qismi bu joyni tark etib, Farg‘ona vodiysiga ko‘chib o ‘tganligi haligacha aniq emas.

Nanay – Pskom vodiysining asosiy nuqtasidir. Barcha yo‘llar, diqqatga sazovor joylar undan, ko‘prikan boshlanadi va tugaydi. Pskomning ikkala qirg‘og‘idagi Nanay ko‘prigi ustidagi aholi punktlari va qishloqlar notejis taqsimlangan. Ularning jami 14 tasi mavjud. Ulardan Nanay, Mullali, Ispay, Kaptarkumush Pskomning chap sohilida joylashgan. O‘ng qirg‘og‘ida esa Qorabuloq, Palvaniq, Maydantal, Kurdultor, Oromzoda, Kunch, Tepar, Tayangaq hamda Chekak, Pskom qishloqlari joylashgan. Mazkur tog‘li qishloqlarda aholi asosan, dehqonchilik, bog‘dorchilik, chorvachilik va asalarichilik bilan shug‘ullanadi.

“Nanay” atamasining kelib chiqishi haqida bir nechta fikrlar mavjud. Nanay O‘rtal Osiyoda qadimgi toponimdir. “Nanay” – bu qadimda Oy ilohlaridan birinig nomi bo‘lib, “Nanay” atamasini ba’zilar unga nisbatan ishlatadi. So‘g‘diylar, zardushtiyarda “nana (i)” hosildorlik va unumidorlik “pokiza” va “go‘zal” ma’budasi bo‘lgan hamda “Nanay” atamasi ushbu so‘zlarga ham nisbatan berilgan. Lekin, ba’zilar “Nanay” bu “Non xay” so‘zining transformatsiyaga uchrashi, ya’ni –“non bor”, deb taxmin qiladilar. Rivoyatlarga ko‘ra, Nanay qishlog‘iga yaqinlashgan karvonlardagi odamlar bu yerdan non sotib olib, “non bormi” deb so‘raganlarida, nanayliklar “non xay” deb javob berar ekanlar, shu bois qishloq nomi Nanay bo‘lib nomlangan ekan³⁸.

Nanay qishlog‘i aholisi asosan, dehqonchilik, chorvachilik, chakana savdo, asalarichilik, hunarmandchilik va turizm xizmatlarini ko‘rsatish bilan shug‘ullanadi.

³⁸ Kabirova B. Tarixiy makonga boy Bo‘stonliq.... – B. 384.

Asalarichilik – Nanayning tashrif qog‘ozidir. Bu yerda tayyorlanadigan mahalliy asal mahsuloti butun O‘zbekistonda mashhurdir. Mahalliy asal uchun mamlakatning ko‘p joylaridan keladi.

Xalq hunarmandchiligi ham o‘ziga xos va xilma-xil xususiyatlarga ega. Ana shunday xalq hunarmandchiligi namunalaridan biri – do‘ppilardir (Bu yerda Nanay do‘ppilarining mahalliy xususiyatlari haqida qisqacha ma’lumot yozing).

Mahalliy aholining turistik xizmatlari faqat “tapchan-turizm”, ya’ni dam olish olish va ovqatlanish uchun joylar bilan ta’minalash bilan cheklanadi. Shuningdek, aholi vakillari v a tadbirkorlar tomonidan ko‘plab tarixiy va qiziqarli tabiiy ob’yektlarga ekskursiyalar tashkil etiladi.

Nanayning g‘arbiy qismida kengligi 30 m, chuqurligi 15 m, balandligi 20 m bo‘lgan katta g‘or mavjud bo‘lib, uning o‘rtasida kichik ko‘l ham bor. Ushbu g‘orni g‘arb tomondan Chorvoq suv ombori yuvib turadi. Ilgari bu yerda noma’lum avliyoning qabri, ya’ni “G‘oyib ota” mozori bo‘lgan. Ehtimol, ushbu zot Markaziy Osiyonli islamlashtirish davrida arab bosqinchilari qo‘lida halok bo‘lgan aholi vakillaridan biridir.

Nanaydagi “Ibrohim ota” qabristonida Xoja Ahror o‘tqazgan tut daraxti mavjud bo‘lib, afsonalarga ko‘ra, hozirgi kunda Xodjikentda ular tomonidan ekilgan ko‘p asrlik mashhur chinorlar saqlanib qolgan.

Mahalliy aholi orasida keng tarqalgan rivoyatlarga ko‘ra, Nanay aholisi Iskandar Zulqarnayn davrida shakllangan bo‘lib, qadimgi yunon tarixchilari tomonidan tilga olingan “Aleksandriya Esxata” deb nomlangan shahar zamonaviy Nanay qishlog ‘idir. Nega ushbu fikrlar mavjud, degan savol tig‘iladi? Tojik tilida ushbu shahar “Axsika” deb atalgan. Buyuk sarkarda ushbu shaharga asos solgan va uni ikkinchi poytaxti deb hisoblagan. Mazkur shaharni qurish uchun Aleksandr yaqinda turmush qurban to‘rtta sherigini yuboradi. Ular karvonsaroylar va asosiy armiyaning yurishi, xavfsizligi hamda dam olish uchun zarur bo‘lgan barcha qurilishlarni nazorat qiladilar. Keyinchalik qurilish ishlari davom etar ekan, yunon armiyasining asosiy qismi orqada, qal’alar yoki mahalliy aholi atamasi bilan

ifodalaganda, karvonsaroylarda mustahkamlangan garnizonlarni qoldirib, oldinga siljishi kerak edi.

Bu yerga yuborilganlar o‘z oilasi, qo‘smini va mahalliy aholi ko‘magida Toshkentdan Pskomgacha to‘rtta qal’a qurdilar. Ulardan birinchisi Toshkent o‘rnida, ikkinchisi Niyozbek, uchinchisi Nanay, to‘rtinchisi esa Pskomda bo‘lgan. Ushbu to‘rtta oila 2200 yil avval tashkil etilgan qishloqning asoschilari bo‘lib, Nanayning barcha aholisining ajdodlariga aylangan. Keyinchalik ushbu karvonsaroylarda Samarqand va Xitoy o‘rtasidagi savdo-sotiq qiluvchi savdogarlar to‘xtay boshlagan. Bu yerda savdo karvonlariga xizmat qiluvchi odamlar joylasha boshlagan, keyinchalik katta qishloqqa aylana borgan.

Taxminan 1608-yilda Nanay aholisi boshqa hududlarga majburan ko‘chirilgan. Ushbu “nanaylarning katta ko‘chishi” natijasida ularning qarindoshlari Sariog‘och (taxminan 50%) va G‘azalkent (taxminan 30%), Nanayning o‘zida 400 nafar aholi qolgan.

Arablar istilosи va mahalliy aholining islomlashuvi bilan bog‘liq tarixiy voqealar xalq og‘zaki ijodi namunalari, qishloq va uning atrofidagi muqaddas joylarning ko‘pligida ham o‘z aksini topgan.

Mahalliy aholi orasidagi afsonalarga ko‘ra, Nanay aholisi tinch yashagan, dalalarida mehnat qilgan, chorva mollarini boqqan va asal yiqqan. Vaqtı-vaqtı bilan an’anaviy bayramlarga yig‘ilib, xudolarga madhiyalar, yaqinlariga qo‘sniqlar aytishar, to‘ylar uyushtirishar, o‘tganlar uchun qayg‘urishar edi. Nanayliklar mehnatkash, yerkari unumdar, yayloviali mayin o‘tlarga boy bo‘lganligi uchun ular mo‘l-ko‘llikda yashagan. Chetdan paydo bo‘lgan qo‘sniqlar va dushmanlardan himoyalanish maqsadida nanayliklar o‘zlariga xos mudofaa tizimini yaratgan, ya’ni bukma yog‘och ko‘prik qurbanlar.



49-rasm. Nanay qishlogi ko‘prigi.

Bog‘iston qishlog‘i

Bog‘iston – Bo‘stonliq tumanining yuqori mintaqasida joylashgan qishloq bo‘lib, Pskom daryosining yuqori qismidagagi so‘lim joylardan biridir. Bog‘iston (tojikchadan Bog‘iston – “Bog‘lar o‘lkasi” deganidir).

Qishloq aholisi 2000 kishi atrofida bo‘lib, aholining aksariyati tojiklardir. Mahalliy aholi qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirish, chorvachilik, shuningdek, atrofdagi tog‘larda meva yig‘ish bilan shug‘ullanadi.

Qishloq uzoq tarixga ega bo‘lib, ba’zi bir ma’lumotlarga qaraganda, VI asrda tashkil topgan. Bu Turk xoqonligining gullagan davri (552–745-yy.) to‘g‘ri keladi. O‘rta asrlarda bu yerlar orqali Yetisuv va Farg‘onadan Choch (Toshkent)ga savdo yo‘llari o‘tgan.

Bog‘iston o‘zining muqaddas joylari bilan ham mashhur. Qadim zamonlardan odamlar istiqomat qilgan ushbu maskanga olis Arabistondan bir paytlar bu yerda “Bog‘ustoni” laqabini olgan, xalifa Umarning bevosita avlodni bo‘lgan Shayx Umar Valiy boshchiligidagi 20 nafar islom dini targ‘ibotchilar kelgan ekan. Shayx Umar ikkinchi taqvodor xalifa Umar ibn al-Xatobning o‘n yettinchi avlodidan bo‘lganligi uchun bu oiladagi erkaklar Xoja degan sharaflı unvonga ega edi. Shayx Umar tashabbuskor so‘fiy, darvesh Hasan Bulg‘oriyning

izdoshi edi. U Toshkentga faqat Islom dinini yoyish maqsadida kelgan. Ko‘p o‘tmay, Shayx Umar Toshkentdan Bog‘istonga ko‘chib o‘tadi va umrining qolgan qismini shu yerda o‘tkazib, shu yerda vafot etadi. Mahalliy aholi uni hurmat bilan Pskom daryosi bo‘yida dafn etadi.

Qishloqdagi eng muhim muqaddas joy Shayx Umar Valiy mozori bo‘lib, u yerda mashhur sulolaning ko‘plab vakillari dafn etilgan. Mazkur sulolaning nasabnomasi xalifa Umar avlodi – Abdulladan kelib chiqqan bo‘lib, undan o‘n olti avlod o‘tib, Shayx Umar Vali Bog‘ustoniy dunyoga keladi. Mashhur Shayx Xovandi at-Tohur (Shayxontohur) uning o‘g‘li bo‘lib, Toshkentdagi butun bir tuman shunday atalgan. Shuningdek, Toshkentda Xovandi Tohur sharafiga butun bir yodgorlik majmuasi barpo etilgan bo‘lib, uning markazida shu nomdagagi maqbara joylashgan.

O‘tgan asrning 60-yillarda Bog‘iston yaqinida olib borilgan arxeologik tadqiqtolar yuqori paleolit (miloddan avvalgi 100–40 ming yillar) davriga oid tosh qurollardan tortib, metall, tosh va shishadan yasalgan buyumlar, shunigdek, eramizning III–X asrlariga oid bo‘lgan ko‘plab topilmalarni aniqladi. Madaniy qatlamning 16 metr qalinligi va uning ashyolar bilan to‘yinganligi arxeologlarga Bog‘iston, Nanay, Sijjak, Burchmulla hamda Yusupxona tarixi Buxoro, Samarqand va Xivadan kam bo‘lmagan qadimiy hamda qiziqarli bo‘lishi mumkin, degan taxminni ilgari surishga imkon berdi. Biroq, 70-yillarning oxirida Chorvoq suv ombori to‘g‘oni qurilganidan keyin keng maydonlarni suv bosishi qazish ishlarini to‘xtatilishiga sabab bo‘lgan edi.

“Kadovodtepa” tepaligi

Bog‘iston soyning Pskom daryosiga quyildashida joylashgan Qadovodtepada arxeologlar tomonidan tadqiqt ishlari olib borildi. Ushbu mustahkam hunarmandchilik markazining tashkil etilgan sanasi milodiy III asrga to‘g‘ri keladi. Mazkur manzilga joylashgan birinchi aholi ibridoiy pechlarda temir eritganlar, shuningdek, bu yerdan temir pichoq va suyak, tosh, shishadan yasalgan turli xil buyumlar topilgan. Keyinchalik bu yerda mustahkam qal’a qad ko‘taradi. Bu qal’a dushman qamallari natijasida bir necha marta ta’mirlangan, ammo baribir

devor vayron qilingan va uning qoldiqlarida VIII–IX asrlarda ulkan kulolchilik maskani paydo bo‘ladi. Mahalliy hunarmandlar bu yerda ulkan kulolchilik pechlarini qurbanlar. XIV–XV asrlarda Qadovadtepa qoldiqlarida yana hayot boshlanib, keyinchalik gullab-yashnayotgan Bog‘iston qishlog‘iga aylandi.



50-rasm.Bog‘iston qishlog‘i.

Yusufxona qishlog‘i

Yusufxona burchimullaliklar yashaydigan kichik qishloq bo‘lib, Chotqol daryosining chap qirgogida joylashgan. Mahalliy xalq bu yerni “Sari qir” nomi bilan ham ataydi. Yusufxona manzarasi ajoyib, havosi toza, dam olish uchun qulay makondir. Ilgari Yusufxonaga yaqinida “Shungak” qishlogi ham mavjud bo‘lgan. Ushbu qishloqda burchimullaliklar dehqonchilik va chorvachilik bilan shugullanganlar. Shungak Yusufxona va Xadaloq qishloqlari o‘rtasidagi yerda bog‘larga burkangan mazkur so‘lim qishloq afsuski, Chorvoq dengizi ostida qolib ketgan. Aholi Chimyon tomonga boradigan yo‘lning o‘ng tomoniga uylar qurib, ko‘chib o‘tganlar.

Keyinchalik ushbu qishloq “Yubiley niy” nomi bilan atalgan. Biroq, mahalliy tojiklar bu joyni “Qashqo” nomi bilan yuritadi. Ilgari bu joylar quruq, daraxtsiz, uzoqdan qaraganda, bir joyi oq, bir joyi qora ko‘ringani sababli Qashqa (Qashqa)

deb atalgan. Hozirgi kunda ushbu hududning manzarasi chiroyli bo‘lib, ko‘m-ko‘k va bahavodir.

Yusufxona hamda Qashqo qishloqlari bugungi kunda “Navobod” mahalla fuqarolar yig‘ini tarkibiga kiradi. Har ikkala qishloq dam oluvchilar uchun qulay joy bo‘lganligi bois sayohatchilarning sevimli maskaniga aylangan. Sayohatchilar qishin-yozin bu yerlarda xususiy sektor tomonidan tashkil etilgan mehmonxonalar va mehmon uylari xizmatidan foydalanadilar. Qishloqda tub aholining uylari bilan bir qatorda ko‘plab sayyoqlik inshootlari, bolalar sog‘lamlashtirish oromgohlari va dam olish maskanlari ham barpo etilgan.

Mehmondostlik an’analari.

Qishloq turizmida sayyoqlar mehmonxonalardan farqli o‘laroq, ma’lum bir qulaylik va xizmatlar to‘plamiga ega bo‘lgan biron-bir binoga emas, balki oilaviy mehmon uyida joylashadilar. Qishloq mehmon uyining muhiti har doim juda shinam, qulay bo‘lishi muhim rol o‘ynaydi. Mehmonlar qarindoshlariga yoki yaqin do‘stlariga tashrif buyurgandek his qilishlari kerak. Agar sayyoqlar oilaning ochiqligi va samimiyligini his qilsa, ular potentsial mijozlarnga aylanadilar.

Qishloq turizmini mazali taomlarsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Bugungi kunda turli mamlakatlar va mintaqalarga tashrif buyurgan sayyoqlar ovqatlanishga talabchan va e’tiborli bo‘lib bormoqda – bu restoran taomlari va standartlari kerak degan ma’noda emas, balki oziq-ovqat tabiiy va ekologik toza bo‘lishi, imkon qadar mahalliy mahsulotlardan tayyorlanishi kerak. Mehmonlar asosan, an’anaviy va avloddan-avlodga o‘tib kelgan oilaviy taomlar, poliz sabzavotlari, sarxil mevalar, bugun ertalab tutilgan baliqni tatib ko‘rish va tanovvul qilishdan lazzatlanadi. Sayyoq uchun oilaning kundalik hayotida ishtirot etishi butun sayohatining eng muhim qismi bo‘lishi mumkin.

Bo‘stonliq timani qishloqlarida an’anaviy qishloq turizmini rivojlantirishda mahalliy aholining madaniyati, urf-odatlari va turmush tarzini saqlab qolishligi muhim ahamiyat kasb etadi Hozirgi kunda yoqorida keltirilgan Yakkatut, Nanay, Bog‘iston, Yusufxona kabi qishloqlarda eski uylar va ushbu mintaqaga xos bo‘lgan

paxsa, loydan qurilgan binolarning saqlanib qolinishi hamda ularni qayta tiklanishi dolzarb muammolardan biridir.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, qishloqda dam olish – bu tabiat qo‘ynida hordiq chiqarish, yillar davomida shahar sharoitida yig‘ilib qolgan charchoqlarni unutish, toza havo, ekologik jihatdan toza bo‘lgan oziq-ovqatlar, iqlim sharoitlarini o‘zgartirish, aholi sonining kamligi, tartib-qoida va yashash madaniyatining o‘ziga xosligi, qishloq xo‘jalik ishlarida ishtirok etish, bog‘dorchilik, chorvachilik, tabiat bergen in’omlardan bahramand bo‘lish, qolaversa, dam olish narxining arzonligidir. Shulardan kelib chiqib aytish mumkinki, qishloq turizmi o‘z xarakteriga ko‘ra ekologik turizmning bir ko‘rinishidir.

5.7 TIBBIYOT TURIZMI

Turistik xizmatlarni diversifikatsiya qilish nafaqat yakka tartibdagi tadbirkorlik sub'yekti, balki mamlakat milliy turizmi raqobatbardoshligini mustahkamlashning muhim yo'nalishi hisoblanadi. Shubhasiz, O'zbekiston turizmining mutlaq ustunligi uning o'ziga xos tabiat, iqlimi, tarixi, an'analari, mehmondo'stligi, madaniy meros ob'yektlari, arxitekturasi, diniy ziyyaratgohlarning mavjudligidir. Bu O'zbekistondagi deyarli barcha sayyoqlik dasturlarining ajralmas qismidir.

Jahon sayyoqlik bozorlarida raqobatning kuchayishi milliy turizmning rivojlanishiga ham ta'sir ko'rsatadi. Turistik xizmatlarga ehtiyoj ortib borishi bilan bir qatorda xizmat ko'rsatish sifatiga qo'yiladigan talablar ham o'zgarib bormoqda. COVID-19dan keyingi davrda butun dunyo bo'ylab tibbiy turizmga talab ortishni boshladi. Bundan tashqari, bu nafaqat ta'til paytida hordiq chiqarish, balki dam olishni kechiktirilishi mumkin bo'lgan kasalliklarni reabilitatsiya qilish va davolash bilan birlashtirish istagi bilan ham bog'liqdir³⁹.

Amerikalik doktor-kardiolog Erik Topolning "Tibbiyotning kelajagi: sog'lig'ingiz – o'z qo'lingizda" kitobida keltirilgan tarifiga ko'ra, **tibbiy turizm** – bu yashash joyidan tashqarida rejorashtirilgan tibbiy xizmatlarni ko'rsatish amaliyotini anglatuvchi atama bo'lib, chet elda dam olish, shu bilan birga, yuqori malakali tibbiy xizmatidan foydalanishdir⁴⁰.

Tadqiqotchilar Holloway va Teylor tibbiy turizmni sayyoqlarning tibbiy maslahatlar olish hamda jarrohlikni amalga oshirish maqsadidagi sayohatlar deb ta'riflaydilar. Masalan, finlarning oftalmologiya va stomatologiya xizmatlarini olish uchun Tallinga, avstriyaliklarning esa Vengriyaga sayohatlaridir⁴¹.

Tibbiy turizm – bu insonlarning xorijda davolanishni maqsadli tashkil etish, yashash joyidan tashqarida zaruriy tibbiy xizmatlarni olish imkoniyati va usullarini yaratish, bir vaqtning o'zida turistik va qo'shimcha xizmatlar ko'rsatishni

³⁹ Пардаев М. К., Усманова Д. К. Перспективы развития медицинского туризма в Узбекистане // ЭФО. Экономика. Финансы. Общество. – 2022. – №3. – С. 38–49.

⁴⁰ Тополь Э. Будущее медицины: Ваше здоровье в ваших руках. – М.: Альпина нон-фикшн, 2016. – С. 491.

⁴¹ https://www.researchgate.net/publication/341589682_Perspektivy_razvitiya_medicinskogo_turizma.


ta'minlaydigan yo'nalishdir. Undan ko'zlangan maqsad, mamlakatda sog'liqni saqlash sohasini keng rivojlantirish, ixtisoslashtirilgan xizmatlar sifatini xalqaro standartlar darajasida oshirish, sohaga zamonaviy texnologiya va uskunalarini joriy etish, tibbiyat xodimlarining malakasini oshirish va sohani rivojlantirishdan iborat.

Tibbiy turizm uchta asosiy toifaga bo'linadi:

1. Sog'lomlashtirish – SPA, detoks va kurort muolajalarini o'z ichiga oluvchi sog'lomlashtirish hamda immunitetni oshirish.
2. Diagnostika – aniq tashxis qo'yish va kasallikning klinik kechish xususiyatlarini baholash uchun laboratoriya hamda instrumental usullardan foydalangan holda bemorni tekshirish.
3. Terapevtik – davolanish va reabilitatsiya.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli farmoni doirasida mamlakatimiz taraqqiyotini belgilovchi 100 ta maqsad ishlab chiqildi. Ushbu strategiyaning tibbiy xizmatlarni rivojlantirish orqali turizm sohasi daromadini sezilarli darajada oshirishga doir 55-maqsadi, O'zbekiston bo'yab sayohat qilish dasturi doirasida mahalliy va xorijiy sayyoohlар sonini oshirishga oid 35-maqsadlarini amalga oshirishda tibbiy turizm muhim ahamiyat kasb etadi.

Ma'lumki, mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlantirishda turizmning o'rni yuqori. Tibbiy turizm esa bugungi kunda turizm bozorida jadal rivojlanmoqda. Quyida berilgan sxema mazkur sektorning katta bir qismi tibbiy turizmning ulushiga to'g'ri kelishini asoslاب beradi (*1-rasm*).



51-rasm. Tibbiy turizmning iqtisodiy ahamiyati.

Tibbiy turizm zamonaviy ixtiro emas. Qadim zamonlarda ham bemorlar eng yaxshi shifokorlardan malakali tibbiy yordam olish uchun uzoq masofalarni bosib o‘tishlari kerak edi. Bugungi kunda Rossiya va MDH mamlakatlarida tibbiy turizm qaytadan vujudga kelmoqda. Ko‘plab insonlar xorijda davolanishni o‘z mamlakatida davolanishga munosib alternativ deb hisoblaydi. Shu sababli, kasalliklarga tashxis qo‘yish va davolash uchun Yevropa, AQSh hamda Osiyo mamlakatlariga tibbiy maqsadda sayohatlarni amalga oshirish tobora ommalashib bormoqda.

Tibbiy turizmning maqsadi, diagnostika, maslahat, profilaktika, davolash, jarrohlik, bemorni reabilitatsiya qilish va yashash, ovqatlanish va qulay sharoitlarni yaratish, shuningdek, bemor hamda uning hamrohlari uchun transport xizmatlarini taqdim etishdir.

Mamlakatimizda tibbiy turizm mahalliy turizmning yosh va muvaffaqiyatli rivojlanayotgan yo‘nalishi hisoblanadi. Markaziy Osiyoga sayohat qilayotgan yoki uning hududida vaqtinchalik istiqomat qiluvchi xorijliklar uchun O‘zbekistonda davolanish qulay imkoniyatdir. Yuqori sifatli, arzon laboratoriya hamda diagnostika testlari va asosiy tibbiy muolajalar sayohat marshrutlariga kiritilgan.

O‘zbekistonda tibbiy turizm mehmondo‘stlik sanoatining yangi va istiqbolli yo‘nalishi hisoblanadi. Bugungi kunda O‘zbekistonda statsionar va ambulatoriya xizmatlarini, jarrohlik davolash va stomatologiya xizmatlarini arzon narxlarda taklif etuvchi zamonaviy tibbiyot markazlari faoliyat ko‘rsatmoqda hamda ushbu markazlarning aksariyati xalqaro sug‘urta asosida xizmat ko‘rsatmoqda.

O‘zbekistonda davolanish va dam olish xorijliklar uchun ham, mahalliy aholi uchun ham yangi raqobatbardosh mahsulot bo‘lib, ekskursiyalar tarkibiga yuqori sifatli, arzon laboratoriya tekshiruvlari, diagnostik testlar va asosiy tibbiy muolajalar kiritilishi mumkin. “O‘zbekiston Respublikasi sog‘liqni saqlash tizimini 2019–2025-yillarda rivojlantirish konsepsiysi”da Respublikada tibbiy turizmni rivojlantirish maqsadida kirish tibbiy turizmini rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish vazifasi qo‘yildi.

Hozirgi vaqtida Bo'stonliq tumanida turizmning ko'plab turlarini rivojlantirish imkoniyatlari mavjud bo'lib, ular mustaqil yo'nalish sifatida va turli xil kombinatsiyalarda amalga oshirilishi mumkin: rekreatsion turizm, ekologik turizm, madaniy-ma'rifiy turizm, tibbiy turizm, MICE turizmi, ziyyarat turizm, qishloq, agroturizm, ornitologik turizm, fototurizm va boshqalar.

Bo'stonliq tumanida sayyoohlar uchun diqqatga sazovor joylari ko'p. Mintaqaning qulay geografik holati, turizmni rivojlantirish uchun qulay landshaft va iqlim sharoiti, shuningdek, uzoq vaqt davomida tibbiy manba sifatida faol foydalanimaydigan noyob tabiiy resurslar mavjud.

Shuningdek, ushbu hududda mahalliy aholi hamda xorijliklarning davolanishlari va dam olish uchun sanatoriy va kurortlar mavjud. Sanatoriy kurortlarda shifobaxsh suvlar, shifobaxsh balchiqlar va mineral suvlardan (mineral suvlarni ichish yoki mineralli va servodorodli vannalar qabul qilish imkoniyatlarini) ham keng foydalangan holda davolanadi.

So'nggi paytlarda kasallikkarning ko'payishi global ekoliya muammolari bilan bog'liq bo'lib, ayni paytda tabiiy toza hududlarda joylashgan sog'lomlashtiruvchi sanatoriy-kurort tashkilotlari, tibbiyot muassalari tibbiy xizmatlarni turizm bozorida taklif etadi. Quyida O'zbekiston turizm bozoridagi yetakchi sanatoriy-kurortlar to'g'risida malumot taqdim etiladi.

OQ-TOSH SANATORIYSI

Oq-tosh sanatoriysi – Bo'stonliq tumani Oqtosh qishlog'idagi tog'li hududda joylashgan, o'zgacha shifobaxsh iqlimga ega bo'lgan kurort bo'lib, Toshkent shahridan 65 km, G'azalkentdan 10 km masofada, dengiz sathidan 1140 m balandlikda joylashgan (G'arbiy Tyanshan – Qorjontovning pastki qismi). Davolashning yetakchi omili iqlimiyl terapiya hisoblanadi. Maydoni 8,5 hektarni tashkil etadi.

Tarixiy manbalarga ko'ra, sanatoriy hududida dastlab geologlar yashab tog' qidiruv ishlarini olib borishgan. 1936-yilda nafas a'zolari hamda nerv sistemasi kasallikkari bilan og'rigkan kishilar davolanadigan sanatoriy tashkil etilgan. 1942–1945-yillarda sanatoriy ko'krak qafasi jarohatlanganlar uchun harbiy gospital

bo‘lgan. Hozirgi kunda bu yerda nafas a’zolari kasalliklari, asosan, bronxial astma bilan og‘rigan bemorlar davolanadi.

Sanatoriylar hududi ko‘kalamzorlashtirilgan, atrofi keng bargli, yong‘oq, pista, bodom kabi daraxtlari bilan o‘ralgan. Iqlimi mo‘tadil kontinental: qishi sovuq, yozi issiq, yanvar oyida o‘rtacha harorat – 2°, iyul oyida esa 35°, nisbiy namlik 55%, quyoshli kunlar davomiyligi esa yilda 2550 soatni tashkil etadi. Davolash omili – kislород va shifobaxsh efir moylariga boy musaffo tog‘ havosi.

Tog‘ daryolaridan keladigan tabiiy gidro ionlanish kelib chiqishi jihatidan nospetsifik nafas a’zolari xastaliklariga shifobaxsh ta’sir etadi. Davolash kompleksi fizioterapiya, sun’iy vannalar (ignabargli, tuzli), sauna, parafin va ozokerit bilan davolash, massaj, davo fizkulturasi, terrenkur, maxsus ovqatlanishdan iborat. Sanatoriya sharq tabobati – giyohlar bilan davolashda keng foydalilaniladi. 100 (yozda 126) o‘ringa mo‘ljallangan yotoq korpuslari (bir va ikki o‘rinli), 4 ta oilaviy kottej, klub, kutubxona, sport maydonchalari mavjud. Bolalar va ota-onalari uchun yil bo‘yi ishlaydigan bo‘lim ham mavjud (1999-yildan)⁴².



52-rasm. Oqtosh sanotoryasi.

⁴² <https://uz.wikipedia.org/wiki>.



53-rasm. Oq-tosh sanatoriysi.

XUMSON-BULOQ SANATORIY-KURORT MAJMUASI

Majmua baland tog‘da joylashgan bo‘lib, yonidan Ugom daryosi oqib o‘tadi. Shu tufayli bu yerda o‘ziga xos mikroiqlim hosil bo‘ladi. Majmua hududida noyob daraxtlar bisyor, shuningdek, 5000dan ortiq turli buta, atirgul va boshqa o‘simliklar o‘sadi. Bu nafas olish tizimi kasalliklariga chalingan bemorlar uchun ayni muddao.

Xumson-Buloq sanatoriy-kurort majmuasi ta’sischilarini 2009-yilda dunyoning istalgan muassasasi bilan raqobatlasha oladigan sog‘lomlashtirish-kurort majmuasini yaratish g‘oyasini ilgari surdilar. Xumson-Buloq sanatoriyasi har yili 10000 dan ortiq kishini qabul qiladigan sog‘lomlashtirish, rekreatsiya va

yoshartirish bo'yicha tibbiy xizmatlarini ko'rsatuvchi premium klassdagi maskandir.

Ushbu sanatoriylar mehmonlarga maroqli dam olish, hayot muvozanatini tiklash, sog'lomlashtirish muolajalarini olish va O'zbekiston tog'larining go'zal tabiatini qo'ynida vaqt o'tkazishni taklif etadi.



54-rasm. Xumson Buloq sanatoriylar kurort majmuasi.

Majmua bugungi kunda ko'p tarmoqli tibbiyot muassasasi bo'lib, dunyoning yetakchi korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan zamonaviy asbob-uskunalar bilan jihozlangan noyob davolash-diagnostika bazasiga ega va uning vektori doimo xalqaro standartlarga muvofiq tibbiy-diagnostika bazasini mustahkamlashga

qaratilgan. Xumson-Buloq sanatoriy-kurort majmuasi yurak-qon tomir tizimi, nafas olish organlari va tayanch-harakat apparati kasalliklariga ega bo‘lgan bemorlarni profilaktik davolashga ixtisoslashgan. Majmua fizioterapevtik va gidroterapevtik muolajalarini o‘tkazish uchun yuqori samarali GBO va RMS uskunalari bilan jihozlangan.

Xumson-Buloq umumiylis hisobda 155 nafar mehmon uchun mo‘ljallangan keng terrasa va ayvon, ikki qavatli to‘rtta alohida joylashgan kottejlar hamda turli toifadagi shinam xonalarga ega to‘rtta qulay korpuslardan iborat.

Sanatoriyda 130 o‘ringa mo‘ljallangan restoran mavjud bo‘lib, u yerda mehmonlar uchun kuniga 4 marta to‘liq ovqatlanish xizmatini taklif etadi. Shu bilan birga, 8 kishilik uchta alohida VIP xonalar ham mavjud. Kunning birinchi yarmida mehmonlar majmuaning fito-barida kislorod ko‘piklari va tog‘ choylari bilan davolanadilar.

Tashrif buyuruvchilarning maroqli dam olishlari uchun ochiq havoda isitiladigan basseyn, kichik akvapark, qishda yopiq isitiladigan basseyn, jakuzi, sauna, sport zali, mexanik massaj xonasi, ingalatsiya xonasi va boshqalarni taklif etiladi. Bolalar uchun keng ochiq o‘yin maydonchalari mavjud.

Majmuada sport maydonlari - ikkita tennis korti, voleybol va basketbol maydoni, futbol maydonlaridan foydalanish imkoniyatlari yaratilgan. 110 o‘rinli kinoteatr seminarlar, treninglar, mahorat darslari va konferensiyalar uchun ochiq. Mehmonlar ot minishlari va esdalik suratga tushishlari mumkin bo‘lgan chavandozlar maydoniga ega. Xumson-Buloq kolleksiyasi turli zotdagi ot va tog‘ poniyalari o‘z ichiga oladi. Barcha tashrif buyuruvchilar xizmatlardan juda mamnun.

“TIBET MOUNTS FLORA” SANATORIY-KURORTI

“Tibet mounts flora” sanatoriy-kurorti hududida O‘zbekistonidagi yirik ko‘ptarmoqli xususiy tibbiyot muassasalaridan biri joylashgan bo‘lib, uning asosiy faoliyati yil davomida kattalar va bolalar uchun ambulator, sanatoriy-kurort va sog‘lomlashtirish xizmatlarini ko‘rsatishdan iborat.



55-rasm. Tibet mounts flora sanatoriy-kurorti.

Sanatoriyda ertalab muolaja olishdan oldin shifokor ko‘rigidan o‘tish, muolajalar orasida tog‘lar tomon qaragan dam olish zonasida dam olish va kechqurun kontsertga tashrif buyurish yoki

restoranda ovqatlanish mumkin. Kattalar va bolalar uchun 27 ta yo‘nalish, jumladan, terapeutik va profilaktik muolajalar, shuningdek, ixtisoslashgan shifokorlar maslahati mavjud.

Sanatoriy-kurort mijozlariga 9 ta diagnostika dasturlari, keng qamrovli tekshiruv dasturlari, klinik diagnostika tadqiqotlari va yuqori aniqlikdagi zamonaviy uskunalardan foydalangan holda funktional diagnostika o‘tkaziladi.

Hozirgi vaqtda tibbiy xizmatlarning global bozori o‘z infratuzilmasi (tibbiy boshqaruv, akkreditatsiya organlari, tibbiy turizm agentliklari va turoperatorlar, tibbiy sayohatlar bo‘yicha mutaxassislar) bilan shakllangan. Jahon iqtisodiy raqobati sharoitida tibbiy turizm fenomeni sohani zamonaviy texnologiyalar va bemorlarga xizmat ko‘rsatishni yaxshilash orqali jadal rivojlanishga majbur qilmoqda.

Yuqorida keltirilgan malumotlarga asosan, O‘zbekiston sharoitida tibbiy turizmni rivojlantirish uchun yetarlicha imkoniyatlar mavjud. Shu bilan birga, yanada boyib borayotgan zamonaviy texnologiyalarga asoslangan tibbiy jihozlar va jahonning eng sifatli tibbiy xizmatlar ko‘rsatayotgan xorij davlatlarida o‘z malakalarini oshirayotgan malakali kadrlar asos bo‘la oladi. Respublikamizda bunday sanatoriy-kurort majmualari soni yildan-yilga ortib bormoqda.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO‘YXATI

Normativ-huquqiy hujjatlar va metodologik ahamiyatga molik nashrlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyevning 2021 yil 9 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasida ichki va ziyorat turizmini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-6165-sonli Farmoni // www.lex.uz.
2. Mirziyoyev. Sh. M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021. – 464 b.
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009 yil 19 sentabrdagi “2010–2020 yillarda nomoddiy meros obyektlarini muhofaza qilish, asrab-avaylash, targ‘ib qilish va ulardan foydalanish Davlat Dasturini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 222-sonli Qarori // www.lex.uz.
5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011 yil 23 maydag‘i “Nomoddiy madaniy meros muhofazasiga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 47-sonli Qarori // www.lex.uz.
6. 2017–2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha “Harakatlar strategiyasi” to‘g‘risida. // O‘zbekiston Respublikasi Qonunlar hujjatlari to‘plami. – Toshkent, 2017. – 70-modda. / www.lex.uz.
7. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014 yil 21 iyuldag‘i 200-sonli “Moddiy madaniy va arxeologiya merosi obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanishni yanada takomillashtirish yuzasidan qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori. // www.lex.uz.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 16 yanvardagi F-5181-sonli “Moddiy madaniy va arxeologiya merosi obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanishni takomillashtirish to‘g‘risida”gi Farmoyishi // www.lex.uz.
9. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 15 fevraldagi 120-sonli “Muqaddas qadamjolar, ziyoratgohlar, masjidlar va qabristonlarni obodonlashtirish ishlarini samarali tashkil etish to‘g‘risida”gi Qarori. // www.lex.uz.
10. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 31 dekabrdagi “2019–2021 yillarda Toshkent viloyatida turizm sohasini jadal rivojlantirish to‘g‘risida”gi Qarori. // www.lex.uz.
11. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 10 iyundagi “O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasini tiklash va rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 433-sonli Qarori. // www.lex.uz.

12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 9 fevraldagagi “O‘zbekiston Respublikasida ichki va ziyyarat turizmini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-6165-sonli farmoni <https://lex.uz/ru/docs/5283956>

13. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 24 fevraldagagi “Ichki va ziyyarat turizmini rivojlantirish bo‘yicha qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 100-sonli Qarori. / www.lex.uz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Eshmirzayeva Z.A. Shosh va Iloq yo‘llarida. Toshkent viloyati ziyyortagohlari va qadamjolari-T.:”Press Oltin Meros”, 2020 y.
2. Собрание восточных рукописей Академии наук Узбекской ССР / Под.ред. А.А. Семенова., Д.Г. Вороновского. – Т.: Изд. АН УзССР. – 1963. – Т.ВИ. – С.34-36 (Бундан кейин «СВР»); Собрание восточных рукописей Академии наук Республики Узбекистан. История / Сост. Д.Ю. Юсупова., Р.П. Джалилова. – Т.: Фан, 1998.
3. Tarixi jadida. – 972a, 973a, 976ab va keyingi varaqlar.
4. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi – B harfi.
5. O‘zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
6. Ю.Ф.Буряков, М.Р.Касымов, О.М.Ростовцев Археологические памятники Ташкентской области.-Т.: “Фан”1973 й.
7. Omonulla Madayev O‘zbek xalq og‘zaki ijodi-T.:“MUMTOZ SO‘Z”, 2010 у.
8. B.Kabirova Tarixiy makonga boy Bo‘stonliq-T.: -2023 y.
9. Global Muslim Travel Index 2019. Master Card &Crescentrating 2019. URL: <https://www.crescentrating.com/reports/global-muslim-travelindex-2019.html>
10. Ecotourism in Uzbekistan: prospects and opportunitiyes. July 18, 2018. Available at: <https://uzbekistan.lv/en/ecotourism-in-uzbekistan-prospects-and-opportunitiyes/>
11. Бабкин А.Б.Специальные виды туризма. Учебное пособие. – Ростов-на-Дону, 2008.
12. O‘zbekiston ziyyarat turizmining yangi markaziga aylanmoqda // «Xalq so‘zi”, 2019 yil 22 fevral
13. 84 O‘zbekiston ziyyarat turizmining yangi markaziga aylanmoqda // «Xalq so‘zi”, 2019 yil 22 fevral
14. Buxoro Deklaratsiyasi: O‘zbekiston ziyyarat turizmi markazlaridan biri sifatida e’tirof etildi // «Xalq so‘zi”, 2019 yil 23 fevral iyun

15. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2020-yil 24 yanvar - Oliy Majlisga Murojaatnomasi. Xalq so‘zi gazetasi. №19.25.01.20.1-3 b.
16. Раимкулов А. О трех неизвестных типах христианских культовых сооружений Средней Азии // ИМКУ. – Самарканд, 2004.
17. Toshkent tamaddun tarixi va taraqqiyot istiqbollari. – Toshkent: Ma’naviyat, 2014
18. O‘zbekiston Kommunistik partiyasi s’ezdlarining rezolyutsiya va qarorlari. I том. – Б. 48, 50, 51.
19. Наука и религия. – 1977 у.
20. O‘zbekiston Milliy arxivi. 2956-fond, 1-ro‘yxat, 215-ish, 9-varaq.
21. Резван М. Е. Паломничество как функция транспортного коридора / Центральная Азия. Традиция в условиях перемен. Вып. 3 / Отв. ред. Р. Р. Рахимов., М. Е. Резван. – СПб., 2012
22. Markaziy Osiyo tarixi, arxeologiyasi va etnologiyasi masalalari. – Toshkent, 2018 у.
23. Буряков Ю. Ф., Касымов М. Р., Ростовцев О. М. Археологические памятники Ташкентской области. — Ташкент: Издательство «Фан» Узбекской ССР, 1973 й.
24. Baxtiniso Kabirova. Tarixiy makonga boy Bo‘stonliq.
25. Пардаев М.К., Усманова Д.К. Перспективы развития медицинского туризма в Узбекистане // ЭФО. Экономика. Финансы. Общество. 2022.
26. Эрик Топол. Будущее медицины: Ваше здоровье в ваших руках. — М.: 2016 й.

Internet saytlari

- 35.https://www.researchgate.net/publication/341589682_Perspektivy_razvitiia_medicinskogo_turizma
36. <http://www.sijjak.com/wp-content/uploads/2016/12/Yakkatut-Brichmulla>.
37. <http://elib.buxdu.uz/index.php/pages/referatlar/mustaqil-ish-kursishi/item/9817-2021-01-28-08-15-20>
38. <https://uz.wikipedia.org/wiki>.